


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT BOJXONA QO'MITASI
BOJXONA INSTITUTI**

G.A. ASILOVA

**ILMIY TADQIQOT FAOLIYATI
ASOSLARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOJXONA
QO'MITASI**

BOJXONA INSTITUTI

G.A. ASILOVA

ILMIY TADQIQOT FAOLIYATI ASOSLARI

Uslubiy qo'llanma

TOSHKENT – 2020

G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma.
– T., 2020. – 128 b.

Taqrizchilar:

- | | |
|-------------------------|--|
| D. Ro‘ziyeva | — Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy pedagogika kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari doktori, professor |
| X. Abduraxmonova | — DBQ Bojxona instituti Umumhuquqiy fanlar kafedrasi professori, yuridik fanlari doktori |

Uslubiy qo‘llanma bakalavriat va magistratura talabaları, mustaqil izlanuvchilar, tadqiqotchilar uchun ishlab chiqilgan. Unda ilmiy tadqiqot faoliyatining mohiyati, maqsad va vazifalari, asosiy tamoyillari va tadqiqot olib borish jarayonining xususiyatlari yoritib berilgan.

DBQ Bojxona instituti Kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (2020-yil 25-apreldagi 3/5/1-bayonnomasi).

SO‘ZBOSHI

Insoniyat tarixida qilingan har qanday kashfiyotlar hamda tamaddun taraqqiyotining asosida ilmiy tadqiqot yotadi. Ilmiy tadqiqot ishlariga jalg etish jarayoni oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat bosqichining birinchi kursidanoq boshlanadi. O‘quv jarayonida talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga faol yo‘naltirish o‘quv rejasingin ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari bilan tanishtirishdan asosiy maqsad talabalarда zamonaviy jamiyatda fanning roli va o‘rni haqida tizimli tasavvurni hosil qilish, shuningdek ularda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bunda talabalar hozirgi zamon fani, ilmiy bilish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi asoslari, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashni tashkil qilish va boshqarish tamoyillari bilan tanishtiriladi; ularda ilmiy tadqiqot olib borish metodlari va metodikalari haqida tushunchalar shakllantiriladi; ilmiy ishlarni til va uslub talablari asosida rasmiylashtirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Bojxona yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalar ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish jarayonida sohada mavjud asosiy muammolarni tahlil qilishni, iqtisodiyot va huquqshunoslikka doir tadqiqotlarning xususiyatlari, ilmiy tadqiqotlardagi turli yondashuvlar va qarashlarga munosabat bildirishni, tadqiqot usullari bilan ishlashni o‘rganadilar.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada tadqiqot mavzusini asoslash, mavzuga oid bosma va elektron ma’lumotlar tizimidan foydalanish, tadqiqotning vazifalarini shakllantirish, tadqiqot materiallari bilan ishlash, tadqiqotni zarur ko‘rgazmali ilovalar bilan ta’minlash, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tadqiqot natijalarini aprobatasiya qilish hamda taqdim etish usullari yoritilgan.

1-mavzu

FAN VA UNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI. ILMIY BILIM ASOSLARI.

Reja:

1. Fanning maqsadi va vazifalari, fan sohalari.
2. Ilmiy tadqiqot – fan va uning taraqqiyoti shakli.
3. Ilmiy bilim, ilmiy tavsiflash va tasniflash, ilmiy talqin, uning turlari.
4. Ilmiy tadqiqot olib borishning uslubiy asoslari.

Tayanch so‘z va iboralar:

Fan, ilmiy bilim, fan sohasi, metodologiya, ilmiy tadqiqot, ilmiy tavsif, ilmiy tasnif, ilmiy talqin, uslubiy asos, ilmiy tadqiqot uslubi, ilmiy usul, taqqoslash usuli, tanqidiy usul, tahlil usuli, sintez usuli, modellashtirish usuli.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fan – dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o‘zining o‘rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Qadimgi davrlardan to bugungi kungacha fan umuman jamiyatga va alohida har bir kishiga xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda bizni o‘rab turgan jamiki narsalar – inson ilmiy faoliyatining amaliy shakllari

bo‘lib hisoblanadigan texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayoni orqali moddiy boyliklarda mujassam bo‘lgan aqliy faoliyat mahsulidir.

Fan inson professional faoliyatining har qanday sohasi (yuridik, iqtisodiy, pedagogik va h.k.) kabi sohadir. Uning alohida xususiyati shundaki, boshqa sohalarda fan yordamida olingan bilimlardan foydalanilsa, fanning asosiy maqsadi bevosita *ilmiy bilimni* yaratishdan iborat.

Bugungi kunda fan ijtimoiy ong shakli sifatida hozirgi zamon postindustrial, axborot jamiyatining arxetipidan mustahkam o‘rin olgan. Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy institatlardan biri sifatida fan ko‘plab muhim rollar o‘ynamoqda, evristik, epistemologik, axborot, amaliy, texnikaviy, texnologik funksiyalarni bajarmoqda.

Bozor iqtisodi rivojlangan, ilg‘or texnologiya va infratuzilmali mamlakatlarda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish juda obro‘li va foydalidir: ilmiy bilishni o‘stirishga intellektual va moddiy resurslarni joylashtirish juda katta dividendlar keltiradigan foydali biznesdir.

Hozirgi zamon jamiyati uchun fan ulkan ijtimoiy qimmatga ega. Turmushni tashkil qilishning ijtimoiy darajasi yuksak darajada ratsionalligi bilan ajralib turadi. Butun insoniyat, tabiiy resurslari cheklanganligiga qaramay, fanga investitsiyalarni muttasil oshirib borayotganligi kishilik jamiyatining ijtimoiy ongi ilmiy bilimni uzluksiz o‘stirishdan manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi.

Ilmiy bilish obyektiga epistemologik jihatdan chuqur kirib borish uchun fan ijtimoiy institut sifatida ilmiy kadrlar bilan uzluksiz to‘ldirilib borilishi kerak. Shuning uchun ham u jamiyatda ma’rifiy, o‘qituvchilik funksiyasini bajaradi, zotan, olimlarning o‘sishi, shakllanishi aynan ilmiy jamoalarda sodir bo‘ladi. Bu yerda, shuningdek, ilmiy xodimlarni qobiliyati, bilimi va ko‘nikmalariga qarab saralab, tanlab olish ham sodir bo‘ladi. Taniqli ingliz olimi Mark Polani qayd etib o‘tganidek: “Fanni mahoratli odamlar yaratadi”.

Fan ijtimoiy institut sifatida hozirgi zamon jamiyatni hayotida muhim rol o‘ynaydi va ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:

- fanning **moslashtiruvchi** funksiyasi hayotiy faoliyatning tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga moslashish qobiliyatini shakllantiradi;
- fanning **faollashtiruvchi** funksiyasi jamiyatda tabiatga nisbatan amaliy o‘zgartiruvchi faoliyatga moyilliklarni shakllantiradi;
- fanning **variativ** funksiyasi o‘zini qurshagan muhitga nisbatan jamiyatning maqbul xulq-atvorini shakllantiradi;
- fanning **monitoring** funksiyasi tabiatni kuzatish va nazorat qilish global tizimini, masalan, ekologik laboratoriylar, meteorologik stansiyalar va yo‘ldoshlar, astrofizik observatoriylar, har xil qo‘riqxonalar va hokazolarni barpo etishni nazarda tutadi;
- fanning **informativ** funksiyasi odamlarga atrof olam haqida yangi ilmiy bilimlar, aniq ilmiy axborot beradi.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida globalizatsiya jarayonlari sodir bo‘layotgan hozirgi zamon sharoitida ilmiy bilimning notekis, eksponensial o‘sishi ilgari kuzatilmagan yangi bir paradigmani – fanning rivojlanish paradigmاسini vujudga keltirdi. Ilgari ilmiy bilish jarayoni ozmi-ko‘pmi bir maromda kechgan, ya’ni adiabatik xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda vaziyat butunlay o‘zgardi. Fanning o‘sishi jiddiy noadiabatik, sakrovchi, notekis xususiyatga ega bo‘lib, epistemologik vaziyat keskin, qo‘qqisdan, kutilmaganda o‘zgaradi.

Bunday g‘ayrioddiy sharoitlarda hozirgi zamon olimi nafaqat chuqur ilmiy bilim va ko‘nikmalarga, balki teran va serqirra hayot tajribasiga ega o‘tkir zehnli odam bo‘lishi kerak. Ilm fan taraqqiyoti – butun ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismidir.

Fanning asosiy belgilari quyidagilar:

- 1) aniq qoidalar asosida qurilgan muayyan belgilar tizimida aks etuvchi bilim;

2) obyektlarning faoliyati va rivojlanishi qonunlari haqidagi bilimlar tizimi;

3) empirik jihatdan tekshirish va tasdiqlash mumkin bo‘lgan bilim;

4) to‘xtovsiz o‘sib hamda eng mukammal metodlar yordamida to‘ldirib boriladigan tizim;

5) fanning tarkibiga empirik materialning predmeti, nazariyasi va gipotezasi, metod va fakti, ta’rifi kiradi.

Zamonaviy fanning ko‘plab tasniflari (klassifikatsiyalari) bor. Quyida ularning asosiy sohalari keltiriladi.

Rasmiy fanlar: informatika, mantiq, matematika, statistika, qaror qabul qilish nazariyasi.

Ijtimoiy fanlar: antropologiya, iqtisod, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya, tarix, huquq.

Gumanitar fanlar: adabiyotshunoslik, jurnalistika, lingvistika, pedagogika, psixologiya, san’atshunoslik, filologiya, etika, estetika.

Tabiiy (empirik) fanlar: antropologiya, astronomiya, biologiya, veterinariya, geografiya, geologiya, kimyo, tibbiyot, meteorologiya, okeanologiya, fizika.

Texnik fanlar: arxitektura, biotexnologiya, yog‘ochni qayta ishlash, informatika, kemashunoslik, kibernetika, kimyoviy texnologiya, kosmonavtika, materialshunoslik, mexanika, sistemotexnika, elektrotexnika, energetika, qurilish.

Har bir soha o‘z navbatida yo‘nalishlarga bo‘linadi. Masalan, *iqtisod* quyidagi tarmoqlarga ajratilgan:

- ✓ iqtisodiyot,
- ✓ menejment,
- ✓ kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish,
- ✓ marketing,
- ✓ bojxona ishi,
- ✓ moliya,
- ✓ bank ishi,
- ✓ soliqlar va soliqqa tortish,

- ✓ buxgalteriya hisobi va audit,
- ✓ xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik,
- ✓ jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar,
- ✓ sug‘urta ishi,
- ✓ pensiya ishi,
- ✓ statistika,
- ✓ baholash ishi,
- ✓ mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi,
- ✓ kadrlar menejmenti,
- ✓ ijtimoiy soha va inson resurslari menejmenti.

Bu guruhlarning har qaysisidan ko‘plab mustaqil fanlar ajraladi. Mustaqil fanlar bir-biriga bog‘liq sohalarda ilmiy izlanishning yirik va istiqbolli muammolarini yechishiga to‘g‘ri keladi, bu hol hozirgi paytda fanlararo va kompleks tadqiqotlarni keng avj oldirishni taqozo etadi.

Ilm-fan tushunchasining mohiyatini bilish, muayyan fan sohasida ilmiy izlanishlarni amalga oshirish bilim olish, ilmiy tadqiqot yuritish tushunchalarini anglab olishni taqozo etadi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosalarga kelish mumkin:

- ilmni egallash tabiat, inson va jamiyat haqidagi juda aniq maksimal obyektivlashtirilgan bilimni olishga qaratilgan ilmiy izlanish jarayonidan iborat;
- mazkur jarayon mobaynida to‘plangan bilim ilmiy axborot deb nomlanadi;
- ilmiy faoliyati ilmiy bilim olish, qayta ishslash va saqlashdan iborat bo‘lgan faoliyat turidir.

Demak, *ilm-fan* – bu kishilik jamiyatining o‘z-o‘zini va atrof-olamni anglashga urinishi jarayonida qo‘lga kiritgan jamiki aniq, obyektiv, barcha uchun teng darajada muhim bo‘lgan bilimlari jamlanmasidir.

Ma’lumki, fanda har qanday yangi ilmiy dalilni aniqlashning o‘zi bilan ilmda kashfiyot yaratib bo‘lmaydi. Fanda kashfiyot, ixtiro qilish uchun yangi ilmiy dalillarni fan nuqtayi nazaridan asoslash, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Ilmiy tadqiqiy

faoliyatning boshlang‘ich nuqtasi ilmiy izlanishlardan boshlanadi, buning uchun dastlab noma’lum bo‘lgan yangi jarayonlar va hodisalarni oldindan ko‘ra bilish, dolzarb muammolarni aniqlash va ularning yechimi haqida muayyan farazlarni ilgari surish talab etiladi. Tadqiqot ishi muayyan soha bo‘yicha qo‘yilgan aniq maqsad va tadqiqotchining shaxsiy farazidan kelib chiqib rejalashtiriladi.

Jamiyatning fanga va fanning jamiyatga bo‘lgan munosabatlari nafaqat uyg‘un, ayrim hollarda hatto zid xarakterga ega bo‘lishi ham mumkin. Fan nafaqat atrofdagi dunyo haqida obyektiv bilimlarni aniqlaydi, to‘playdi va jamiyat, tabiatni rivojlantirish uchun xizmat qiladigan vositalarni yaratib beradi, balki unga ziyon keltiradigan vositalarni vujudga keltirishi ham mumkin.

Demak, bilimlar rivojining oliy darajasi insondan tafakkur va kasbiy mahoratning tamoman yangi darajasini hamda yuqori ma’naviyat va axloqiy mas’uliyatni talab qiladi. Aynan yuqori ma’naviyat va axloqiy mas’uliyat, ya’ni insoniyat, jamiyat, tabiat oldida mas’ullik hissiga ega bo‘lish insonni ilm-fanni faqat yaxshilik maqsadida egallash, yaxshilikka xizmat qildirish, jamiyatni rivojlantirish yo‘liga sarflashga qaratishdek oliy va ezgu niyatlarini yuzaga keltiradi. Bu ilmiy mafkura, ilmiy etika tushunchalarini ham yuzaga keltiradi.

Ilmiy tadqiqot – fan va uning taraqqiyoti shakli

“Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari” o‘quv kursi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat va magistratura yo‘nalishlaru o‘quv rejasiga kiritilgan bo‘lib, ilmiy bilishning falsafiy jihatlari, metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot ishlarining strukturasi va asosiy bosqichlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu kurs nazariy tadqiqot metodlari, ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish masalalarini o‘rganadi va ilmiy tadqiqot yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashga ko‘maklashadi.

Bilim olish, avvalo, voqelikni idrok etishdan boshlanadi, so‘ngra atrof-borliq bilan kengroq tanishish, qiziqqan sohasi bo‘yicha fanlarni

o‘qib-o‘rganish bosqichlariga o‘tiladi. Ilmiy izlanishlar asosan yuqori ta’lim bosqichlaridan boshlanadi va asta-sekin ilmiy tadqiqiy faoliyatga o‘tiladi. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, voqelik haqidagi obyektiv bilimlarni egallashdir.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi – ilmiy tadqiqot faoliyatining ilmiy tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta’limot. Bilish jarayonida metodologiya tadqiqot obyektiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi va bilish natijalarini oldindan belgilab beradi.

Ilmiy tadqiqotlar maqsadiga, tabiat yoki sanoat bilan bog‘liqlik darajasi va ilmiy chuqurligiga ko‘ra uch asosiy turga ajraladi: fundamental tadqiqotlar, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar.

Fundamental (nazariy) tadqiqotlar atrof borliqdagi yangi qonunlarni ochishga, hodisalararo aloqalarni aniqlashga, yangi nazariya va tamoyillar yaratishga yo‘naltiriladi. Ular ijtimoiy bilimni kengaytirishga, tabiat qonunlarini yanada chuquarroq anglashga imkoniyat beradi. Bu tadqiqotlar ham fanning ichida, ham ijtimoiy ishlab chiqarishda asos (fundament) hisoblanadi.

Amaliy tadqiqotlar ilmiy negiz (baza) ishlab chiqishga yo‘naltiriladi. Shu bois tabiat, jamiyat, tafakkurga xos qonunlarni bilib olish fundamental tadqiqotlarning, bu tadqiqotlar natijalarini bilim orttirish va ijtimoiy-amaliy muammolarni hal qilish uchun qo‘llash amaliy tadqiqotlarning vazifasidir.

Fundamental tadqiqotlar, odatda, amaliy tadqiqotlardan oldinda boradi va ular uchun nazariy asos yaratadi.

Ishlanmalar amaliy (yoki fundamental) tadqiqotlarning natijalaridan texnika, ishlab chiqarish texnologiyasining yangi xillarini barpo qilish va o‘zlashtirish yoki mavjud namunalarini takomillashtirish maqsadida yaratiladi.

Ilmiy tadqiqotning umumiy maqsadi quyidagi ehtiyojlarga javob beradigan nazariyani qurishdan iborat:

- 1) faktlarni tahlil etish, tasniflash va bir tizimga solish (sintez qilish);
- 2) real olamning aniq faktlarini talqin qilish va anglab olish;

3) yangi natijalarni oldindan aytib berish va hodisalar rivojini bashorat qilish.

Ilmiy ish boshqa har qanday ishdan o‘zining maqsadi – yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonida voqelik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi.

Biroq fanda qandaydir bir yangi ilmiy faktini aniqlash kamlik qiladi, unga fan pozitsiyasidan turib izoh berish, uning umumiy bilishga oid, nazariy yoki amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, shuningdek ilgari ma’lum bo‘lmagan yangi jarayonlar va hodisalarni oldindan ko‘ra bilish talab etiladi.

Ilmiy ish – bu, avvalo, qat’iy rejali faoliyatdir. Garchi fanda tasodifiy kashfiyotlar qilinib tursa-da, lekin faqat rejali, zamonaviy vositalar bilan puxta qurollangan ilmiy tadqiqot tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon beradi. Shundan keyin avval-boshdagagi fikrning aniq maqsadni ko‘zlab ishlanishini davom ettirish, oldindan mo‘ljallangan tadqiqot sxemasini aniqlashtirish, o‘zgartirish, unga qo‘srimchalar qilish jarayoni kechadi.

Ilm olish nihoyatda murakkab, sermashaqqat va uzoq davom etadigan ish. Xalqda “Ilm – igna bilan quduq qazishdir” deb bejiz aytilmaydi. Ilm olish soddadan murakkabga qarab to‘xtovsiz o‘sib, takomillashib boradigan, ayni vaqtida juda qiziqarli, eng asosiysi, jamiyat uchun nihoyatda kerakli ish. Ilm olish, ilmni egallah jarayoni insondan katta kuch va iroda talab etadi.

Jahon ilm-fani tajribasida turli ilm sohalari va ularni tadqiq qilish metodlari, yo‘nalishlari haqida alohida maktablar bo‘lgan, ular muntazam o‘zgarib, rivojlanib borgan. Hozir ham turli fanlar, zamonaviy yo‘nalishlar mavjud. Ushbu fanlarni o‘rganish, tadqiq qilish yangi kashfiyotlarni yuzaga keltiradi, ularni hayotga tatbiq etish mamlakatni taraqqiy ettiradi, jamiyat, insonlar hayotini yanada farovonlashtiradi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi obyektni o‘rganish, yangi natijalarni oldindan ko‘ra bilib, hodisalarning kelgusidagi rivojini bashorat qilish, dalillarni aniqlash va tahlil qilish,

tasniflash va umumlashtirish, kashf qilingan ilmiy yangiliklarni aniqlab, amaliy tavsiyalar berishdan iborat. Aniq maqsad va qat’iy reja asosida olib borilgan, zamonaviy usul va vositalar bilan ta’minlangan, aniq hisob-kitoblar asosida olib borilgan tadqiqotgina tabiat va jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlarni ochish va teran bilishga imkon yaratadi.

Ilmiy bilim, ilmiy tavsiflash va tasniflash, ilmiy talqin, uning turlari

Ilm-fanni egallahning bosh maqsadlardan biri bilim olishdir. Inson faoliyatining barcha sohalarida bilim maqsadga erishishning alohida vositasi hisoblanadi. Ilmiy bilim nazariy, konseptual xususiyatga ega bo‘lib, u ratsional va isbotlangan, ya’ni verifikatsiyalangan bo‘ladi. Ilmiy bilimning o‘ziga xosligi maxsus soha sifatidagi fanning shakllanishi va uni o‘rganish yo‘llarining o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi. Bilishning kumulativ, to‘plash xarakteriga egaligi ilm-fan rivojining eng muhim omillaridan biridir.

Ilmiy bilim olish ikki jarayon – differensiatsiya va integratsiya jarayonlarini qamrab oladi.

Differensiatsiya o‘rganilayotgan obyekt xususiyatlarini boshqalaridan farqlash orqali o‘rganish, alohidalash, *integratsiya* esa birlashtirish, bir-biriga yaqinlashtirish tushunchalarini anglatadi. XX asrga kelib, ayniqsa integratsiya, integrativ yondashuv ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoldi. Aslida ilmiy bilim jarayonida biror metodning ustuvorligi haqida gapirish mumkin emas, chunki ilmiy izlanishda qo‘llanadigan usullarning jihatlari haddan ziyod keng qamrovli va xilma-xildir. Biroq ilm-fanni egallahda nihoyatda kerak bo‘ladigan ikkita muhim metodologik omilni alohida qayd etish lozim. Bulardan birinchisi – axborot tuzilmasi va umumiyl xususiyatlarini maxsus o‘rganish zarurati tufayli axborotni to‘plash va faoliyat yuritish jarayonini optimal darajada tashkillashtirish edi. Bu informatika, axborotlashtirishning paydo bo‘lishiga olib keldi. Ikkinchisi esa ilm-

fanning ilmiy idrok etilishi, ilmiy o‘rganilishi, ya’ni ilmiy bilish obyektiga aylanishi bo‘lib, buning hosilasi sifatida ilmshunoslik fani yuzaga keldi.

Ilmiy bilim olish o‘rganilishi maqsad qilingan obyektni ilmiy tomondan tavsiflash, tasniflash va ilmiy talqin qilish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tavsiflash tafakkur hosilasining alohida turi bo‘lib, noma’lumlikni ma’lumlik orqali tushuntirishdir.

Ilmiy tavsifda ikki tur xususiyatlar ajratiladi: birinchisi – bu tavsiflanayotgan obyektlar, hodisalarning umumiyligini sinfiga oid, ya’ni bu obyekt qanday turga mansubligini ko‘rsatib beruvchi xususiyatlarni aniqlash, ikkinchisi esa xuddi shu turga kirgan obyektlardan tavsiflanayotgan obyektni farqlash imkoniyatini beruvchi xususiyatlarni topishdir.

Tadqiq qilinayotgan obyektning umumiyligini yoki farqli xususiyatlarga ko‘ra muayyan guruhlarga ajratib o‘rganilishi **ilmiy tasnif (klassifikatsiya)** deb ataladi. “Tasnif” arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, guruhlash, sinflarga ajratish ma’nosini bildiradi. Demak, ilmiy bilish ijodiy jarayon bo‘lib, u, birinchi navbatda, o‘rganishni, tadqiq etishni taqozo qiladi. Ilmiy tadqiqotning keyingi bosqichi olingan bilimlarni talqin qilish – integratsiya qilish bo‘lib, tadqiqotning original, betakror ijodiy ish ekani asosan talqinda aks etadi. Tanlangan mavzu, qo‘llanilgan usullar, aniqlangan farazlar, tadqiqot ishi bo‘yicha o‘tkazilgan eksperiment tajriba-sinov ishlari ham talqin orqali baholanadi. Shuning uchun ilmiy talqin tadqiqotchining uslubi, ijod mahsulini taqdim eta olish mahorati ifodasi hamdir.

Ilmiy talqinning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- ijodiy talqin;
- ilmiy talqin;
- kompilativ talqin;
- dogmatik talqin;
- ratsional va irratsional talqin;
- badiiy talqin;
- erkin talqin va boshqalar.

Ijodiy talqin obyektni shunchaki izohlash emas, balki uni zamonaviy ilmiy qarashlarga bog‘lab o‘rganish, ularning sintezidan o‘tkazishdir. Bunda tadqiqotchining mustaqil fikri, o‘z yechimi va xulosalari tadqiqot ishining asosiy nuqtasidir. Ijodiy talqin ijodkor bilan hamkorlikda faoliyat yuritish bo‘lib, u matnni, asarni kengroq, chuqurroq tahlil qilishda qo‘llanadi va ijod usuli hisoblanadi. Ijodiy tanqid ham ilmiy talqinning bir turi, ammo unda matn, asarning nafaqat ijobiy tomonlari, balki kamchiliklari ham yoritib berilishi kerak bo‘ladi.

Ilmiy talqindan maqsad anglangan voqeа-hodisalarni, xususiyat va belgilarni bilish, tushuntirish, izohlab berish hisoblanadi. Ushbu jarayonda bilim chegaralari kengayadi, yangicha dunyoqarash, ilmfanda yangi kategoriyalar, postulatlar, nazariyalar paydo bo‘ladi. Obyektdagi noma’lum belgilar aniqlanadi. Ilmiy talqinda tabiat va jamiyat qonunlarini ochib berish, talqin qilish muhim o‘rin tutadi. Qiziqish va tajribalarga, qiyoslash va eksperiment-sinovlarga tayanish talqinning ilmiyligini, qimmatini oshiradi. Ba’zan tadqiqotchi taqlidiy taqliddan foydalanadi, ya’ni o‘zidan oldingi avtoritetlarga, ularning usullari va metodikasiga taqlid qiladi. Bu aslida ilm-fandagi vorisyilik tamoyiliga amal qilish hisoblanadi. Taqlidchilik ilmiy izlanishlarga kirishilayotgan ilk bosqichda ko‘zga tashlanadi. Lekin u uzoq davom etmasligi zarur, aks holda qaytarish, takrorlash, kompilatsiya yuzaga keladi. Aslida ilmiy tadqiqot ilmiy talqin asosiga quriladi, chunki tushuntirish, izohlash, bayon qilish tadqiqotchi qo‘llaydigan asosiy usullardir.

Dogmatik talqin ilm-fan sohalarida qat’iy o‘rnatilgan, ilm darg‘alari ma’qullaydigan, erkin fikrlashga yo‘l qo‘yilmaydigan tushuntirish, izohlash usuli sanaladi. Ilm-fanda integratsiya kuchaygan hozirgi paytda dogmatik yondashuv ijodiy izlanishlarga g‘ov bo‘ladi, qotib qolgan xulosalarni takrorlashga olib keladi. Izlanishlarini real hayot muammolari bilan bog‘lay olmaslik, obyekt (predmet)ning real holatini yetarli o‘rganmaslik oxir-oqibat tadqiqotchini buyurtmachi eshitishni xohlaydigan natijalarni chiqarishga majbur qiladi. Ilm-fanda biror yangi fikr aytish uchun, avvalo, dogmatik yondashuvdan voz

kechish kerak. Dogmatik talqinda ba'zan transtsendentallik ko'zga tashlanadi. Bunday yondashuv aql-u idrokni chalg'itib, uni tajribadan obyektiv borliqdan tashqaridagi muammolar bilan shug'ullanishga yetaklaydi.

Ratsioial talqin aql, idrok, bilimga asoslangan izohlash usuli bo'lib, har qanday ilmiy asar, izlanish yoki eksperiment ratsional talqin qilingandagina jamiyat uchun foydali bo'ladi. Ratsional talqin empirik tajribalarga, ijtimoiy hayotning xususiyatlariga, ilm-fanning gumanistik anhanalariga tayanadi. Har bir insonga xos fikr yuritish, obyekt (predmet)ning real holatini, uni takomillashtirish yo'llarini aql-u idrok doirasida tushuntirish ratsional talqin xususiyatidir. Ilm-fan ratsional talqin tarafdori bo'lsa-da, ba'zan unda irratsional yondashuv va postulatlar ham uchrab turadi. Keyingi paytlarda dunyoviy va diniy bilimlar o'rtasidagi g'ovlar olib tashlanib, ular sinteziga qaratilayotgan e'tibor irratsional talqinni kengaytirmoqda.

Badiiy talqin ham ilmiy, ratsional xususiyat kasb etishi mumkin. Badiiy asarlar va matnlarni ilmiy talqin qilish estetika va adabiyotshunoslik sohalarini boyitadi. Gohida sof ilmiy asar, matn ham badiiy talqin obyektiga aylanadi. Erkin talqin tayyor qoliplardan chetga chiqish, ularni atayin buzish, bayon etish usuli hisoblanadi. Erkin talqinda egotsentrizm uchraydi. Bu esa badiiy ijodda tez-tez uchrab turadi. Badiiy talqinda hayotiylikka asosiy belgi sifatida qaraladi, matndagi obrazlar, tasvirlarda hayot ifodasiga qarab ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Kompilativ talqin obyekt (predmet)ning real holatini berkitish, muallifga yoki taqrizhciga tilyog'lamalik qilish, «*men senga tegmayman, sen ham menga tegma*» qoidasidan kelib chiqadi. Kompilativ talqin yakunda yo'q ijobiy sifatlarni bor qilib, bo'rttirib ko'rsatishga olib keladi. Bu obyekt (predmet)ning real muammolarini ko'rib-ko'rmaslikka olib keladi. Kompilyativ talqin faqat salbiy jihatgagina ega emas. Mustaqil yondashishni esdan chiqarmagan kompiliyativ talqin hurfikrlilikni rivojlantiradi, obyekt (predmet)ni xolisona baholashga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot olib borishning uslubiy asoslari

Ilmiy tadqiqot har qanday sharoitda aniqlikni, xolislikni talab qiladi. Bojxona sohasida ilmiy tadqiqotni amalga oshirayotgan tadqiqotchi oldida murakkab va ayni paytda qiziqarli vazifalarni bajarish mas’uliyati turadi. Murakkabligi shundaki, ushbu soha hozirgi ko‘rinishida O‘zbekistonda mustaqillik davrida rivojlandi. Shu bois sohaga tegishli adabiyotlar soni boshqa sohalarga nisbatan ancha kam. Bojxona ishining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha esa ilmiy adabiyotlar deyarli yo‘q.

Bojxona ishini o‘rganishdagi qiziqarli va mas’uliyatli jihatlarga kelsak, har qanday nisbatan yangi sohaga qo‘l urgan izlanuvchi uchun ushbu yo‘nalishni o‘rganish va unga nisbatan xolisona yondashish, ma’lum bir xulosalarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ana shu xolislik, dalillar, manbalar va hujjatlarni obyektiv tarzda yoritishda tadqiqotchi ma’lum bir tamoyillarga e’tibor qaratishi lozim.

Ilmiy tadqiqot uslubi – muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimidir. Ilmiy fakt, g‘oya, gipoteza, konsepsiya, nazariya, ilmiy qonun ilmiy bilish tizimining tarkibiy elementlaridir.

Tadqiqot texnologiyasi – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarini qo‘llash va ular yordamida olingan natijalarni talqin qilish qoidalari tizimi.

Ilmiy ishni yozishga kirishgan tadqiqotchi, eng avvalo, ilmiylik uslubiga rioya qilishi darkor. Iqtisodiy yo‘nalishlarda ilmiylik uslubi nimalarni o‘z ichiga oladi?

Birinchidan, tadqiqot jarayonida yig‘ilgan ma’lumotlar, materiallar, hujjatlar, manbalarni ilmiy nuqtayi nazardan, obyektiv o‘rganish, ularga shaxsiy munosabat, ehtiroslardan xoli tarzda ilmiy baho bera olish kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy fanlar bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda faktlarni qayd qilish, quruq raqamlarni keltirish bilangina

cheklanmaslik kerak. Shu faktlar va voqea-hodisalar sababi hamda oqibati, ularning ma'lum bir iqtisodiy jarayonlarda tutgan o'rni bo'yicha nazariy mushohadalarni ilgari surish, iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarning ijobiyligi, salbiy oqibatlarga ilmiy baho beriladi. Bu o'z navbatida bugungi kun va kelajak uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy voqelik to'g'risida atroflicha mulohaza yuritishga hamda tegishli xulosalar chiqarishga undaydi.

Fan sohasi to'xtovsiz rivojlanayotgan bilimlar, insonlar va muassasalarning ana shu ijodiyotni ta'minlovchi ilmiy ijodlarini o'z ichiga oladi. Fanning rivojlanishi faktlar to'plashdan boshlanadi, ular o'rganiladi va tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi. Ma'lum bo'lgan faktlarni tushuntirish va yangilarini oldindan aytib berishga imkon beruvchi ilmiy bilimlar mantiqiy tuzilgan tizimlarini yaratish uchun ayrim qonuniyatlarni ochishdan iborat bo'ladi.

Ilmiy bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishning oliy shakli bo'lib *nazariya* hisoblanadi. U ilmiy tamoyillar va qonunlar, tadqiqot usullarini ifoda etadi.

Ilmiy usul (metod) – ilmiy bilimni muttasil o'stirishga yo'naltirilgan inson bilishining obyektiv jarayonlari, qonunlari va tendensiyalarini aks ettiradigan ilmiy bilimdir. Bu nuqtayi nazardan ilmiy metod o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy metoddir. Ilmiy ijod deganda, avvalambor, ilmiy bilishning har xil usullaridan yangi ilmiy bilim olish vositasi sifatida foydalanish tushuniladi. Odatda, tadqiqotchi o'z ishida metodlar, yondashuvlar va konsepsiyalarning tizimidan foydalanadi. Shuning uchun ham ilmiy ijod voqelikni ilmiy bilish va o'zgartirishning har safar o'zgargan sharoitlarga moslashuvchan usuli hisoblanadi.

Tadqiqot usullariga quyidagilar kiradi:

- empirik tadqiqot usullari (kuzatish, qiyoslash, o'lchash, eksperiment);
- nazariy tadqiqot usullari (mavhumdan aniqlikka tomon borish va b.);
- empirik va nazariy tadqiqotlar usullari (tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish, mavhumlashtirish va b.).

Olimlar ilmiy natijaga (ijobiy yoki salbiy) erishish vositasi sifatida yetarlicha faktik materiallarga ega bo‘lmagan hollarda *faraz* (*gipoteza*)dan foydalanadilar, bu o‘z navbatida tajribada sinab ko‘rish va nazariy asoslashni talab etadi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda *taqqoslash usuli* muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish jarayonida tadqiqotchi u yoki bu fakt, ma’lumotlarga hamma vaqt ham “oxirgi haqiqat” deb qaramasligi, mavjud manbalarni ilmiy nuqtayi nazaridan taqqoslashi, qiyosiy, mantiqiy jihatdan tahlil qilishi kerak. Bu jarayonda tadqiqotchi o‘ziga qadar mazkur mavzuga yaqin ilmiy ishlar bilan shug‘ullangan, xususan, bu borada maqola, ilmiy asarlar chop etgan, ilmiy ish himoya qilgan mualliflar ishiga tanqidiy murojaat qilishi, talqin etilgan fakt va hodisalarni, dalillarni o‘zi izlab topgan manbalar bilan taqqoslashi zarur. Iqtisodiy fanlarda taqqoslash usuli nafaqat o‘zigacha bo‘lgan ilmiy izlanuvchi va mavjud manbalarga, balki bir necha mualliflarning ilmiy dalillar, hodisalarga nisbatan yondashuvi, talqiniga nisbatan ham qo‘llanadi. Ikki, uch va undan ortiq mualliflar talqinidagi dalillar, ma’lumotlar, faktlar bir-biridan farq qilgan taqdirda ilmiy tadqiqotchi qaysi muallif nuqtai nazariga qo‘shilishi kerak?

Birinchidan, taqqoslash usuli ilmiy tadqiqotchidan o‘rganayotgan mavzusi bo‘yicha chuqur tayyorgarlik bazasini talab qiladi.

Ikkinchidan, mualliflar nuqtayi nazariga nisbatan o‘zidagi manbalar qaysi tomonga moyil bo‘lganidan kelib chiqadi.

Uchinchidan, mualliflar talqinidagi voqeа-hodisalarga mavjud iqtisodiy jarayonlar ta’siri bo‘lganligi yoki bo‘lmaganligini tahlil etadi.

To‘rtinchidan, tadqiqotchining ilmiy dalillar, faktlar, ma’lumotlar talqiniga ehtiyyotkorlik bilan yondashishi, taqqoslash jarayonida har bir iqtisodiy jarayon ildizini o‘rganish, baho berish – xulosa chiqarishda xolislikka e’tibor qaratmog‘i lozim. Shu bilan birga, bir tomonlama talqinlardan, masalaning ijobjiy yoxud salbiy tomonlarini bo‘rttirib yoki ayni paytda susaytirib yuborishdan ham o‘zini tiyishi kerak.

Ilmiy tadqiqotda dalillar, ma’lumotlar, voqeа-hodislarni o‘rganish, talqin qilish jarayonida *tanqidiy usul*dan ham keng

foydalaniadi. Ilmiy tadqiqot mavzusini yoritishda foydalanadigan manba va adabiyotlar, unda talqin etilgan faktlar va ma'lumotlar, jarayonlar, keltirilgan raqamlar, atamalar, dalillarga ham sinchkovlik bilan va ma'lum darajada tanqidiy usulda yondashish ilmiy ish qiymatini yanada oshiradi.

Iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llanadigan *tahlil usulining* mohiyati tadqiqot obyektini fikran yoki jisman tarkibiy qismlarga ajratishdan iboratdir. Mazkur holda obyektning ayrim unsurlari (elementlari) mohiyati, ularning bog'liqligi va o'zaro ta'siri o'r ganiladi.

Tahlildan farqli o'laroq, *sintez usuli* tadqiqot obyektini yaxlit bir butun sifatida qismlarining birligi va o'zaro bog'liqligida bilishdan iboratdir. Sintez usuli tarkibiy qismlari tahlil qilingandan so'ng murakkab tizimlarni tadqiq qilish uchun qo'llanadi. Tahlil va sintez usullari bir-biri bilan bog'liq va ilmiy tadqiqot vaqtida biri ikkinchisini to'ldiradi. Ular o'r ganilayotgan obyektning xossasi va tadqiqot maqsadiga bog'liq holda turli shakllarda qo'llanilishi mumkin.

Iqtisodiy tadqiqotlarda ko'pincha *modellashtirish usuli* qo'llaniladi. Uning mohiyati tadqiqot obyekti (asl holati) ni uning asosiy xossalari ifodalovchi sun'iy sistema (model) bilan almashtirishdan iboratdir.

Umuman, iqtisodiy fanlarda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yuqorida qayd etilgan uslubiy asoslarga tayanadi. Ilmiy tadqiqot uslublaridan unumli foydalanish ilmiy ish mavzusini to'laqonli yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Uslubiyot o'r ganiladigan obyekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga, ishlab chiqilgan uslublar, tadqiqotchi malakasining umumiylariga bog'lik bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Fan" tushunchasini ta'riflang.
2. Fan sohalari qanday tasniflanadi?

3. “Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari” o‘quv kursi nimani o‘rganadi?
4. Ilmiy tadqiqot qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
5. Ilmiy talqinning qanday ko‘rinishlari mavjud?
6. Bojxona sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslari haqida nimalarni bilasiz?

Amaliy ishslash uchun topshiriqlar:

1. “Klaster” texnologiyasi yordamida ilm-fanning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini tushuntiring.
2. Internet va boshqa manbalardan foydalanib, ayrim mamlakatlarni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga yordam bergen ixtiolar haqida ma’lumot to‘plang va jadval shaklida ifodalang.
3. XXI asrda yuz berayotgan integratsiya jarayonining ijobiyligi va salbiy tomonlarini ko‘rsating. Ijobiyligi tomonlarini kuchaytirish, salbiy tomonlarining oldini olish haqida o‘z fikringizni aytинг.

2-mavzu

ILMIY TADQIQOTNI TASHKIL ETISH VA OLIB BORISH ASOSLARI

Reja:

1. Tadqiqotni tashkil etish tamoyillari.
2. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining bosqichlari.
3. Talabalar tomonidan bajariladigan imiy tadqiqot ishlarining turlari.
4. Tadqiqot mavzusini tanlash omillari.

Tayanch so‘zlar va iboralar:

Ilmiy tadqiqot ishi, oliv ta’lim muassasasi, referat, annotatsiya, ilmiy taqriz, ilmiy ma’ruza, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy yo‘nalish, ilmiy muammo, ilmiy mavzu.

Tadqiqotni tashkil etish tamoyillari

Oliv ta’lim tizimida talabalar ilmiy tadqiqot ishlariga (ITI) tegishli mavzular bilan birinchi kursdanoq referat, kurs ishi yozish orqali jalb etiladi. Talabalik yillarining dastlabki bosqichidanoq ITIga jalb qilish oxir-oqibatda malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borishdek zahmatli yo‘nalishda ma’lum bir ko‘nikmalar, tajriba orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik yillarida ITI bilan shug‘ullanganlarning hammasi ham keyinchalik ilmiy ishlar qilishi, ilmiy daraja va unvonlar olishi ko‘zda tutilmaydi. Ammo ayni paytda, talabalik yillarida ilmiy tadqiqotga jalb etish tadqiqotchining manbalar, ilmiy adabiyotlar bilan kengroq va chuqurroq tanishishiga imkon yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir kishi dunyoqarashi va tarixiy mushohadasining kengayishi, keyinchalik qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar, qiyosiy tahlil ko‘nikmasiga, tanqidiy xulosalar chiqara olishga undaydi. Albatta, talabalik yillarida boshlangan ilmiy tadqiqotga ko‘nikma, yillar davomida ilmiy tashnalikka, ayrim shaxslar uchun bir umrlik xatti-harakatga, ilmiy kashfiyotlarga olib kelishi mumkin.

Oliv ta’lim muassasasida (OTM) ITIga jalb qilish talabani ilmiy ijod bilan shug‘ullanishga, o‘z ustida mustaqil ishlashga, olgan bilimlarini bir tizimga solishga, umumlashtirishga, mustaqil ilmiy mushohada yuritishga o‘rgatadi. Ilmiy tadqiqot talabada ilmiy manbalarni mustaqil tahlil qilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘zini o‘zi boshqarish, ilmiy izlanish natijasi uchun kurashga, yangi tadqiqotlar ustida o‘ylashga, uning yechimi yo‘lida qat’iy xatti-harakatlarga undaydi.

Talabalarni OTMdai ITIga jalg qilish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- talabalarni o‘quv rejasiga asosida, o‘quv jadvaliga kiritilgan holda ITIga jalg qilish;
- talabaning o‘z xohishiga ko‘ra, o‘quv jarayonidan xoli vaqtida, ITI bilan shug‘ullanishi.

OTMlarda o‘quv rejasiga asosidagi talabalarni ITIga jalg qilish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:


- talabalarni ilmiy izlanish asoslari, xususan, usullari bilan tanishtirish;
- ilmiy reja tuzish va uni amalga oshirish yo‘llarida ishlash;
- ilmiy adabiyotlar ustida ishlashga ko‘nikma hosil qilish;
- yozma va arxiv manbalari bilan ishlashga yo‘naltirish;
- davriy matbuot materiallarini tahlil qilishga o‘rgatish;
- yig‘ilgan manba va adabiyotlar asosida materiallarni umumlashtirish, ularni tegishli tarzda bir tizimga solish;
- mavjud manba va adabiyotlarga tayangan holda, o‘z tadqiqotini mantiqan bir-birini to‘ldiradigan, asosli, erkin va ilmiy tarzda yozma bayon qilish tartib-qoidalari bilan tanishtirish;
- ilmiy tadqiqot xulosalarini og‘zaki bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

OTMdai yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish, ilmiy ishga ko‘nikma hosil qilish talabadan o‘qish jarayonida hamma yo‘nalishlardagi bilim olish shakllarini mustahkam egallashni taqozo etadi (23-betdagi 1-sxemaga qarang).

OTMdai talabalarning o‘z xohishiga ko‘ra, o‘quv vaqtidan xoli ITI bilan shug‘ullanishi quyidagi shakllarda olib boriladi:

- talaba o‘zi qiziqqan yo‘nalishdagi mavzuni o‘rganishga kirishadi;
- talaba o‘z xohishiga ko‘ra, tegishli kafedralar qoshidagi ilmiy yo‘nalishlar yechimidagi tadqiqotlar olib borishda qatnashadi;

I-sxema



- fakultet, kafedralar qoshidagi talabalar ilmiy to'garagi faoliyatida qatnashadi;
- talabalar ilmiy jamiyati faoliyatida ishtirok etadi;
- fakultet, OTM miqyosidagi an'anaviy ilmiy anjumanlarda, respublika talabalar olimpiadasida, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda ishtirok etadi;
- fakultet, OTM, respublika, xalqaro miqyosda chop etiladigan ilmiy to'plamlarda maqolalarini e'lon qiladi.

Umuman olganda, OTMlarda ITiga talabalarni jalg etish keng qamrovli, chuqur mushohadaga ega mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi. Bu esa OTM, tegishli fakultet, kafedralarda ilmiy tadqiqotni tashkil etish qaysi darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liq bo'ladi.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarining bosqichlari

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

I. Quyi bosqich. Ushbu bosqich umumta’lim fanlarini o‘rganish davrida 1-, 2- bosqich talabalar bilan ishlashga qaratiladi. 1-, 2- bosqich talabalar bilan ish olib borilganida ularni ilmiy tadqiqotning asos va unsurlari bilan tanishtirish, ularda fundamental fanlarni chuqur o‘rganish bo‘yicha mustaqil ish ko‘nikmalarini rivojlantirish, tanlangan mutaxassislikka hurmat hissini tarbiyalash nazarda tutiladi. Bunda talabalar lmiy tadqiqot ishining shakllari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. O‘rganilayotgan kurslarning alohida mavzularidan referat tayyorlash.

2. Ma’lum mavzu bo‘yicha bibliografiya tuzish.

3. O‘quv metodik qo‘llanma, jadval, maket, modellarni tayyorlashda ishtirok etish.

4. Kafedra vazifalari asosida chizma, sxema, posterlarni tayyorlash.

5. Ma’ruza uchun mavzu bo‘yicha illustratsiya materiallarini tayyorlashda ishtirok etish.

II. Yuqori bosqich. Bunda ixtisoslashgan kafedralarning 3-, 4- bosqich talabalar bilan ishlashi nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda talabalar tadqiqot ishlariga bevosita jalb etiladi, ularga muayyan nazariy va eksperimental ishlanmalar beriladi. Odatda, bu tadqiqotlar ixtisoslik kafedralaridagi amaliy, laboratoriya, kurs yoki malakaviy ishlarni bajarish jarayonida hamda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashda amalga oshiriladi. Bu bosqichda talabalar metodologik masalalar bo‘yicha ilmiy xabar va referatlar tayyorlaydilar. Mazkur referat va ilmiy xabarlar kafedra majlislarida eshitiladi va muhokama qilinadi.

Talabalar lmiy tadqiqot ishining ikkala bosqichidagi majburiy unsuri – bu o‘qishdan tashqari paytda talaba ilmiy jamiyatining ilmiy to‘garaklaridagi faoliyatidir. Talabalarning eng yaxshi ishlari talabalar

ilmiy konferentsiyasi, tanlovlarga tavsiya etilishi lozim. Talabalar lmiy tadqiqot ishlari barcha mutaxassislik o‘quv rejalariga o‘qituvchilarining ishchi rejalari hamda talabalarning mashg‘ulot jadvaliga auditoriya mashg‘ulotlarining umumiy soati hajmi doirasida bajaritiriladi.

Talabalar tomonidan bajariladigan imiy tadqiqot ishlarining turlari

Ilmiy ishlar o‘rganiladigan obyektidan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot, ilmiy-ommabop va ilmiy-uslubiy turlarga bo‘linadi. Ular hajmi jihatidan kichik (masalan, annotatsiya, maqola) yoki katta (masalan, dissertatsiya, monografiya) bo‘lishi, tuzilmaviy tarkibi ham turlicha bo‘lishi mumkin. Biroq ularning barchasiga xos umumiy xususiyat – bu ularning ilmiy uslubda yozilishi, ularda ilmiy-tadqiqiy faoliyat natijasi bayon etilishidir.

Talabalar lmiy tadqiqot ishlarini bajarilishning asosiy shakli ilmiy rahbar tomonidan shakllantirilgan vazifa ustidagi individual ishlardir. Talabalar lmiy tadqiqot ishi masalasi istiqbolli xarakterga ega bo‘lishi va mazkur vazifada qo‘yilgan masalani yechish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlarda o‘z aksini topishi lozim. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda talabalarni ma’lum ilmiy guruhlarga biriktirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu holatda talabani amaliyot o‘tash va ilmiy ishini bajarish, keyingi kurslarda xuddi shu mavzu bo‘yicha tadqiqotni davom ettirishga erishiladi hamda ta’limning yakunlovchi bosqichlarida yuqori sifat ta’milanadi. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalari hisobot shaklida rasmiylashtiriladi hamda kafedraning yetakchi o‘qituvchilaridan tashkil topgan komissiya oldida himoya qilinadi. Hisobotda vazifaning berilishi, vazifaning nazariy yoki xulosa qismi, olingan natijalari va ularning muhokamasi bayon etilishi lozim.

Talabalarga haqiqiy, ilmiy va ishlab chiqarish muammolari ustida ishslash bo‘yicha individual vazifalar beriladi, mazkur muammolar kafedra, laboratoriya, ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari, talabalik konstruktor byurolari mavzulari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bir yoki bir necha turdosh

mutaxassislikdagi tarkibida ikki nafardan besh nafargacha talaba bo‘lgan guruhlar tomonidan kompleks ilmiy mavzularni ishlash tavsiya etiladi. Ijtimoiy va fundamental fanlarni o‘rganish jarayonida talabalar ilmiy referatlarni tayyorlaydilar, ular bilan seminar mashg’ulotlarida ma’ruza qiladilar. Eng yaxshi referatlar nashr etilishga va tanlovlarga tavsiya etiladi. Mutaxassislik kafedralarida muntazam tarzda maxsus talabalar seminarlari o‘tkaziladi, bu seminarlarda talabalarda ilmiy xabar, referat, ma’ruza qilish hamda ilmiy bahslarda faol ishtirok etish, o‘z tadqiqotlari natijalari haqida ma’ruza qilish va himoyalash, ilmiy ishlanmalarni bajarish nazoratini olib borish ko‘nikmalari paydo bo‘ladi.

Referat – (lot. *reffere* – ma’lum qilmoq) dastlabki manba mazmunining qisqa bayoni. Referat “matn (maqola, hujjat, kitob)da qanday yangilik bor?” degan savolga javob berishi kerak.

Referat quyidagi maqsadlarda tayyorlanadi:

- 1) berilgan muammo bo‘yicha bildirilgan turli fikrlarni taqqoslash;
- 2) dastlabki manbada berilgan axborotni tahlil qilish va unga obyektiv baho berish;
- 3) biror-bir asosiy fikrni tasdiqlash yoki inkor qilish.

Referatning tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

- titul varagi‘i,
- mundarija (reja),
- kirish,
- asosiy qism (bir necha bo‘limdan iborat),
- xulosa,
- foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Annotatsiya (sharh) – ilmiy maqola yoki ilmiy asar matnining maksimal darajadagi qisqartirilgan (5-6 ta gapdan iborat) bayonidir. Odatda, bu umumlashtirish, kontseptual emas, sanab o‘tish xarakteriga ega. Barcha axborot janrlari ichida annotatsiya eng obyektividir. Annotatsiyada, odatda, ish qanday mavzuga bag‘ishlanganligi,

tadqiqotning qanday uslublaridan foydalanganligi, buning uchun qanday materiallar jalganligi va tadqiqot kimga mo’ljallanganligi, ya’ni uning adresati kim ekanligi ko‘rsatiladi. Ayrim hollarda annotatsiya bir necha tilda bayon etilishi ham mumkin.

Ilmiy taqriz. Taqriz (*arab. “ijobiy baho”*) – yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili; adabiy tanqid janri. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o‘rni haqida ma’lumot bo‘ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo’ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko‘maklashadi.

Taqriz yozishda quyidagi tartibda ishlash tavsiya qilinadi:

- taqriz yoziladigan matnni (kitob, maqola, ilmiy ish va h.k.) o‘qib chiqish;
 - matnni o‘qishdan olgan taassurotlarni yozib borish;
 - taqriz qanday savolga javob bo‘lishi kerakligini aniqlab olish;
 - taqriz hajmini aniqlab olish;
 - taqrizning kirish qismiga asar (ish) nomi, muallifning ism-sharifini yozish;
 - asar (ish) haqida umumiyligi ma’lumotlar keltirish;
 - asar (ish)ning asosiy qismlari bo‘yicha xulosalarni ifodalash;
 - asar (ish) bo‘yicha umumiyligi xulosani shakllantirish;
 - taqriz muallifi haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatish.
- Ilmiy ishga beriladigan taqrizda quyidagi jihatlar yoritiladi:
1. Ilmiy ish mavzusining dolzarbliji.
 2. Tadqiqotning yangiligi va ilmiy ish ishining ilmiy-amaliy natijalarini asoslab berishi.
 3. Ilmiy ishning amaliyot uchun ahamiyati.
 4. Ilmiy ish mazmuni va uning tugallaganligi darajasi.
 5. Olib borilgan tadqiqotning ilmiy va amaliy qiymati.
 6. Ilmiy ishning magistrlik ilmiy ishlari talablariga mosligi.

Taqriz hajmi odatda 3-5 betdan iborat bo‘lib, taqrizchining shaxsiy imzosi qo‘yiladi, berilgan sana va ro‘yxatga olinganlik raqami ko‘rsatiladi. Taqrizchi imzosi u ishlaydigan tashkilot tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi shart.

Ilmiy ma’ruza. Ilmiy ma’ruza tadqiqot mavzusi, uning asosiy maqsadi va tadqiqotda bajarilgan vazifalarni aks ettiradi. Unda ko‘rsatib o‘tilgan dolzarb muammoning yechimiga yangi yondashuv yoki ma’lum masalani ko‘rib chiqishning noodatiy jihatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ma’ruza o‘tkazilgan tadqiqotning mohiyati, nazariy va amaliy ahamiyatini oolib berishi kerak. Ilmiy ma’ruza asosan ilmiy amaliy konferensiyalar, anjumanlar hamda davra suhbatlarida ilmiy tadqiqotchi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy ma’ruza muayyan bir muammo yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar tahlili bo‘lib, bunda muammoni hal qilish chora-tadbirlari ko‘rsatiladi. Ushbu muammolar xususida boshqa qatnashchilar ham o‘z nuqtayi nazarini bildirishi, taklif va mulohazalar bilan qatnashishi mumkin.

Ilmiy ma’ruzaning mazmuni, odatda, bir-biriga mantiqan bog‘langan uch qismdan iborat bo‘ladi.

Birinchi qismda ilmiy muammoning tavsifi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot jarayonida qo‘llangan metodlar haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinci qism hajm jihatidan eng katta bo‘lib, o‘tkazilgan tadqiqot, uning bosqichlari, ayniqsa yakuniy natijalarini batafsil yoritib beradi.

Yakuniy qismda ishning ilmiy yangiligi nimadan iborat ekanligi, boshqacha aytganda, ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy qiymati hamda tadqiqotchining fanga qo‘shtan shaxsiy hissasi ko‘rsatib berilishi kerak.

Ilmiy ma’ruzaning mazmunini ko‘rgazmali tarzda oolib berish uchun qo‘sishimcha materiallar (sxemalar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va b.) dan foydalanish talab etiladi.

Ilmiy ma’ruzaning hajmi uni taqdim qilishga ajratilgan vaqt, ma’ruzachining individual nutqiy xususiyatlari, ma’ruzani yetkazib berish usuliga bog‘liq.

Ilmiy ma’ruzalar o‘quv jarayonida, seminar, konferensiyalarda, ilmiy kengashlarda qilinadi. Ilmiy ma’ruzaning mavzusi tashkillashtirilgan forumning yo‘nalishiga mos bo‘lishi shart. Ilmiy ma’ruza jarayonida texnik vosatalardan hamda ko‘rgazmali materiallardan samarali foydalanish mumkin.

Taqdimot (prezentatsiya) – tanishtiruv degan ma’noni anglatadi. Ilmiy ma’ruzani reglamentga qat’iy rioya qilgan holda taqdimot qilish tartibi quyidagicha:

1. Kirish qismida ko‘rilayotgan muammoning dolzarbligini asoslash.
2. Asosiy qismda o‘rganilganlik darajasi, muammoning yechimlari, iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy ahamiyatiga to‘xtalib o‘tiladi.
3. Xulosa qismida erishilgan natijalar va xulosalar beriladi. Ma’ruza tinglovchilarning savollariga javob berish bilan yakunlanadi.

Kurs ishi – har xil nuqtayi nazarlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadigan, bir yoki bir qancha manbalarni o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarning ilmiy asoslangan yozma ko‘rinishdagi taqdimotdir. Kurs ishi ustida ishslash tartibi quyidagicha:

- kurs ishi mavzusini tanlash;
- tadqiqot rejasini tuzish;
- mavzu bo‘yicha asosiy manbalarni o‘rganish;
- zaruriy materiallarni konspekt qilish;
- yig‘ilgan materiallarni tartibga solish va yozish;
- adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirish;
- kurs ishini rasmiylashtirish.

Kurs ishi loyihasi professor-o‘qituvchilar rahbarligida talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ish bo‘lib, uning natijasi kafedra tomonidan tayinlangan va fakultetda tasdiqlangan a’zolardan iborat

komissiyada, kurs ishi rahbarining ijobiy taqrizini olgandan so‘ng avvaldan belgilangan reja asosida himoya qilinadi. Himoyaning o‘tkazilish tartibida komissiyaga taqdim etilgan ish komissiya raisi tomonidan e’lon qilinadi, e’tirozlar bo‘lmasa, muallif 5-10 daqiqa davomida ishning maqsadi, mohiyati, olingan natija va xulosalar haqida gapiradi. So‘ng savol-javoblar bo‘lib, komissiya a’zolari va qatnashuvchilar e’tirozi bo‘lmasa, himoyaga o‘tiladi. Himoya vaqtida muallif kurs ishlari materiallaridan, grafik tasvirlar va qo‘srimcha ma’lumotlardan foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi oliy ta’lim muassasasi bakalavriatida talabalarni o‘qitishning yakuniy bosqichida tayyorlanadigan ishdir. Bitiruv malakaviy ishi quyidagi maqsadlarda yoziladi:

- ta’lim bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish; olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo’llash;
- ijodiy ishlash, hal etilayotgan masalaning (muammoning) qo‘yilish jarayonidan boshlab, uni to‘la nihoyasiga yetkazish bo‘yicha qaror qabul qilishda bo‘lgan mas’uliyatni his etishga o‘rgatish;
- zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarning mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta’minlash.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi muammoning zamonaviy holatini va bojxona ishining istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak. Talaba ish muallifi sifatida tanlangan qarorning to‘g‘riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, bitiruv malakaviy ishida plagiatsiz holatining yo‘qligiga javob beradi.

Magistrlik dissertatsiyasi – oliy ta’lim muassasalarida magistrlarni tayyorlash bo‘yicha asosiy kasbiy ta’lim dasturiga kiritilgan, o‘qitishning yakunlovchi bosqichida magistrant tomonidan ilmiy rahbar boshchiligidagi mustaqil bajariladigan ilmiy yo‘nalishdagi yakuniy malaka ishi. Dissertatsiya magistratura tinglovchisi tomonidan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishni yakunlovchi hamda uning ta’lim

davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasiga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- ish muallif tomonidan himoyaga olib chiqilayotgan natijalar va ilmiy qoidalar majmuini o‘z ichiga olishi, ichki birlikka ega bo‘lishi lozim;

- dissertatsiya muallifning nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni qo‘llab mustaqil tarzda ilmiy izlanish olib borish, kasbiy muammolarni ko‘ra olish, tadqiqot vazifalarini va ularni hal etish uslublarini ifodalash qobiliyati haqida dalolat berishi kerak;

- ish nazariy tadqiqotlar natijalari, ilmiy muammolarni hal etishga nisbatan yangicha metodologik yondashuvlarni, shuningdek amaliy tusdagi vazifalar yechimini ifodalashi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasining doktorlik ishidan jiddiy farqi shundaki, u ko‘proq o‘quv-tadqiqotchilik ishi bo‘ladi. Ish himoya qilingach, tinglovchiga magistr akademik darajasi beriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi mustaqil ilmiy tadqiqot ishi bo‘lib hisoblanadi, chunki uning asosini ilmiy yoki ilmiy-amaliy masalalarning haqiqiy holatini modellashtirishni nazarda tutgan konkret maqsad va vazifalar aniqlaydi.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifasi olib borilgan tadqiqot mavzusi bo‘yicha olingan umumiylar axborotni puxtalashni, yig‘ilgan ilmiy va amaliy dalillarni magistr ixtiyorini bilan tartibga solishni nazarda tutadi. Magistr dissertatsiya ishining ilmiy va amaliy ahamiyatini isbotlab, tasdiqlaydi.

Magistrant dissertatsiya mavzusidan kelib chiqib, qo‘yilgan muammoni to‘g‘ri aniqlashi va tadqiqot olib borish rejasini tuzganligi dissertatsiyada hal qilinayotgan masalalarni to‘g‘ri yechishga imkoniyat beradi.

Dissertatsiyaning yozilishi, tayyorlanishi va ochiq himoya qilinishi magistrantning tanlagan aniq mavzusi bo‘yicha nechog‘lik mustaqil tadqiqot olib borish tajribasiga ega bo‘lganligidan guvohlik beradi.

Tadqiqot mavzusini tanlash omillari

Ilmiy tadqiqot ishini boshlash uchun avvalo ilmiy yo‘nalish aniqlanadi.

Ilmiy yo‘nalish deganda tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan, fanlar yoki ilmiy muammolar majmuyi tushuniladi.

Keyingi bosqich tanlangan yo‘nalishda mavjud bo‘lgan ilmiy muammolardan birini tanlashdan iborat.

Ilmiy muammo – ilmiy tadqiqot ishi mavzusini belgilaydigan murakkab nazariy va (yoki) amaliy vazifalar majmuidir. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, inson bilimining rivojlanish jarayonini ayrim muammolarni qo‘yishdan ularni yechishga o‘tish, so‘ngra yangi muammolarni qo‘yish sifatida tavsiflash mumkin. Biroq muammoning haqiqiy o‘rni qanday? Ilmiy muammolar nima uchun yuzaga keladi? Muammoning masaladan farqi nimada? Ilmiy muammolar doirasi qanday?

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida obyektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar majmuidir. Shuningdek, muammo hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – biron-bir hodisalar, obyektlar, jarayonlarni tushuntirishda qaramaqarshi yondashuvlar ko‘rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammoni to‘g‘ri qo‘yish uni muvaffaqiyatli yechishning muhim shartidir. To‘g‘ri qo‘yilmagan muammo yoki soxta muammo haqiqiy muammolarni yechishdan chalg‘itadi.

Muammoni qo‘yish – ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo‘yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab yetish, qolaversa, muammoning mazmunini aniq tushunish, ma’lum va noma’lum narsalarni ajratgan holda uni ta’riflash lozim.

Ilmiy muammolar predmetga yoki protseduraga doir bo‘ladi. Predmetga doir muammolarda o‘rganilayotgan obyektlar, protseduraga doir muammolarda esa – bilim olish va uni baholash usullari aks etadi.

O‘z navbatida, predmetga doir muammolarning empirik va konseptual, protseduraga doir muammolarning metodologik va baholash bilan bog‘liq turlari farqlanadi.

Empirik muammolarni yechish uchun materialni sof nazariy tahlil qilish bilan bir qatorda, predmetlar bilan ma’lum amallarni bajarish lozim, vaholanki, konseptual muammolar borliqqa bevosita murojaat etishni talab qilmaydi.

Predmetga doir muammolardan farqli o‘laroq, protseduraga doir muammolar doim konseptual xususiyatga ega bo‘ladi. Protseduraga doir muammolar o‘rtasidagi farq shunda ko‘rinadiki, metodologik muammolar nisbiy mushohada ko‘rinishida yechimga ega bo‘lishi mumkin emas, baholash bilan bog‘liq muammolar esa fanga mezon vazifasini bajaruvchi ko‘rsatkichlar va mo‘ljallarni olib kiradi.

Empirik muammo, avvalo, ma’lumotlarni izlashni nazarda tutadi; empirik muammolarga kuzatish, eksperiment, o‘lchash kabi ilmiy metodlar yordamida javob topish mumkin.

Konseptual muammolar ilgari olingan ko‘p sonli ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tartibga solish va talqin qilish, oqibatlarni keltirib chiqarish va gipotezalarni shakllantirish, mantiqiy izchillik talablariga muvofiq qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Metodologik muammolar, asosan, tadqiqotni rejorashtirish bilan bog‘liq: ularni yechish yo‘li bilan ayrim kelishuvlar tuziladi, muammoni yechish, kuzatish va eksperimentlar o‘tkazish tartibi aniqlanadi, mo‘ljallanayotgan konseptual protseduralar belgilanadi va h.k.

Baholash bilan bog‘liq muammolar empirik ma’lumotlar, gipotezalar, nazariyalar va shu kabilarni baholash, hatto muammoning o‘zi qay darajada to‘g‘ri tuzilgan va ta’riflanganligini baholashni nazarda tutadi.

Muammo to‘g‘ri qo‘yilgan deb hisoblanishi uchun:

- 1) o‘rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo‘lgan muayyan ilmiy bilim (ma’lumotlar, nazariya, metodika) mavjud bo‘lishi;
- 2) muammo shaklan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi;
- 3) muammo o‘rinli bo‘lishi, ya’ni uning asoslari soxta bo‘lmasligi;
- 4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo‘lishi;
- 5) yechimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko‘rsatilgan bo‘lishi;
- 6) maqbul yechim belgilari hamda yechimning maqbulligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabul qilinishi lozim.

Shunday qilib, pirovard natijada barcha ilmiy muammolar ham o‘z yechimini topavermaydi: ayrim muammolar ular qo‘yilganidan keyin uzoq vaqt mobaynida yechilmay qolaveradi (masalan, Frem teoremasi bir necha yuz yillar mobaynida yechilmay kelgan), ayrim muammolar o‘z yechimini topmaydi (masalan, aylana kvadraturasi, burchak triseksiyasi va kubning ikkilanmasi haqidagi masalalar), ba’zi bir muammolar esa olimlarning almashayotgan avlodlari diqqat markazidan butunlay yo‘qoladi.

Ilmiy muammo boshqa muammolardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- u olimni doim haqiqiy bilim olishga yo‘naltiradi;
- yangi bilim olishga qarab mo‘ljal oladi. Olim ongli ravishda yangilik sari intiladi.

Muammo aniqlangandan keyin ilmiy tadqiqot mavzusi shakllantiriladi.

Ilmiy mavzu – yechimini talab qiladigan murakkab vazifadir. Ilmiy tadqiqot ishi mavzusi mauyyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin.

Ilmiy ishning mavzusini shakllantirishda uning dolzarb ilmiy tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifani yechishga bag‘ishlanganligi, shuningdek mutaxassislikka mos ekanligi muhimdir.

Shuningdek, mavzular oliv ta’lim muassasasida shartnoma va loyiha (grant)lar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining bir qismi bo‘yicha ham shakllantirilishi mumkin.

Ilmiy ish mavzusining aniq tanlanishi ma’lum darajada uning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi. Mavzuni tanlashda tadqiqotchi ilmiy ishining loyihasi u ta’lim olayotgan o‘quv dasturining doirasiga mos kelishi lozimligiga e’tibor berish kerak. Shuningdek, bajariladigan ilmiy ishlar mavzulari buyurtmachi tashkilot (vazirlik, idora, muassasa) tomonidan tavsiya etilishi ham mumkin.

Ilmiy ish mavzularining turlari:

Nazariy mavzular asosan adabiyotlar manbalaridan foydalanib ishlab chiqiladi.

Amaliy mavzular xo‘jalik amaliyotini o‘rganish, umumlashtirish va tahlil etish asosida ishlab chiqiladi.

Aralash mavzular tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Ilmiy ishning maqsadiga qarab tadqiqotlar quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Umumlashtiruvchi – bojxona sohasida to‘plangan tajribani o‘rganish va ilg‘or amaliyotni umumlashtirish, o‘rganilayotgan hodisalarning rivojlanish an‘analarini aniqlash va turli iqtisodiy jarayonlarning ilmiy bashoratlarini ilgari surish.

O‘ziga xos xususiyatlari: tadqiqotning ko‘p tarqalgan va murakkab bo‘lmagan turi. Tadqiqotning turli obyektlaridan foydalanib, bir mavzu doirasida ko‘plab variantlar tuzish mumkin.

2. Ommalashtiruvchi – ayrim bojxona organlari (chevara bojxona postlari, tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlari) tajribasidan boshqa postlarda foydalanish imkoniyatlarini va maqsadga muvofiqligini ko‘rsatish.

O‘ziga xos xususiyatlari: sifatli bajarish sharti – amaliyotni yaxshi bilish.

3. Novatorlik – amaliyotga tegishli tavsiyalarni berish maqsadida yangi yoki nisbatan yangi muammolarning ilmiy jihatdan ishlab chiqilishi.

O‘ziga xos xususiyatlari: qo‘yilgan savollarga javoblar adabiyotlarda yo‘q, amaliyot esa zarur tajribani endi orttiryapti, bu tadqiqotchidan yuksak nazariy tayyorgarlik, amaliyotni yaxshi bilish, yangi g‘oyalarni ilgari surishda jasorat talab qiladi.

4. Chuqurlashtiruvchi – aniq kategoriylar va jarayonlar haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish.

O‘ziga xos xususiyatlari: kategoriylar va jarayonlarning adabiyotlarda yetarlicha to‘la yoritilmagan va amaliyotda lozim darajada rivojlantirilmagan ayrim jihatlarini ishlab chiqish. Ko‘rib chiqilayotgan muammo xarakteri ishning murakkablik darajasini belgilaydi.

5. Nazariy-metodologik – umumiylardan nazariy konsepsiylar, metodologik muammolarning ishlab chiqilishi.

O‘ziga xos xususiyatlari: tadqiqotchi rivojlangan nazariy tafakkurga ega bo‘lishi kerak.

6. Empirik tusdagi – muayyan korxonalar, firmalar, tashkilotlar tajribasining tadqiqi, tahlili.

O‘ziga xos xususiyatlari: tashkilotning ilg‘or tajribasi, amaliyoti markaziy o‘rinni egallaydi, unga bu tajribadan milliy iqtisodiyotda foydalanish bo‘yicha nazariy dalillar va mulohazalar qo‘srimcha qilinadi.

Ilmiy ish mavzusiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar:

1. **Dolzarblik.** Ilmiy ish mavzusi ayni paytda soha, tarmoq, idora faoliyati uchun dolzarb masalaga bag‘ishlangan va yaqin davr davomida dolzarbligini yo‘qotmaydigan bo‘lishi kerak.

2. **Yangilik.** Tadqiqot mavzusi va undagi ilmiy muammoning yechimlari yangi bo‘lishi yoki yangicha usulda talqin qilinishi talab etiladi.

3. **Iqtisodiy samaradorlik.** Mazkur tadqiqotda tavsiya etilgan texnologiya, usullar, yondashuvlar iqtisodiy jihatdan samara berishi

lozim. Ushbu jihat mavzuni tanlash jarayonida taxminan belgilanishi mumkin.

4. Nazariy va amaliy ahamiyatga egalik. Tadqiqot natijalari soha, tarmoq ichida yoki boshqa turdosh sohalarda ham qo'llanishi mumkin bo'lishi kerak. Bu jihatlar tadqiqot turiga (fundamental, amaliy, ishlanma) bog'liq bo'ladi.

5. Tatbiq qilish imkoniyati mavjudligi. Tadqiqotda taklif etilgan usullar, ishlanmalar yoki texnologiyalar amaliyatga tatbiq qilishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun tadqiqotchi tatbiq qilinayotgan yo'nalishda ish tajribasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchi mavzuni tanlashda ma'lum bir ilmiy ko'nikma, tanlayotgan mavzusi bo'yicha u yoki bu darajada tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Mavzu tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Tadqiqot mavzusi qandayligidan qat'iy nazar, bu ish mustaqil muammoni qamrab olgan bo'lishi kerak. Mavzu tanlashda shu muammo dolzarbliji, uning ilmiy, siyosiy va amaliy o'rni muhim ahamiyat kasb etishi kerak. Mavzu tanlayotgan talaba o'z ilmiy layoqati, xususan, ilmiy va statistik manbalardan foydalana olishi, xorijiy tillarni bilishi, tegishli yo'nalishda normativ hujjatlar va yangiliklardan xabardorligi, tahliliy ma'lumotlar bilan ishlay olishi, internet ma'lumotlardan unumli foydalana bilishi kerak. Chet tilini, hech bo'lmasa rus tilini bilmasdan turib, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini tadqiq qilish mumkin emas.

Tadqiqot mavzusini tanlashda shu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, hujjatlar borligi yoki yo'qligini, tanlanayotgan mavzu bo'yicha manbalar, davriy matbuot materiallari, arxiv manbalari qay darajada mavjudligi yoki kamligi, yo'qligini hisobga olish kerak bo'ladi. Albatta, mavzu ham chuqur o'rganilmagan, fanda ushbu mavzu qirralari kam tadqiq etilgan bo'lishi muhim ahamiyatga molikdir. O'rganilgan mavzuni yana o'rganishga harakat qilish bilan hamma vaqt ham ilmiy tadqiqotda olg'a siljib bo'lmaydi.

Mavzu tanlashdagi aniqlik, xususan, uning uzundan-uzun bo‘lmasligi, mavhum so‘zlar, atamalar, iboralarni o‘z ichiga olmasligi ham muhim ahamiyatga ega. Odatda, mavzu 10 ta so‘zdan ortiq bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Mavzuda tadqiqot muammosi – masalasidan tashqari hududiy va davriylik doiralari ham ko‘rsatilishi zarur. Har qanday tadqiqot mavzusi o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi kerak. Aslida tadqiqot orqali uzuq-yuluq ma’lumotlarni o‘rganishdan ko‘ra, bir muammoni chuqurroq, har tomonlama tadqiq etib, ko‘plab ilmiy yangiliklarni kiritish muhimroq hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. OTMlarda talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalg etishning qanday shakllari mavjud?
2. Iqtisodiy fanlar bo‘yicha tadqiqot olib borishning asosiy tamoyillarini aytib bering.
3. Ilmiy ish mavzulariga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Qaysi omillar tadqiqot muvaffaqiyatida yetakchi bo‘lishi mumkin?

3-mavzu

ILMIY TADQIQOT ISHINING TUZILISHI

Reja:

1. Ilmiy ish kompozitsiyasining elementlari.
2. Tadqiqotning kirish qismi, uning metodologik tarkibi.
3. Asosiy qism boblari, ularning mavzusi.
4. Xulosa va tavsiyalar qismi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Kirish qismi, asosiy qism, xulosa, titul varaq, annotatsiya, tadqiqot obyekti, tadqiqot predmeti, tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot metodlari, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining kompozitsiyasi elementlari

Ilmiy ish rejasini to‘g‘ri tuzish tadqiqotchiga ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari hamda oldiga qo‘ygan tadqiqot maqsadlariga erishish yo‘llarini, shuningdek ilmiy ishni tayyorlash bosqichlarini to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Tadqiqotning amaliyotdan o‘tkazilgan va muhokama qilingan tuzilishi (strukturasi) tasdiqlangan davlat standartlariga muvofiq ilmiy ishni tayyorlashning ishonchli vositasidir.

Kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘linadi:

- titul varaq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa;
- adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar (mavjud bo‘lsa).

Titul varag‘i ishning birinchi beti hisoblanadi va qat’iy qoidalarga binoan to‘ldiriladi. Titul varag‘idan keyin mundarija joylashtiriladi. Boblar va paragraflar nomi, shuningdek ularning izchilligi ishning matni bilan to‘liq mos kelishi shart. Titul varag‘idan keyin *mundarija* joylashtiriladi. Mundarija tadqiqot tarkibini ko‘rsatuvchi sarlavhalar ro‘yxati bo‘lib, ilmiy ishda bob va paragraflar nomlari qisqartirilmasdan to‘liq keltiriladi. Boblar va paragraflarning shu yerda

ko‘rsatilgan nomlari, shuningdek ularning izchilligi ish matni va ilmiy ishning mantiqiy sxemasiga mutlaqo mos bo‘lishi kerak.

Tadqiqotning kirish qismi, uning metodologik tarkibi

Tadqiqotning kirish qismida muallifning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladigan vazifalar aniq ifodalanadi, muammoni hal etish metodologiyasi ko‘rsatiladi. Kirish qismi, odatda, ilmiy ish umumiy hajmining 10-15% ni tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarining kirish qismi quyidagi tartibda tuziladi:

- mavzuning asoslanishi va uning dolzarbliji;
- tadqiqot obyekti va predmeti;
- tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;
- tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);
- tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi;
- tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;
- ish tuzilmasining tavsifi.

Kirish qismining matni ikki nuqtayi nazardan bayon qilinadi:

1. Ushbu mavzuga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ehtiyojlari yuzasidan murojaat qilishning dolzarbliji:

ayni shu vaqtida aynan shu mavzuga murojaat etishning sabablarini qisqacha yoritish, jamiyatning bugungi kundagi holatining mazkur mavzuni tadqiq qilishni g‘oyat zarur qilib qo‘ygan o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berish.

2. Ushbu mavzuga fanning ichki ehtiyojlari yuzasidan murojaat qilishning dolzarbliji:

nima uchun bu mavzuning ayni shu vaqtida bunchalik dolzarb bo‘lib qolganligi, uning shu tarzda ochib berilishiga ilgari nima xalaqit

qilganligini izohlash, unga murojaat qilishning fan rivojining dinamikasi, bu muammo bo‘yicha yangi axborotlarning to‘planib qolganligi, mavjud tadqiqotlarda uning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, muammoni yangicha talqinda, tadqiqotning yangi uslublari va uslubiyotlaridan foydalanib o‘rganish zarurligi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatish.

Tadqiqotning kirish qismida quyidagilar o‘z aksini topadi:

– *mavzuning dolzarbligida*: tanlangan mavzuning fandagi o‘rni, ushbu muammolarning nazariy-uslubiy asoslari, mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlar va manbalar ko‘lami xamda qisqa tahlili aniq misollar vositasida keltiriladi;

– *tadqiqotning maqsad va vazifalarida*: ilmiy izlanishdan maqsad va undan kelib chiqadigan vazifalar, tadqiqot mavzusiga ko‘ra qaysi hudud yoki hudud (mintaqa)lar o‘rganilishi va bu qaysi xronologik davrni o‘z ichiga qamrab olishi aniq, asosli tarzda ifodalanadi;

– *tadqiqotning adabiyotlar sharhida*: mavzuni yoritishda qaysi manbalardan foydalanilgani, ularning qisqacha tahlili, e’lon qilingan hujjatlar va materiallar, to‘plamlar va davriy matbuot materiallari, ilmiy monografiyalar, maqolalar bo‘yicha qisqa, asosli tahlil etiladi;

– *tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyatida*: mavzuni yaratish asosida ilmiy izlanuvchi qanday ilmiy yangiliklarni ro‘yobga chiqargani va uning fandagi o‘rni va ahamiyati aniq, dalillar asosida keltiriladi;

– tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida muammoning ayrim tomonlarini yoritmasligini qisqacha izohlab, masalaning tegishli jabhalarinigina yoritilishini eslatib o‘tadi;

– tadqiqotchining mavzu bo‘yicha qaysi ilmiy anjumanlarda qatnashgani, amaliy seminarlardan o‘tgani, tadqiqot natijalari bo‘yicha e’lon qilgan ilmiy ishlari, tadqiqotning tarkibiy tuzilishi.

Mavzuning ta’rifi fanda hozirda ma’lum bo‘lgan va hali tadqiq qilinmagan hollarning birgalikda amal qilishini, ya’ni ilmiy bilishning rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Shu sababga ko‘ra mavzuning

dolzarbligini asoslash tadqiqotni tayyorlashdagi juda mas’uliyatli bosqich hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbliyi ilmiy tadqiqotga nisbatan asosiy talabdir. Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi – bu uning ijtimoiy nazariya va amaliyot uchun kerak ekanligi bo‘lib, fanda ko‘pincha oldingi nazariy tasavvurlar doirasiga yaqqol joylashmaydigan yangi faktlarning kashf qilinishi natijasida vujudga keladigan vaziyatning mavjudligi bilan belgilanadi. Ushbu qismda mavzu va uning ahamiyati asoslanishi, nima uchun ayni shu mavzuning tanlangani, unga qiziqish nima bilan bog‘liqligi sabablari izohini o‘z ichiga oladi. So‘ngra tanlangan mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi beriladi.

Ilmiy tadqiqotning kompozitsion tuzilishi nuqtayi nazaridan olganda, mavzu dolzarbligining asoslanishi ushbu mavzuga nima uchun ayni hozir murojaat qilishning maqsadga muvofiqligi, ilmiy va amaliy zarurat nimadan iboratligi, tadqiqot predmeti haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlarning qanday holatda ekanligi izohlab berilishi kerak.

Qo‘yilgan muammoishning kirish qismida *tadqiqot maqsadining ifodasida aks ettirilishi kerak*. O‘z navbatida, maqsad tadqiqot taktikasini – aniq qadamlarning izchillagini – muammoni hal etishga asos bo‘ladigan *vazifalarni* belgilaydi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Bu yerda ushbu muammoning turli jihatlari bilan xorijda va mamlakatimizda shug‘ullangan olimlarni keltirib o‘tish, yetarli darajada yoritilmagan masalalarni qayd qilish kerak. Muallif mavzuni yaxshi o‘zlashtirganligi, ilmiy matnlar va bibliografik material bilan ishslash uslubini egallaganligini namoyish etishi, bundan oldingi tadqiqotchilar va zamondoshlarning ushbu muammo yechimiga qo‘sghan hissasini to‘g‘ri baholay olishini tasdiqlashi lozim.

Mabodo bu muammo yetarli darajada yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa, unda mazkur muammoga mavjud nuqtayi nazarlarning tasnifini taklif qilish yanada yaxshi bo‘ladi. Agar muammo yaxshi o‘rganilmagan, olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etmagan bulsa, unda buni qayd qilib

o‘tish kerak bo‘ladi, chunki bunda ijod qilish imkoniyati yanada kengayadi.

Pirovard natijada adabiyotlar tahlili ayni shu mavzuning hali ochib berilmaganligi (yoki fakat qisman ochib berilganligi yoki boshqa jihatdan ochib berilganligi), shuning uchun bundan keyin ishlab chiqilishi zarurligi to‘g‘risidagi xulosaga olib kelishi kerak.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti va predmeti bir-biri bilan umumiy va xususiy tarzda o‘zaro nisbatda bo‘ladi. Obyektda uning tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladigan qismi ajratib ko‘rsatiladi. Tadqiqotchining asosiy e’tibori ayni shu narsaga qaratiladi, aynan tadqiqot predmeti ilmiy ishning titul varag‘ida sarlavha sifatida ifodalangan mavzusini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari.

Tadqiqot maqsadi – tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natija. Bu ilmiy tadqiqotning strategiyasi va taktikasidir. Maqsad tadqiqotning xarakteri, borishi va vazifalarini belgilashga sabab bo‘ladi. Maqsadni ifodalashda “*aniqlash*”, “*belgilash*”, “*asoslash*”, “*aniqlashtirish*”, “*ishlab chiqish*” kabi so‘z birikmalarini va iboralar qo‘llanadi.

Ilmiy tadqiqotning maqsadini ifodalashda ishning asosiy qismi mazmuni hamda maqsadini ochib berish ko‘zda tutiladi, ya’ni “tadqiqot o‘tkazishdan maqsad nimaga erishishdan iborat?” savoliga javob beriladi. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida bir qator aniq vazifalar belgilanadi. Muayyan tartib bilan sanab o‘tilgan vazifalar tadqiqotni olib borish rejasiga hamda ilmiy ishning ichki mantiqiy tuzilishiga mos bo‘ladi.

Tadqiqot vazifalari – maqsadga erishish uchun tanlangan yo‘llar va vositalardir. Vazifalarning qo‘yilishi tadqiqot maqsadining bir necha qismga bo‘linishiga asoslanadi. Vazifalarning sanab o‘tilishi unchalik murakkab bo‘lmagan vazifalardan eng murakkab, ko‘proq mehnat talab qiladigan vazifalarga tomon yurish tamoyili bo‘yicha ko‘riladi, ularning soni esa tadqiqotning mazmunidan kelib chiqadi.

Ilmiy tadqiqotning tipik vazifalari:

- tadqiq qilinayotgan hodisani *bayon qilish*,
- sabablar va shartlarni *aniqlash*,
- sabablarni *izohlash*,
- tadqiq qilinayotgan hodisalarning *tasniflash*, qonuniyatni *aniqlash* va *asoslash*, *mazmunni tushunish* va *izohlash*, aniqlangan, bayon qilingan va izohlangan hodisaga *nom berish* (ya’ni yangi atamani ilmiy muomalaga kiritish).

Vazifalarni juda sinchiklab ifodalash zarur, chunki keyinchalik ularning yechimlari bayoni boblar mazmunini tashkil etadi. Boblarning sarlavhalari esa ayni shu vazifalar ifodalaridan hosil bo‘ladi.

Muammoni hal etish jarayonidagi vazifalar:

- nazariy tushunchalarning ushbu tadqiqotda qo‘llanadigan jihatlarini aniqlash;
- amaliy muammolarning nazariy bilim darajasidagi tahlilini o‘tkazish va bu bilan uning natijalari, xulosalari va tavsiyalari ilmiy asoslanishini ta’minalash;
- o‘rganilayotgan hodisalarning miqdoriy, statistik ko‘rsatkichlar yordamidagi o‘lchanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minalash.

Ilmiy ish mazmunini tashkil etuvchi muammo yechimining varianti tadqiqot avvalida tadqiqotning asosiy farazi sifatida shakllantiriladi. Bu tadqiqot davomida tekshirilishi va dalillar bilan asoslanishi kerak bo‘ladigan sinovli yechimdir.

Ilmiy tadqiqotda o‘tkazilgan ish natijasida olingan yangilikning darajasi va tusini aniq ifodalash talab etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Bu yerda tadqiqot jarayonida asosiy xulosa sifatida olingan, to‘g‘ri qo‘yilgan masaladan va bu masalaga javob beradigan tadqiq etilgan zaruriy va yetarli holatlardan mantiqan kelib chiqadigan fikrlar qisqacha bayon qilinadi. Bu aniqlangan yangi fakt, qo‘yilgan

vazifaning asosli yechimi, yangi ma'lumotlarning ilmiy muomalaga olib kirilishi, ma'lum faktning yangicha sharoitlar uchun tasdiqlanishi bo'lishi mumkin.

Yangilikni olingan natijani ma'lum bo'lgan natijalar bilan solishtirish orqali ko'rgazmali tarzda ko'rsatish ham mumkin. Quyida ilmiy natijalar yangiligining mezonlari keltirilgan.

- 1. Masalani qo'yishning yangiligi** – bu yangilikning eng quyi darajasi bo'lib, buning uchun hozirda mavjud bo'lgan, muayyan nuqtayi nazar ostida o'tkazilgan tadqiqotlar haqidagi axborotlarga hamda shu predmetga boshqacha nuqtayi nazardan qarashga imkon beradigan muayyan tasavvurga ega bo'lishning o'zi kifoya.
- 2. Uslubiyatning yangiligi** – qo'llanadigan yangicha yondashuvlar, uslublar, tadqiqot tamoyillari demakdir. Bu yangilikning birmuncha yuqori darajasi bo'lib, u ancha yangi natijalarga erishishga yo'l ochadi, lekin metodologiya hali yangilik uchun kafolat bera olmaydi. Ayni bir paytda ma'lum uslubiyatlarning yangi sharoitda qo'llanishi ham unumli natijalar berishi mumkin.
- 3. Olingan ijobiy yoki salbiy natijaning yangiligi** (mazmunan yangiligi). Eng asosiysi – tadqiqot jarayonida asosiy xulosa sifatida olingan, to'g'ri qo'yilgan masaladan va tadqiq etilgan zaruriy hamda yetarli holatlardan mantiqan kelib chiqadigan fikrni qisqacha bayon qilish. Bu aniqlangan yangi fakt, qo'yilgan masalaning asosli yechimi, ilmiy muomalaga yangi ma'lumotlarning olib kirilishi, ma'lum faktning yangi sharoit uchun tasdiqlanishi ham bo'lishi mumkin. Yangilikni olingan natijani ma'lum faktlar bilan solishtirish orqali ko'rgazmali tarzda ko'rsatish mumkin.
- 4. Mazmunni yangicha shaklda ifodalash** (formal yangilik) – yangi atamalarning joriy etilishi. Biroq qanchalik ko'proq yangi "burama" atamalar joriy qilingan bo'lsa, yangilik ham shunchalik yaqqol ko'rindi, deb o'yamaslik kerak. Atamalarning yangiligi ishda ana

shu hech narsani anglatmaydigan atamalardan boshqa hech qanday yangilik yo‘qligini yashira olmaydi. Yangi atama yetarlicha isbotlangan va ishonchli asoslangan yangi bilimning to‘plangan hajmini ifodalash uchun joriy etilishi mumkin va shunda u yangilikni ifodalashning muhim vositasi bo‘ladi.

5. Olingan natijaning **yangicha talqin etilishi** (izohlash va talqin qilish yangiligi). Bu yerda yaxshi ma’lum bo‘lgan qonunlar va g‘oyalarning yangicha ko‘rilihini namoyon qilish uchun real imkoniyat mavjuddir.

6. Olingan natijani **amalda qo‘llashning yangiligi** (amaliy yangiligi). Odatda bu nazariy ilmiy tadqiqot doirasidan chetda bo‘ladi va amaliy ilmiy tadqiqot ishlari toifasiga kiradi, lekin tadqiqot muallifi olingan natjalarni qo‘llash uchun yangi sohalarni taklif etishi kerak.

Tadqiqot farazi.

Faraz (gipoteza) (qadimgi grek tilidan – asos, taxmin) — oldindan o‘rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo‘ladigan nazariy taxmin.

Tadqiqot farazi – bu bevosita kuzatilayotgan yoki o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoxud uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqlar xususiyati haqidagi ilmiy asoslangan taxmindir. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi. Farazning ifodalanishi tadqiqotning nazariy tayyorlanishi yakunlanganligidan dalolat beradi.

Farazning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- faraz uni yaratish uchun asos bo‘lgan faktlarga muvofiq bo‘ladi;
- farazni tekshirish mumkin;
- faraz nisbatan sodda bo‘ladi;
- farazning mazmunida muammoni hal etish usullari va natijalari haqidagi taxmin mavjud bo‘ladi;

- faraz mantiqan tadqiqotning maqsadiga zid kelmasligi kerak;
- faraz natijaga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Farazni ifodalashda «agar..., unda...»; «chunki ...»; «bo ‘lgani holda...» kabi iboralar va so‘z birikmalari ishlataladi. Ular tadqiqotchining e’tiborini hodisaning mohiyatini ochish, sabab-oqibat aloqalarni belgilashga qaratadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati ko‘p jihatdan bajariladigan tadqiqot xarakteri bilan belgilanadi: nazariy va metodologik tusdagi ilmiy ishlar uslubiy yoki amaliy tusdagi ilmiy ishlarga nisbatan ko‘proq bevosita amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ilmiy ishda tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin:

1. *Nazariy va metodologik tusga ega tadqiqotlarda* – tadqiqot assosiy natijalarining ilmiy maqolalarda e’lon qilinishida; tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq qilinganligi haqidagi mualliflik guvohnomalari, rasmiy hujjatlarning mavjudligida; tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy konferensiyalarda e’lon qilinganligida; ilmiy ishlanmalarning o‘quv jarayonida qo‘llanishida; bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishga doir normativ hujjatlarning ishlab chiqilishida ishtirok etishda; tadqiqot natijalarining qonun hujjatlari tayyorlanishida qo‘llanishida.

2. *Uslubiy yoki amaliy tusga ega tadqiqotlarda* – bu bojxona ishi va bojxona huquqi masalalarini tartibga solish hamda ularni takomillashtirishga doir takliflar va tavsiyalar; vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, birlashmalar yoki boshqa manfaatdor tashkilotlarning foydalanishlari uchun tasdiqlangan yoki tavsiya etilgan normativ hamda uslubiy hujjatlar.

Asosiy qism boblari, ularning mavzusi

Ilmiy tadqiqot tuzilishida kirish qismini yozish mohiyat jihatidan hamma ilmiy izlanuvchilar uchun deyarli bir xil talab asosida amalga oshiriladigan bo‘lsa, tadqiqotning asosiy qismi bo‘lgan, bob va

paragraflar, qismlarni yoritish mavzu xususiyati, mavjud manbalar, dalillar va materiallar, mavzuni yoritish bo‘yicha qo‘yilgan maqsad va vazifalar ishning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqadi. Tadqiqotni bob va paragraflarga ajratish jarayoni ilmiy ish qaysi muammolarni yoritishga qaratilgani bilan ham belgilanadi. Shuningdek, bob va paragraflar tadqiqot uchun yig‘ilgan materiallar, maqsad va vazifalardan ham kelib chiqadi.

Shunga e’tibor qaratish lozimki, mavzu nomlanishi bob sarlavhasida, o‘z navbatida bob nomlanishi esa paragraf sarlavhasida takrorlanmasligi kerak. Boblar va paragraflardagi sarlavhalar aniq, qisqa, lo‘nda va ikki xil ma’no kasb etmaydigan holda ifodalangan bo‘lishi hamda matn bayonidagi mazmunni qisqacha o‘zida aks ettirishi lozim. Boblardagi sarlavhalar tegishli paragraflardagi sarlavhalarda o‘z aksini topib, tadqiqot mazmunini yoritishga yordam berishi kerak. Umuman olganda, tadqiqot tuzilishi va mazmunida bob va paragraflarni to‘g‘ri tuzish, sarlavhalarni chuqur o‘ylagan holda ifodalash, har bir bobga xulosalar bera olish muhim ahamiyatga molik hisoblanadi.

Ilmiy ishning asosiy qismi har bir alohida olingan mavzu yoki obyekt xususiyatidan kelib chiqadi. Asosiy qism qo‘yilgan vazifalarga muvofiq bo‘lishi kerak. Hatto asosiy qismni qo‘yilgan vazifalar soniga teng paragraflar (kichik bo‘limlar) soniga bo‘lish ham mumkin.

Asosiy qism mazmuni quyidagi bo‘limlarni aks ettiradi:

- a) muammoning nazariy fikrdan o‘tkazilishi;
- b) asosiy qismning birinchi bo‘limida bayon qilingan nazariyani dalillar asosida tasdiqlaydigan empirik, faktik materialning bayon qilinishi; bojxona amaliyotini tahlil etish va muammolarni ilgari surish;
- c) muallifning tadqiqot muammoсини hal etish bo‘yicha tavsiyalari.

Misol uchun, tadqiqot ishi 3 bobdan iborat bo‘lsa, boblarda quyidagilar aks ettiriladi.

Birinchi bobda mavzuning umumiy nazariy-amaliy masalalari, ilmiy ish tayyorlanayotgan muassasaning qisqa talablari berilishi lozim.

Shu bobda tarixiy obzor aks ettiriladi, ya’ni shu mavzuga tadqiqotchidan oldin qanday yondashilganligi ko‘rsatib beriladi. Mavzuning umumiy nazariy muammolari, shunga o‘xhash vazifalarni hal etish nazariyasi va amaliyoti holatining tahlili, ma’qul bo‘ladigan yechimlar uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish natijalari ushbu bobda aks ettiriladi. Bu bobda tadqiqotchi deduksiyadan foydalanib, umumiyydan xususiyga qarab ilmiy tadqiqot o‘tkazadi, bunda xususiy hollarning butun bir turkumidan umumlashtirilgan xulosa chiqariladi.

Ikkinci bobda ko‘rilayotgan masalaning hozirgi holati tahlil qilinadi, muallifning to‘plangan materiallari asosida tadqiqot obyektida mavjud kamchiliklarni yo‘qotishga qaratilgan takliflari va tavsiyalari asoslanishi kerak. Tajriba orttirish davrida yig‘ilgan hamda tadqiqot jarayonida tahlil qilingan materiallar asosida xulosa chiqariladi. Shunday qilib, ilmiy ish mazmunining asosiy g‘oyasi ifodalanadi.

Ushbu bobda ilmiy ish mavzusiga tegishli tashkilot (bojxona organi), obyekt, faoliyatning qisqacha tavsifnomasi beriladi, undagi muammo, bunga qaysi omillar qanday ta’sir qilganligini izohlaydi, tahlil qiladi.

Tegishli paragraflarda quyidagilar mantiqiy izchillikda joylashtiriladi: tadqiqot obyektining funksiyalari, vazifalari va yo‘nalishi, tashkiliy tuzilmasi, boshqarish tizimi, uning tashqi va ichki omillariga xos xususiyatlari, tadqiqot obyektining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. O‘tkazilgan tahlil asosida tadqiqot obyektidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanadi.

Shu tarzda o‘rganiladigan hodisalar va faktlar batafsil ko‘rib chiqiladi hamda tahlil qilinadi, tadqiqotning uslubiyati va texnikasi bayon qilinadi. Bu yerda faktlarni ishslash va bir tizimga solishga alohida e’tibor qaratiladi. Faktlar qo‘yilgan vazifani hal etish uchun yig‘iladi. Faktlarni tahlil etish jarayoni – bu xususiy xulosalarning uzluksiz tizimi bo‘lib, ular birlashib, muayyan manzarani hosil qiladi. Bobning har bir parografi bayon qilingan material yuzasidan umumlashmalar bilan yakunlanishi lozim.

Uchinchi bobda muallif tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallar asosida tadqiqot obyekti tashkiliy tuzilmasining eng maqsadga muvofiq ko‘rinishi dalillar yordamida asoslab beriladi, shunga mos jadvallar tavsiya etiladi, takomillashtirish yo‘llari, taklif etilayotgan qarorlarning iqtisodiy samaradorligi iloji boricha aniqlanadi.

O‘rganilgan tizim va o‘tkazilgan tahlil asosida qo‘yilgan tadqiqot maqsadiga muvofiq, tegishli sxema orqali ifodalash bilan tadqiqot obyektini rivojlantirishning eng oqilona, samarali yo‘llarini taklif etish va iqtisodiy jihatdan asoslab berish, iqtisodiy samarani belgilash kerak bo‘ladi.

Tadqiqot tuzilishidagi boblar va paragraflar hajmi o‘rtasidagi mutanosiblikka rioya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot rejasidagi boblarda paragraflar soni ham bir-biridan katta farq qilmasligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, birinchi bobda ikkita paragraf, ikkinchi bobda oltita paragraf, uchinchi bobda uchta paragraf bo‘lishi ilmiy ish rejasi tuzilishidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi. Shuningdek, birinchi bob 21 betni, ikkinchi bob 58 betni, uchinchi bob esa 32 betni tashkil qilishi ham yuqorida qayd etilgan nomutanosiblikka yaqqol misol bo‘la oladi.

Tadqiqot tuzilishidagi tartib-qoidalarga rioya qilish ilmiy ishning mazmuniga ham ta’sir qiladi. Tadqiqot mazmunida boblar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ham ilmiy ish mavzusiga borib taqaladi. Ammo ilmiy ishdagi har bir bob qo‘yilgan muammoning alohida masalasini, boblar tarkibidagi paragraflar esa masalaning biror-bir tomonini yoritishga qaratilgan bo‘ladi. Shuni esda tutish kerakki, har bir bob mantiqan o‘zidan avvalgi va keyingi boblar, paragraflar bilan bog‘langan bo‘lishi ham va alohida, ya’ni mustaqil tarzda ilmiy-amaliy holatlarni yoritishi ham mumkin.

Tadqiqotdagi har bir bob o‘zining umumiyl kirish qismi va qo‘yilgan masalani mustaqil yoritilishiga erishgan bo‘lishi va bob oxirida bayon etilgan materiallar asosida xulosasiga ega bo‘lishi kerak. Har bir bob oxirida keltiriladigan xulosa tadqiqot oxirida keltiriladigan

umumiylar qulosa qismida ikkinchi darajali dalillarga e'tibor berishdan ozod qiladi.

Xulosa va tavsiyalar qismi

Ilmiy ish umumiylar hajmining 10-15% ni xulosa va tavsiyalar tashkil qiladi. Ishning ayrim boblari ham xulosa va takliflar bilan tugallanishi mumkin, ammo ulardan eng muhimlari ishning yakunida aks ettirilishi kerak. Tadqiqot so'ngida tadqiqotchi o'z xulosalariga asoslangan loyihaviy taklif beradi.

Xulosalar qo'yilgan vazifalarga bevosita mos kelishi kerak. Agar bunday muvofiqlik bo'lmasa, unda ana shunday muvofiqlikka erishish uchun kirishga yana qaytish va vazifalarni qaytadan ifodalash lozim.

Tadqiqotlarda xulosa qismini yozishdagi talablarga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Keltiriladigan xulosa, kirish qismidagidek, ilmiy ishda yordamchi qism rolini o'ynamay, balki muhim qism hisoblanadi. Tadqiqotning xulosa qismida olib borilgan ilmiy ishning hammasiga yakun yasaladi, ya'ni boblarda ifodalangan tadqiqot natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha yakuniy xulosa beriladi. Xulosada tadqiqotning boblarida keltirilmagan dalillar, yangi nazariy g'oyalalar ilgari surilmaydi. Ammo xulosa bob va paragraflarning mazmunan qisqacha qaytarilishi ham bo'lib qolmasligi kerak. U o'z mazmuniga ko'ra bob va paragraflardagi dalil va g'oyalarni umumlashtirib, sifat jihatidan hamma ilmiy natijalarni yuqori darajadagi mushohadalar asosida yangi xulosalar tarzida berishga qaratilgan bo'lishi zarur. Tadqiqot xulosasi turli shakllarda rasmiylashtirilishi mumkin. Bu mavjud tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, ilmiy natijalarni bob va paragraflarda umumlashtirish darajasiga, mavzuni yoritishdagi xulosalar o'rtasida mavjud mantiqiy bog'liqlikka ham taalluqli hisoblanadi. Tadqiqot xulosasida quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- referativ umumlashtirish, ya'ni boblar ketma-ketligi asosida;
- ilmiy tadqiqotning muammoli bayoni asosida;

- boblar ketma-ketligidan qat’iy nazar, mazmunini umumlashtirish asosida.

Tadqiqotlardagi xulosa shakllari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ilmiy izlanishlar natijasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur:

1. Tadqiqotning kirish qismida qo‘yilgan masalalar, ya’ni maqsad va vazifalarga javob berish kerak.
2. Tadqiqotda ilgari surilgan gipoteza, tezislar, savollarga javob bo‘lish lozim.
3. Asosiy xulosalar ifodalanishi kerak.
4. Mavzudan kelib chiqadigan ilmiy izlanishlar bo‘yicha takliflar zarur.
5. Ilmiy tadqiqot natijalaridan ilmiy va amaliyotda foydalanish bo‘yicha tavsiya berilishi lozim.
6. Tadqiqotchi tomonidan fanga va amaliyotga kiritilgan yangilik e’tirof etilishi kerak.
7. Tadqiqotning ilmiy-amaliy natijasini umumlashtirish zarur.
8. Tadqiqot bo‘yicha istiqbolda mavzu muammolarini o‘rganishga qaratilgan ko‘rsatma bo‘lishi zarur.

Savol va topshiriqlar:

Biror ilmiy ishning annotatsiyasini tanlang, u bilan diqqat bilan tanishing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mavzuning ifodalanishi qo‘yilgan talablarga mos keladimi? Bu nimada namoyon bo‘ladi?
2. Mavzu nomi qanday axborotni o‘z ichiga oladi?
3. Ushbu mavzu ilmiy ish uchun yaroqlimi? Nima uchun?
4. Tadqiqotning obyektl sohasi qanday? Muallif tadqiqot obyekti sifatida nimani tanlagan?
5. Tadqiqot predmeti to‘g‘ri belgilanganmi?
6. Tadqiqotning dolzarbligi asoslangan va dalillanganmi?
7. Tadqiqotning yangiligi aniq ifodalanganmi? Bu nimada namoyon bo‘ladi?

8. Tadqiqotning amaliy ahamiyati taqdim etilganmi? U qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

4-mavzu

ILMIY ISH TILI VA USLUBI

Reja:

1. Axborotni ilmiy uslubda bayon etish xususiyatlari.
2. Ilmiy uslubdagi matnni yozish bosqichlari.
3. Tadqiqot mavzusiga doir materiallarni qayta ishlash.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ilmiy uslub, mantiqiy izchillik, tizimlilik, maxsus ilmiy leksika, terminologik leksika, ilmiy savodxonlik, qoralama nusxa, tahrir, korrektura.

Axborotni ilmiy uslubda bayon etish xususiyatlari

Ilmiy tadqiqot ishi mazmuni, ijodiy o‘ziga xosligi, muallifning soha bo‘yicha bilimi, shaxsiy tajribalari va qarashlari bilan boshqa ish turlaridan farqlanadi. Ilmiy tadqiqotlarning barcha turlarida axborot ilmiy uslubda bayon qilinadi.

Axborotni ilmiy (akademik) uslubda bayon qilishdan ko‘zlanadigan maqsad – ilmiy tadqiqot natijalari, ilm-fanga oid ma’lumotlar haqida xabardor qilish, ularni sharhlash, tushuntirishdan iborat. Oddiy qilib aytganda, bu ilmiy hodisalar, qonuniyatlar, yangiliklar, nazariya yoki amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazib berishdir.

Axborotni ilmiy uslubda bayon qilish uslubiy jihatdan quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- axborotni yetkazishda aniqlik;
- obrazlilikdan qochish, ya’ni predmet va obyektga sharh berganda, ularni jonli, ta’sirchan qilib tasvirlashdan saqlanish, histuyg‘ularga ortiqcha berilmaslik;
- predmet haqida tegishli ma’lumotlarni bayon qilish vaqtida obyektivlikka (xolislik, beg‘arazlik) asoslanish, talabchanlik va boshqalar.

Axborotni ilmiy uslubda bayon qilishning quyidagi xususiyatlari (sifat belgilari) mavjud:

- 1) fikrlarning mantiqiy izchilllik asosida bayon qilinishi;
- 2) predmetga oid mulohazalarni bayon qilish vaqtida matnning ayrim qismlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlovchi tizimlilikka rioya etilishi;
- 3) fikrlarni bayon qilishda aniqlikka intilish, asosiy atamalarni bir xil ma’noda qo‘llash, mulohazalarning ma’nodorligini ta’minlash va ayni vaqtning o‘zida bayonning qisqa (lo‘nda) bo‘lishiga erishish.

Fikrlarni yozma yoki og‘zaki shaklda ilmiy uslubda bayon qilishning asosiy xususiyatlari:

- fikrlarning aniqligi (to‘g‘riliqi),
- abstraktligi,
- mantiqiy jihatdan to‘g‘riliqi,
- obyektivligini alohida ajratib ko‘rsatish mumkinligi.

Aynan yuqorida sanab o‘tilgan asosiy xususiyatlar barcha nutq vositalarini bir tizimga birlashtirib, funksional jihatdan fikrlarni ilmiy uslubda bayon qilishga imkon beradi. Fikrlarni ilmiy uslubda bayon qilish vaqtida maxsus ilmiy va terminologik leksika (tilning so‘z boyligi, lug‘at tarkibi) qo‘llanadi. So‘nggi vaqtda bu sohada xalqaro miqyosda e’tirof etilgan ilmiy tushunchalar ko‘proq ishlatali yapti.

Fikrlarni ilmiy uslubda bayon qilish jarayonining negizida yotadigan ustuvor g‘oya shundan iboratki, jarayon davomida predmet yoki obyektni o‘rganish va uni izohlash uchun maxsus ilmiy

terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish kerak, yozma yoki og‘zaki nutq qat’iy ravishda mantiqiy izchillik asosida ifodalanishi lozim.

Ilmiy tushunchalarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri ta’riflash va tavsiflash, xuddi shuningdek, ilmiy ishlanmalarning ilmiy apparatini to‘g‘ri va izchil ochib berish kabi layoqatni to‘liq namoyon eta bilish pirovard natijada yozilgan ilmiy ishning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab yetishga katta ta’sir qiladi. Shu boisdan ham ilmiy savodxonlikning yuqorida aytib o‘tilgan ikki omiliga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

Ilmiy savodxonlik deganda, tanlangan ilm-fan sohasida keng amal qiladigan asosiy ilmiy tushunchalar, tamoyillarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash, ularni o‘rinli ishlata bilish kabi salohiyatga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Bu kabi ilmiy xabardorlik layoqat sohibiga ilmiy muammolarga oid masalalar yuzasidan tegishli xulosalar yasay bilish, vaziyatdan kelib chiqib, to‘g‘ri va o‘rinli qarorlar qabul qilish, ommaviy tarzda muhokama etilayotgan ilmiy-texnik mavzularning mazmunini tushunib, jarayonning kechishini izchil kuzatib borish, zaruriyat tug‘ilsa, jarayonda faol ishtirok eta bilishga imkoniyat yaratib beradi.

Ilmiy savodxonlik quyidagi asosiy parametrlar bilan belgilanadi:

- ilmiy eksperiment tushunchasi, shuningdek, ilm-fan sohasiga oid asosiy tushunchalar, faktlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, olingan amaliy ish natijalarini tahlil qilish asosida mantiqiy asoslangan xulosalar yasay bilish;

- ilmiy nuqtayi nazardan kuzatilayotgan jarayonlarga oid tegishlicha ilmiy savollarni ta’riflay bilish va savollarga mos javoblar olish layoqatining rivojlanganligi;

- iqtisodiy jarayon va hodisalarini ilmiy jihatdan ta’riflash, izohlash, kuzatuvlari asosida tegishli prognozlar yasay bilish layoqatining rivojlanganligi;

- ilmiy tusdagi ommabop maqolalarning mazmun-mohiyatini anglay olish, ularda ta’rifi keltirilgan ilmiy tadqiqot natijalarining

ishonchligini tanqidiy nuqtayi nazardan baholay olish layoqatining rivojlanganligi;

– ijtimoiy va siyosiy tusdagi babs, munozaralarning asosida yotgan asl mazmun-mohiyatni ilg‘ay bilish layoqatining rivojlanganligi;

– ilmiy tusdagi turli xil ma’lumotlar, xususan, ularning ilmiy xarakteri, manbayi, ilmiy yo‘l bilan olinish uslublarining nechog‘li ahamiyatli ekanini baholay bilish layoqatining rivojlanganligi;

– aniq ilmiy masalaga oid shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish, boshqa izlanuvchilarining muayyan faktlarni o‘rganib chiqish asosida shakllantirilgan fikr-mulohazalari va keltiriladigan dalillarini ilmiy jihatdan obyektiv baholay olish, tegishli xulosalar chiqara bilish layoqatining rivojlanganligi.

Ilmiy uslubdagi matnni yozish bosqichlari

Kurs ishlari, malakaviy ishlar, dissertatsiya kabi ilmiy ish turlarining yozilishi va rasmiy lashtirilishiga muayyan talablar qo‘yiladi.

✓ Materialning aniq va izchil bayon qilinishi ishni yozishning asosiy tamoyilidir.

✓ Yangi fikrni ifodalaydigan iboralar xatboshidan boshlab yoziladi.

✓ Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa sahifalarga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

✓ Agar matnda boshqa manbalardan olingan materiallar ishlatilsa, unda ko‘chirmachilik (plagiat)da ayblanmaslik uchun ularning manbasini albatta matnda ko‘rsatish kerak.

Tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda quyidagilarni bajarish zarur:

• axborotlarni to‘plash (o‘qish, kuzatish, suhbatlashish, so‘rovnama o‘tkazish va hokazo);

- ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotchi aytishi mumkin bo‘lgan masalaga doir g‘oyalarni to‘plashi va tahlil etishi;

- bu haqda qanday qilib yaxshiroq yozish mumkinligi to‘g‘risida bosh qotirish (klaster, konseptual sxema va boshqalarning qurilishi).

1-bosqich. *Ishning qoralama nusxasi – variantini tuzish.*

Bu bosqichda quyidagilarni bajarish zarur:

- qoralamalarda yozish;
- faqat o‘zining g‘oyalariga e’tibor qilish, vaqtincha shakl va bayon qilish qoidalari haqida bosh qotirmaslik;
- orada qator qoldirib yozish: tuzatish paytida yangi matnni yozish uchun joy qoladi.

2-bosqich. *Tuzatish.*

Bu qoralama variantni takomillashtirish bosqichidir. U qoralamaga qaydlar qilish, tuzatishlarni kiritishdan iborat bo‘ladi. Bunda qoralamaning tuzatish kiritish kerak bo‘ladigan joylarini belgilash uchun ko‘rsatkichlardan foydalanish, qo‘srimcha stikerlar yopishtirish va boshqa usullarni qo‘llash mumkin. Tuzatish paytida tadqiqotchi o‘ziga quyidagi savollarni berishi kerak:

1. Matnning butun mazmuni asosiy mavzuga tegishlimi?
2. Unda qo‘srimcha axborot talab etiladigan joylar yo‘qmi?
3. Asosiy fikrni ta’kidlash uchun qaysidir so‘zlarni qo‘sish yoki tushirib qoldirish kerak emasmi?
4. Fikrlar aniq yoki yuzaki bayon qilingan emasmi?
5. Matn mantiqan tuzilganmi?
6. Xulosa ishonarlimi, u mohiyatga mosmi?
7. Yakuniy qism matnning boshlanishi bilan bog‘langanmi?

3-bosqich.

Tahrir qilish yoki korrekturani o‘qish.

Ushbu yakunlovchi bosqich matnning qoralama variantini tuzish va tuzatishdan keyin boshlanadi. Tadqiqotching vazifasi matnda orfografik, grammatik va uslubiy xatolar bo‘lmashligiga erishishdan iborat. Buning uchun u o‘ziga quyidagi savollarni berishi kerak:

1. Hamma so‘zlar ham to‘g‘ri yozilganmi? (Yozilishiga ishonch komil bo‘lmagan so‘zlarning tagiga chizish va ularni lug‘atga qarab tekshirish zarur).

2. Hamma gaplar ham tugallangan fikrni bildiradimi?

3. Cho‘zilib ketgan gaplar yo‘qmi, ularni alohida gaplarga bo‘lish kerak emasmi?

4. Tinish belgilari: vergullar, tire, ikki nuqta, nuqtali vergullar to‘g‘ri qo‘yilganmi?

5. Barcha xatboshilarda chekinish qo‘yilganmi? (Har qanday yangi fikr xatboshidan boshlanishi kerak).

Tadqiqot mavzusiga doir materiallarni qayta ishlash

Davriy matbuot materiallari. Tadqiqot olib borishda davriy matbuot, ya’ni gazeta va jurnallar muhim ahamiyat kasb etadi. Davriy matbuot materiallaridan ilmiy adabiyotlar, e’lon qilingan manbalar qatori muayyan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarda ham ko‘p foydalaniladi. Davriy matbuot materiallari o‘z xususiyatiga ko‘ra tadqiqotchilar uchun ishonchli, boy va ayni paytda mashaqqatli mehnat talab qiladigan manbalaridan biri hisoblanadi, chunki davriy matbuotda yoritilgan materiallarning gazeta va jurnallarda chop etilishi juda qisqa vaqtda amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda chop etilayotgan gazeta-jurnallardagi materiallar bilan birga, xorijiy mamlakatlarda nashr etilayotgan yirik va nufuzli iqtisodiy, huquqiy nashrlarning materiallari ham tadqiqotchi tomonidan sinchkovlik bilan o‘rganilishi, tahlil qilinishi kerak. Ammo ana shu ko‘p sonli davriy matbuot materiallarining hammasidan ham tadqiqotda “oxirgi haqiqiy manba” tariqasida foydalanish mumkin emas.

Davriy matbuot materiallaridan tadqiqotda foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jurnallardagi materiallar mundarijalarda hamda odatda jurnalning so‘nggi sonida maqolalar ro‘yxatida e’lon qilinadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot uchun kerakli materiallarni topib olish anchagina osonlashadi.

Kutubxonalar fondidan foydalanish. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchilar uchun kutubxona materiallaridan foydalanish olib borilayotgan ilmiy ishning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchilar ixtiyorida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi va uning filiallari, viloyat, shahar, tumanlardagi kutubxonalar, oliy ta’lim muassasalaridagi axborot resurs markazlari mavjud bo‘lib, ulardan belgilangan tartib-qoidalar asosida foydalanish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida kutubxonalarning ommaviy, ilmiy va maxsus turlari mavjud. Ilmiy va maxsus kutubxonalar fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi tadqiqotchilarga, mutaxassis olimlarga xizmat ko‘rsatadi. Albatta, dastlabki tadqiqotlar asosan OTM ARMLari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda kutubxonadagi kitoblar fondini to‘g‘ri tashkil qilinganligi, xususan kitoblarni ro‘yxatga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxon-tadqiqotchiga mumkin qadar tezroq yetkazishdagi holatlar ahamiyatga molikdir. Tadqiqotchiga kutubxonada xizmat ko‘rsatishning bugungi kunda ikki shakli mavjud: abonnement va qiroatxona (o‘quv zali). Ayrim kutubxonalarda adabiyotlar tanlash va buyurtma berish jarayonida maxsus maslahatchilar (konsultantlar) ham yordam berishi mumkin. Ammo har bir tadqiqotchi kutubxonada ilmiy tadqiqotiga zarur bo‘lgan manbalarni o‘zi izlab topishni bilishi va eng zarur deb hisoblaganlariga buyurtma berishi maqsadga muvofiq. Buning uchun tadqiqotchi kutubxona tizimi bilan yaxshi tanish bo‘lishi lozim.

Kutubxona katalogi fonddagi mavjud kitoblar, hujjatlarning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik yozuvlar ro‘yxatini tashkil etadi. Kataloglar kutubxona fondidagi adabiyotlar to‘g‘risida hamda uni tanlashda yordam ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi. Kutubxona katalogi tadqiqotchilar uchun kartochkali, kompyuter yozuvlari shakllarida va elektron disklar yoki kitob holida saqlanadi.

Kutubxona katalogining kartochkali shaklida adabiyotlar muallifining familiyasi, ismi-sharifi, kitobning nomi, kitob haqida tushuncha, nashriyot nomi, chiqqan yili, qayerda nashr etilgani, necha betni o‘z ichiga olishi qayd etiladi. Tadqiqotchi kitob nomi va bu kitob haqida tushuncha orqali ma’lum darajada ilmiy izlanish mavzusini yoritishda foydalanishi mumkin yoki mumkin emasligidan kelib chiqib, buyurtma beradi. Kompyuter yozuvi va elektron disklar shaklidan ham shu asnoda foydalanish mumkin.

Tadqiqotchi tanlangan mavzu bo‘yicha ilmiy rahbari ishtirokida mazkur tadqiqotni olib borishning ish rejasini tuzadi. To‘g‘ri tuzilgan reja ilmiy izlanishning samarali o‘tkazilishini ta’minlaydi. Reja tasdiqlangach, tegishli tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Tayyorgarlik ishlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshgan bo‘lishi lozim:

- mavzuga oid yig‘ilgan materiallarni qayta ishlashdan avval, adabiyot va manbalarni saralab, ulardan qaysi biri dastlab va qaysilari keyingi ketma-ketlikda o‘rganilishini aniqlab, tizimga solib olish zarur;

- mavzuga oid tadqiqot materiallarini “manbalar”, “adabiyotlar”, “hujjatlar” kabi yo‘nalishlarda, xronologik ketma-ketlik asosida, muammoli yondashuv bo‘yicha, bob, bo‘lim va paragraflarga bo‘lgan holda, mintaqasiga, tiliga, mualliflariga, konsepsiyasiga bog‘liq ravishda ajratib olish kerak;

- tadqiqotda dastlab adabiyotlarni, keyin chop etilgan hujjatlarni, undan so‘ng chop etilmagan va o‘z navbatida ilmiy muomalaga kiritilmagan materiallarni tahlil qilish maqsadga muvofiq;

- keyingi o‘rganish eng yangi tadqiqotlar va unga yaqin ilmiy izlanishlar tahliliga qaratilishi lozim, chunki bu hozirgi davrda ushbu tadqiqot mavzusi qanday o‘rganilayotgani darjasini, qaysi manbalarni ilmiy muomalaga kiritilgani to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar amalga oshirilgandan keyin tadqiqotchi oldida qayta ishlangan adabiyot va manbalarni ilmiy ishning loyiha rejasi bo‘yicha ajratib chiqish mumkin bo‘ladi. Bu esa ilmiy tadqiqot tuzilishi bo‘yicha bevosita ish boshlash imkoniyatini beradi. Natijada qaysi bob, bo‘lim va paragraflar bo‘yicha tadqiqotga

oid materiallar yetarli yoki yetarli emasligi ma'lum darajada ko'zga tashlanadi.

Qaysi yo'naliш bo'yicha tadqiqot rejasi tuzilishidan qat'iy nazar, dastlab ilmiy izlanuvchi mavzuga oid materiallar-manbalarni yiqqan, o'rgangan bo'lishi kerak. Aks holda har qanday tadqiqot rejasi mavzuni ochib berishga xizmat qila olmaydi.

Ilmiy adabiyotlarni o'r ganish (mutolaa qilish) samaradorligini quyidagi jihatlar oshiradi:

- mutolaaning jiddiy va sermulohaza tarzda amalga oshirilishi;
- o'qib chiqilgan matnni tahlil qilish;
- notanish terminlar va tushunchalarning ma'nosini izlab topish va yozib qo'yish;
- tadqiqotchi o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan savollarga javob izlashi;
- manbadagi axborotlarni markirovkalash, ya'ni maxsus belgilar qo'yish. Masalan, "juda zarur", "ahamiyatli", "... bobga kerak", "... paragrafga kerak" va h.k.;
- ilmiy ishda foydalanish mumkin bo'lgan axborotlar: qiziqarli faktlar, raqamlar, turli nuqtayi nazarlar va muhim fikrlarni ko'chirib olish, har bir ko'chirma manbasini yozib qo'yish. Masalan: muallif (lar) ning familiyasi va ismi-sharifi, manbaning bibliografik ma'lumotlari (nomi, nashriyot, nashr yili, hajmi (bet), iqtibos olingan bet raqami. Bularning barchasi tadqiqotning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda zarurdir.

Matnni o'qib chiqqandan keyin konspekt qilish quyidagi tartibda amalga oshirilishi tavsiya etiladi (62-betdagи 1-jadvalga qarang).

Tadqiqot uchun kerakli manbalardan olingan axborotlarni ularga tanqidiy nuqtayi nazardan, shuningdek aynan shu tadqiqot uchun ahamiyatini hisobga olib yondashgan holda baholash lozim.

1-jadval

Matndagi asosiy so‘zlar va tushunchalar	Matnning mohiyati, undagi asosiy fikr	Matnda asosiy fikrning olib berilishi	Xulosa, paydo bo‘lgan savollar, matn mazmuniga shaxsiy munosabat

Tadqiqot uchun manbalar, dalillar, hujjatlar, ma'lumotlar, materiallar yig'ish birinchi o'rinda turgan bo'lsa, ilmiy ishning tuzilishi bo'yicha yozish chog'ida yig'ilgan materiallarning eng muhimini ajratib, ilmiy muomalaga kiritish yanada oldinga o'tishi lozim. Odatda tadqiqotchi ixtiyorida ilmiy ish uchun zarur bo'lganiga qaraganda ko'proq miqdorda manbalar, hujjatlar, materiallar yig'iladi. Tadqiqotchi to'plangan manbalarning hammasidan o'z ilmiy ishida foydalanmasa-da, ularni o'rganadi, saralaydi, umumlashtiradi va bu o'z navbatida uning izlanayotgan mavzusi bo'yicha dunyoqarashini kengaytiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy ish uslubi qanday xususiyatlarga ega?
2. “Ilmiy savodxonlik” tushunchasini sharhlang.
3. Ilmiy matnni yozish bosqichlarini aytib bering.
4. Ilmiy tadqiqot jarayonida kutubxona fondining roli qanday?
5. Manbalarni konspekt qilishda nimalarga e'tibor berish kerak?

5-mavzu

ILMIY ISH ETIKASI. MANBA VA MATERIALLARDAN IQTIBOSLAR KELTIRISH. TADQIQOT BIBLIOGRAFIYASI.

Reja:

1. Ilmiy tadqiqot etikasi.
2. Intellektual mulk. Mualliflik, yakka mualliflik va hammualliflik. Plagiat tushunchasi.
3. Manba va materiallardan iqtibos keltirish.
4. Tadqiqot bibliografiyasini tuzish tartibi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ilmiy tadqiqot etikasi, ilmiy mehnat madaniyati, intellektual mulk, mualliflik huquqi, muallif, yakka muallif, hammuallif, plagiat, antiplagiat, matnning originalligi, iqtibos keltirish, elektron manba, davriy matbuot, statistik materiallar, bibliografiya, ko‘chirma gap, o‘zlashtirma gap.

Ilmiy tadqiqot etikasi

Har qanday ilmiy tadqiqot savodli, tushunarli, fikr-mulohazalar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda bayon etilgan bo‘lishi kerak. Biroq, har bir sohada bo‘lganidek, ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham yozilgan va yozilmagan talablar, tartib-qoidalar mavjud. Bu tartib-qoidalarni shartli ravishda “Tadqiqotchilar ilmiy odobnomasi” deyish ham mumkin.

“Tadqiqotchilar ilmiy odobnomasi” quyidagilar doirasida bo‘lishi darkor:

– tadqiqotlarda keltirilgan dalillar, sanalar, voqeal-hodisalar haqiqiy manbalarga asoslangan bo‘lishi kerak;

– o‘zidan avval tadqiqotchilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan manbalar hamda tushunchalarni “o‘zlashtirib” olmasdan, ilk bor ilmiy iste’molga kiritilmoqda demaslik lozim;

– boshqalarning tadqiqotida keltirilgan ilmiy yangiliklarni o‘ziniki qilib ko‘rsatmaslik kerak;

– o‘zga tadqiqotchilar tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, arxiv manbalaridan o‘z ilmiy ishida iqtibos keltirganda, o‘sha adabiyot va manbalarga emas, balki muallifning asari, tadqiqotiga ishora qilmoq darkor;

– ilmiy izlanish jarayonida o‘zidan avvalgi tadqiqotchilar tomonidan voqeа-hodisalar, dalillar, sanalar, shaxslar faoliyati, ismi-sharifi bilan bog‘liq voqealar bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan xatolar, noaniqliklarga nisbatan munosabat har qanday qo‘pol iboralardan yiroq, odob doirasidan chiqmagan holda bayon etilishi maqsadga muvofiq;

– tadqiqotda o‘zidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar tomonidan amalga oshirilgan muvaffaqiyatlarni e’tirof eta bilish, ko‘r-ko‘rona tanqidga o‘tmaslik kerak;

– o‘zgalar tadqiqotiga hech qanday hissa qo‘shmay turib, hammualliflikka intilmaslik lozim. Bunday urinish haqiqiy ilmiy odobsizlik hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot yozishga kirishgan har bir tadqiqotchidan *ilmiy mehnat madaniyatiga* rioya qilish talab qilinadi. Bu talab ilk bor ilmiy tadqiqotga qo‘l urgan tadqiqotchidan tortib, yillar davomida bir qator ilmiy asarlar yozgan, ko‘plab shogirdlar chiqargan, ilmda “suyagi qotgan”larga ham taalluqli hisoblanadi. Ma’lumki, tadqiqotchi tomonidan o‘rganilayotgan mavzu, aksariyat hollarda ilk bor o‘rganilmayotgan bo‘ladi. Shuning uchun ham tadqiqotchi mavzuni yoritishda o‘zidan avvalgi ilmiy izlanishlar natijalariga tanqidiy yondashishi bilan birga, ayni paytda ularning fanda qilgan ishlarini sinchkovlik bilan o‘rganishi hamda hurmat bilan tilga olishini taqozo etadi.

Tadqiqotchi o‘zidan avvalgi izlanuvchilar erishgan ilmiy yutuqlarga shunchaki munosabat bildirmasligi va ularni o‘z foydasiga o‘zlashtirmasligi kerak. Agar tadqiqotchidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar tomonidan mavzuning u yoki bu yo‘nalishi yetarli darajada o‘rganilmagan yoki ochib berilmagan, ayrim noaniqliklarka yo‘l qo‘yilgan yoki ushbu muammo, mavzu umuman tadqiq qilinmagan bo‘lsa, unda tadqiqotchi adabiyot va manbalarning ishonchli tahlili asosida, qo‘pollikka berilmay, ilmiy odob doirasida buni ko‘rsata olishi kerak. O‘z navbatida, tadqiqotchi o‘zidan avvalgi ilmiy izlanuvchilar nuqtayi nazari, xulosalariga ko‘r-ko‘rona qo‘shilib ham ketavermasligi kerak. Ammo o‘z nuqtayi nazari, nazariy mushohadalari, ilmiy xulosalari boshqalarnikidan ko‘ra ilmiy qimmati yuqori bo‘lishi uchun foydalangan materiallari, dalillari asosli va chuqur ilmiy tahlil qilingan bo‘lishi lozim.

Tadqiqot o‘z mazmuniga ko‘ra ilmiy yo‘nalishda ekanligi sezilib turishi kerak. Ilmiy ish ravon o‘qilishi, ehtirosli fikr-mulohazalardan yiroq, dalillarga asoslangan bo‘lishi kerak. Tadqiqotchi tomonidan ilmiy ish bayoni adabiy tilda, badiiylikdan yiroq, voqeа-hodisalar, dalillarga ilmiy nuqtayi nazardan izoh berish orqali amalga oshirilishi lozim. Tadqiqotda voqeа-hodisalar, dalillarni asosli bayon etish, *to‘qimachilik* bilan shug‘ullanmaslik kerak. Ilmiy ish bayonida bir gapda bir necha marta bir xil so‘zlarni qo‘llamaslik, mumkin qadar sinonimlardan foydalanish zarur. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishi adabiyotlar, manbalar iqtiboslariga to‘lib-toshib ketmasligi, “iqtiboslar ko‘rgazmasi”ga aylanmasligi lozim. Zero, har bir tadqiqotda manbalar qatori, ilmiy izlanuvchining munosabati, talqini, nazariy mushohadasi sezilib turishi kerak. Ilmiy tadqiqotni boshidan yakuniga qadar o‘qigan kishi ma’lum bir ijobiy xulosaga kelishi kerak.

Intellektual mulk. Mualliflik, yakka mualliflik va hammualliflik. Plagiat tushunchasi.

Har qanday asar mualliflik huquqi obyekti sifatida muhofaza etilishi uchun u ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lishi shart.

Muallif – ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs.

Huquq egasi – mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rlari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, asar yoki mahsulotni tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot, shuningdek shartnomada yoki boshqa asos bo‘yicha asarlardan yoxud turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish huquqini olgan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxs(lar).

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat’iy nazar, tatbiq etiladi.

Intellektual mulk obyektlari doirasi birinchi marta Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (VOIS)ni ta’sis etuvchi 1967-yil 14-iyuldaggi Konvensiyaning 2-moddasi 8-bandida berilgan. Unda ko‘rsatilishicha, intellektual mulk quyidagilarga nisbatan yuzaga keladigan huquqlarni o‘zida ifodalaydi:

- adabiy, badiiy va ilmiy asarlar;
- artistlar, ovoz yozish, radioeshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlarining ijrochilik faoliyati;
- inson faoliyatining barcha sohadagi ixtirolari;
- sanoat namunasi;
- tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomi va tijorat sirlari;
- noqonuniy raqobatdan himoyalanish;
- ishlab chiqarish, ilmiy, adabiy va badiiy sohadagi intellektual mulkka taalluqli barcha boshqa huquqlar.

Fan, adabiyot va san’at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo‘yicha yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Mutlaq mualliflik huquqlari egasi o‘z huquqlaridan xabardor qilish uchun mualliflik huquqining muhofaza belgisidan foydalanishi

mumkin bo‘lib, bu belgi asarning har bir nusxasida aks ettiriladi va quyidagi uch unsurdan iborat bo‘ladi:

- aylana ichidagi “C” harfi;
- mutlaq mualliflik huquqlari egasining ismi-sharifi (nomi);
- asar birinchi marta chop etilgan yil.

Mualliflik huquqining muhofaza belgisida ko‘rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlangan bo‘lmasa, mutlaq mualliflik huquqlari egasi hisoblanadi.

Mualliflik huquqi g‘oyalar, konsepsiylar, prinsiplar, tizimlar, taklif etilayotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan (agarda ular ilmiy asar sifatida obyektiv shaklga solinmagan bo‘lsa) joriy etilmaydi.

Rasmiy hujjatlar, shuningdek ularning rasmiy tarjimalari, rasmiy ramzlar, xalq ijodiyoti asarlari, oddiy matbuot axboroti tusidagi kundalik yangiliklarga doir va joriy voqealar haqidagi xabarlar, insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati ishtirokisiz muayyan turdagи ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar (masalan, robot tomonidan bastalangan musiqa, yozilgan she’r) ham mualliflik huquqi obyekti bo‘lib hisoblanmaydi.

Ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi mazkur asar bo‘linmas, bir butun yoki har biri ham mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat’iy nazar, *hammualliflarga* birgalikda tegishli bo‘ladi.

Hammualliflar tomonidan yaratilgan yagona asarga nisbatan ularning huquqlari va o‘zaro munosabatlarini, umumiy mulk institutini birgalikdagi mulk va hissali mulkka nisbatan sherik mulkdorlarning huquqlari va o‘zaro munosabatlariga qiyoslash mumkin, zero bunday huquqiy tartibga solish mexanizmida o‘xshashliklar mavjud. Hammualliflar o‘rtasidagi munosabatlar umumiy qoida bo‘yicha o‘zaro kelishuv, bitim asosida belgilanadi. Bunday bitimda turli masalalar, asar nashr etilganda zarvaraqda qaysi hammuallif ismi-sharifi qanday

tartibda yozilishi, qalam haqini taqsimlash va hokazolar ko‘zda tutilishi mumkin.

Muallif asarlaridan boshqa shaxslarning (foydalanuvchilar) foydalanishi mualliflik shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Asardan foydalanishning shartnomaviy shakli muallifning ham shaxsiy, ham mulkiy huquqlarini himoyalash va undan foydalanishda boshqa usullardan ko‘ra mukammal himoyani ta’minlaydi.

Intellektual mulk obyektidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish deyilganda huquq sohibining o‘z erki, irodasi bilan, hech qanday majburiyatsiz, tazyiqlarsiz foydalanish tushuniladi. Obyektlardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanish deyilganda undan turli obyektiv shaklda – qo‘lyozma, bosma asar, apparat, qurilma, etiketka, har xil yorliqlar, maket, inshootlar, haykallar va shu kabilarda hamda turli vositalar yordamida qo‘lyozma shaklida tarqatish, nashr etish, og‘zaki o‘qish, reklama prospektlariga joylashtirish, qurilishlarda mujassamlashtirish va hokazo usullarda ekspluatatsiya qilish, foydalanish tushuniladi.

Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo‘lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydanishiga faqat huquq egasi roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Mualliflik va kashfiyotchilik huquqlarining buzilishi uchun jinoiy va fuqarolik javobgarligi nazarda tutiladi. Intellektual mulk obyektidan mutlaq huquq egasi roziligini olmasdan foydalangan uchinchi shaxslar tegishli fuqarolik-huquqiy tartibda javobgar bo‘ladilar. Huquq egasi o‘z huquqlarini sud tartibida himoya hilishga, uchinchi shaxslar tomonidan huquq buzilishi harakatlarini to‘xtatishga, keltirilgan hamma zararni, shu jumladan ma’naviy zarar qoplanishini, uchinchi shaxslar huquqbazarlik natijasida olgan barcha daromad va foydalarni o‘ziga undirib berilishini talab qilishga haqli.

Tadqiqotda boshqalarning asarlari, ilmiy tadqiqotlaridan iqtibossiz keltirilgan fikrlar, nazariy g‘oyalar plagiat hisoblanadi. Biron ishda boshqa kishining so‘zlari, g‘oyalari, grafik tasvirlari, nazariyalari

va ishlanmalaridan ularning haqiqiy yaratuvchilari muallifligini e'tirof etmasdan foydalanish plagiat deyiladi.

Plagiat (lotincha “plagio” – o‘g‘irlayman) – adabiyot, fan, san’at asari, kashfiyat yoki ratsionalizator taklifiga mualliflikni (qisman yoki to‘la) qasddan o‘zlashtirish.

Ma’lumki, asrimiz – axborot asri. Umumta’lim, kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarida o‘qish davomida, vebssayt yaratish ustida ishlayotganda, kun yangiliklarini muhokama qilayotganda biz doimo kimningdir fikr-mulohazalari, g‘oyalari muhokamasi muhitida bo‘lamiz. Kimningdir g‘oyasidan foydalanilayotganda uning muallifini aytib o‘tish zarurligini hisobga olish lozim.

Plagiatning oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- ma’lum bir manbadan olingan, lekin hammaga ham ma’lum bo‘limgan fikr, g‘oya, nazariya, faktlar, statistik ma’lumotlar, tasvirlarning muallifini ko‘rsatib o‘tish;
- iqtibos muallifini ko‘rsatgan holda boshqa kishining nutqini to‘liq va batartib keltirish yoki fikrini (g‘oyasini) yozma bayon etish;
- iboralarning ma’nosini o‘zgartirmasdan almashtirish – g‘oyaning muallifini qavs ichida ko‘rsatgan holda g‘oyani yoki nazariyani o‘z so‘zlari bilan bayon etish.

Ma’lumotlar olingan manbani ko‘rsatib o‘tish lozim bo‘lgan hollar:

- jurnallar, kitoblar, gazetalar, teledasturlar, filmlar, vebssaytlar, kompyuter dasturlari, xatlar, e’lonlar yoki boshqa manbalardan olingan so‘zlar yoki g‘oyalardan foydalanilganda yoxud ularga murojaat qilinganida;
- intervyu o‘tkazish natijasida olingan ma’lumotdan foydalanilganda;
- biror joydan olingan “noyob” ibora so‘zma-so‘z ko‘chirilganida;
- kimdir yaratgan diagrammalar, rasmlar, grafiklar, tasvirlardan foydalanilganida;

- suhbat davomida yoki elektron pochta orqali aytib berilgan g‘oyalardan foydalanilganida.

Ma'lumotlar olingan manbani ko'rsatib o'tish lozim bo'lмаган холлар:

- shaxsiy tajribani, shaxsiy kuzatishlarni, qandaydir mavzu bo'yicha shaxsiy fikr-mulohazalarni, shaxsiy xulosani tavsiflayotganda;
- hammaga ma'lum faktlar, kuzatishlar, xalq og'zaki ijodiyotidan foydalanilganida;
- umumiylar qabul qilingan faktlar to'plamini bir joyga jamlashda;
- shaxsiy tajriba natijalarini tavsiflashda.

Ma'lumot hammaga ma'lum yoki ma'lum emasligini qanday aniqlash mumkin?

- 1) agarda bu ma'lumotni kamida 5 ta turli manbada hech qanday rasmiylashtirilmagan holatda topish mumkin bo'lsa;
- 2) agarda har qanday kishi bu ma'lumotni hech bir kuch sarflamasdan umumiylar manbalardan erkin topa olsa.

Ilmiy sohada plagiат deb aksariyat hollarda o'zgalar tomonidan yaratilgan matnning jurnallarda, saytlarda chop etilishi yoki o'zgalar yaratgan matnning fragmentlarini manbani ko'rsatmagan holda o'zlashtirishga aytildi.

Talabalar va tadqiqotchilar o'rtasida plagiатning bir necha ko'rinishi tarqalgan:

1. Birovning ilmiy ishini yoki bir nechta ishlarini o'zining nomiga o'zlashtirish (plagiат) va e'lon qilish.
2. O'zining matniga o'zlashtirilgan matnni holda manbadan iqtibos keltirmasdan chatishtirish.
3. Rerayt (birovning ishini original muallif nomini keltirmasdan o'zgartirib berish). Plagiатning bu turini bugungi kunda plagiат izlovchi texnik vositalarisiz aniqlash qiyin.

Matnning originalligi – plagiатga qarama-qarshi tushuncha. Matnda plagiат qancha ko'p bo'lsa, uning originalligi shunchalik past

bo‘ladi va aksincha. Masalan, “Antiplagiat” dasturi matnning originalligi darajasini 70% deb ko‘rsatsa, bu matnning 30 %i original emas, o‘zlashtirilgan deb topiladi va ushbu qismning plagiat ekanligini anglatadi.

Oliy ta’lim muassasalarining matn originalligiga qo‘yadigan talablari turlicha bo‘lib, 70% dan 90% gacha ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Originallikning bunday darajasiga talaba erishishi qiyin. Ayniqsa, huquqiy sohalarda har qanday qonun yoki normativ hujjatdan berilgan parcha plagiat belgisini keltirib chiqaradi. Foydalanilgan adabiyotlar va matnning boshqa shu kabi qismlari ham “Antiplagiat” dasturida o‘z aksini topadi. Shu bois plagiatga yo‘l qo‘ymaslikning muayyan qoidalariga amal qilish kerak.

1. Plagiatning mohiyatini anglash.

Plagiat deganda faqatgina aynan ko‘chirilgan matn emas, uning sinonimlar yordamida ma’lum darajada o‘zgartirilgan imitatsiyasi ham tushuniladi. Shuning uchun ilmiy ish muallifning o‘z so‘zлari bilan ifodalangan bo‘lishi, oxirida esa havola qilingan axborot manbalari ko‘rsatilishi zarur. Masalan: “*Amaldagi Bojaxona kodeksiga ko‘ra, bojaxona ishi deb iqtisodiy, tartibga solish va huquqni muhofaza qilish maqsadlariga erishishga qaratilgan, bojaxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlaydigan usullar va vositalar majmui tushuniladi (O‘zR Bojaxona kodeksi, 15-modda)*”.

Shuningdek, plagiat deb Internetdan olingan ishlar, maxsus yollangan shaxslarga buyurtma berish yo‘li bilan yaratilgan matnlar, birovning g‘oyasini o‘zining g‘oyasi sifatida taqdim etishga aytildi.

2. Yoritilayotgan mavzuni yaxshi bilish.

Agarda ilmiy ish yozadigan shaxs mavzusini yaxshi bilsa va anglasa, ishni o‘zining so‘zлari bilan ifodalaydi va o‘zgalarning so‘zlarini keltirishga hojat qolmaydi. Buning uchun mavzu bo‘yicha imkon qadar ko‘proq axborot to‘plash zarur. Bunday axborotni internetdan yoki kitoblardan topish mumkin, biroq kitoblardagi axborot ishonchliroq va aniqroq bo‘lib hisoblanadi. Manbalar qancha ko‘p

bo‘lsa, tasodifan biror ma’lumotni ko‘chirib berish ehtimoli shunchalik pasayadi.

3. Olingan axborotni bir necha bor takrorlash.

O‘z so‘zi bilan nimanidir tasvirlash uchun materialni yaxshi bilish kerak. Materialni yaxshi bilish uchun uni qayta-qayta o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Biroq bu yerda ham axborotning ong ostida saqlanib qolish va keyinchalik o‘z fikri sifatida talqin qilinishi xavfi mavjud.

4. Iqtiboslar va manbalarga havolalar berish.

Ilmiy ishning oxirida bibliografiya yoki foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Agar boshqa muallifning matnidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos berilsa, uni talabga binoan rasmiylashtirish lozim, ya’ni ushbu havola orqali berilgan iqtibosga chiqish imkonи mavjud bo‘lishi kerak.

5. Shubhali holatlarda plagiarismning oldini olish.

Plagiatning oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- o‘zlashtirilgan jumlada manbani ko‘rsatish (“B. Ahmedovga ko‘ra, ...”, “O. Mahmudovning fikricha, ...”);
- boshqa asarlardan olingandek ko‘rinadigan jumlalarni qo‘shtirnoqqa olish;
- mualliflik huquqi asoslarini o‘rganish;
- havola berish shart bo‘limgan holatlarni bilib olish (barchaga ma’lum faktlar, folklor, mahalliy afsonalar, mashhur tarixiy voqealar va b.).

Manba va materiallardan iqtiboslar keltirish

Ishning bayoni jarayonida tadqiqotchi mazmun shartlariga muvofiq joylashtirilgan jadvallar, rasmlar, misollar, sxemalar, formulalar va boshqa elementlarni qayd qilib o‘tishi mumkin, bunday qismlar o‘zları tegishli bo‘lgan matn bilan yonma-yon qo‘ylmasligi ham mumkin.

Ilmiy ish matnida ko‘pincha boshqa mualliflar aniqlagan faktlarni qayd qilish yoki o‘zlashtirilgan materialni matnga kiritishga to‘g‘ri

keladi. O‘zlashtirilgan parchalarni bayon ichida rasmiylashtirish shakllari xilma-xil, lekin nutqdagi akademik etiket bir qator barqaror nutq shtamplarini ishlab chiqqanki, ular o‘zlashtirilgan material manbaini aniqroq va qisqaroq tarzda ko‘rsatishga yordam beradi.

Boshqa manbalardan o‘zlashtirilgan ma’lumotlar sahifa ostida izoh tarzida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, boshqa manbalardan olingen barcha materiallarni izohda ko‘rsatish kerak. Masalan: (5; 42-b.).

Ilmiy tadqiqotlarda keltiriladigan iqtiboslarda *Qarang; Kengroq ma’lumot olish uchun qarang* kabi izohlardan ham foydalaniladi. Tadqiqotchi tomonidan qaysi hollarda *Qarang*: deb, keyin asar muallifi ismi sharifining bosh harflari (kitobning nomi) keltiriladi? Agar tadqiqotchi tomonidan u yoki bu adabiyotdan keltirilayotgan parcha muayyan manbalariga tayangan holda yoki o‘sha adabiyot muallifining hech qanday iqtibosga asoslanmagan kitob matnidagi mulohazasi bo‘lsa, unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sha muallifga yoki tegishli adabiyotga iqtibos berish mumkin. Ammo u yoki bu adabiyot, muallif asaridan keltirilayotgan parcha qanday shaklda (“so‘zma-so‘z”, “qisqartma so‘zma-so‘z”, “mazmun”) bo‘lishidan qat’iy nazar, boshqa bir adabiyotdan, muallif asaridan keltirilgan taqdirda *Qarang* deb, keyin adabiyot yoki muallif familiyasi, ismi-sharifi bosh harfi va asar nomi keltiriladi. Ta’kidlash joizki, *Qarang* orqali keltiriladigan iqtibos izohi nafaqat kitoblarga, balki gazeta-jurnallarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Nega shunday? Chunki tadqiqotda keltirilayotgan parcha foydalanilgan adabiyot, muallif asarida o‘z iqtibosiga ega. Boshqacharoq aytganda, tadqiqotda iqtibosdan yana iqtibos keltirilyapti. Aniqrog‘i, o‘sha adabiyotdan bevosita emas, balki bilvosita foydalanilmoqda.

Tadqiqotlarda keltiriladigan iqtiboslarda dastlab muallif, so‘ngra tegishli kitob yoki asar nomi, agar kitob boshqa tildan tarjima qilingan bo‘lsa, asarning kirish qismi, izohlari tarjimon tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, unda bu to‘g‘rida ma’lumot keltiriladi. Shuningdek,

asarning chop etilgan shahri, nashriyot nomi, chop etilgan yili va bet (lar) qayd etiladi.

Tadqiqotchi tomonidan u yoki bu muallif asariga, alohida chop etilgan kitobga o‘z ilmiy ishida uch martadan ortiq murojaat qilinsa yoki iqtibos keltirilsa, unda muallif familiyasi va ismi sharifining bosh harflari keltiriladi. Masalan, *Ko‘rsatilgan kitob* yoki kitobning qisqartma nomini keltirish bilan cheklanib, kitob-asarning nomi, qachon, qaysi shahar va nashriyotda chop etilganini ko‘rsatmay, faqat qaysi bet (lar) ga taalluqli ekani qayd etilsa, yetarli bo‘ladi. Bunday tartib nafaqat muallifi aniq adabiyotlarga, balki boshqa adabiyotlarga, xususan, bir necha kishi tomonidan yozilgan asarlarga, hujjatlar to‘plamiga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, tadqiqotda u yoki bu muallifning bitta kitobidan emas, balki ikki va undan ortiq kitobidan foydalanilsa, unda muallif familiyasi va ismi sharifi bosh harfidan keyin *Ko‘rsatilgan kitob* degan variantdan foydalanish mumkin bo‘lmaydi. Bunday hollarda muallif familiyasi va ismi sharifi bosh harfini keltirib, kitobning nomini keltirishda qisqartma variantdan foydalanish mumkin. Yana shuni qayd etish lozimki, tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida *Ko‘rsatilgan kitob* va shuningdek, qisqartma variantlarga murojaat qilmay, iqtiboslarda kitoblarni to‘la-to‘kis keltiraverishi ham mumkin.

Ko‘p jildlik kitoblarga, to‘plam, gazeta, jurnallardagi maqolalarga keltiriladigan iqtiboslar tartib-qoidasiga rioya qilish ham muhim. Agar ko‘p jildlik kitobdan iqtibos keltirilsa, aniq qaysi jildga taalluqli ekanligi iqtibosda o‘z aksini topishi kerak. Ayrim hollarda tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishda u yoki bu ko‘p jildli kitoblar mavjudligi, ya’ni ma’lum bir davrda chop etilganligi eslatib o‘tiladi. Bunday hollarda, agar boshqa jildlar sarlavhasi ham birinchi jilddagidek bir xil nomda bo‘lsa, unda birinchi jild nomini keltirib, keyingi jild qachon va qaerda chop etilganini qayd etilsa yetarli hisoblanadi. O‘z navbatida jildlar nomlanishi bir-biridan farq qilgan taqdirda, tegishli jildlar alohida nomi bilan keltiriladi.

Har xil ilmiy to‘plamlardan keltiriladigan iqtiboslar shakli keltirilayotgan namuna shaklida bo‘ladi. Iqtibosdagi // belgisi to‘plamga taalluqli ekanligini bildiradi.

Gazeta va jurnallardan keltirilayotgan iqtiboslar ham o‘ziga xos shaklda amalga oshiriladi. Ayrim hollarda, agar tadqiqot mavzusini yoritishda zarur deb topilsa, gazetadagi maqola muallifi va shu maqola sarlavhasi ham iqtibosda keltirilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotchi mavzuni yoritishda xorijiy tillardagi gazeta-jurnallar qaysi til va imloda nashr etilgan bo‘lsa, aynan o‘sha holda keltirish maqsadga muvofiq. Ammo aksariyat hollarda gazetaning nomi, chop etilgan sanasi (kun, oy, yil) keltiriladi.

Tadqiqotchining ilmiy ishi qaysi tilda yozilayotgan bo‘lsa, gazeta va jurnallarga qavs ichidagi tushuncha berish ham shu tilda beriladi.

Agar tadqiqotchi boshqa tillardagi gazeta-jurnallardan foydalanib, iqtibosda keltiradigan bo‘lsa, ular qaysi til va imloda chop etilgan bo‘lsa, aynan shu holda keltirish kerak. Gazeta va jurnallardagi maqola // belgisi orqali qayd etiladi.

Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida avtoreferat va ilmiy ishlarga iqtibos keltirish tartib-qoidalarini bilib, tegishli tarzda rasmiylashtirishi kerak. Iqtibosda tadqiqotchi, albatta, ushbu ishning avtoreferat yoki ilmiy ish ekanligini qayd etishi kerak. Agar tadqiqotchi avtoreferat yoki ilmiy ishdan iqtibos keltirsa, unda qaysi betlardan ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida iqtibos keltirmay, u yoki bu avtoreferat, ilmiy ish tegishli mavzuda borligini qayd etsa, unda tegishli tarzda avtoreferat yoki ilmiy ishning umumiy hajmi qancha ekanligini ko‘rsatish bilan cheklanadi.

Tadqiqotchi ilmiy ishida iqtiboslar yoki izohlar orqali aynan matn ichida, o‘sha betda va ayrim hollarda: atamalar, o‘lchov birliklari, geografik hududlar, shaxslar nomi, lug‘atlar, qisqartmalarni alohida turlarga bo‘lib, tadqiqot oxiridagi ilovada keltirishi mumkin.

Tadqiqot ishining adabiyotlar ro‘yxatida manbalarni qay tarzda keltirish quyida misollar bilan ko‘rsatilgan.

Monografiya, darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa kitoblar:

1. Божхона иши асослари. 1-қисм.– Т.: Янги аср авлоди, 2017. – 544 б.

2. Сравнительный менеджмент. Учебник для вузов / Под ред. С.У. Пивоварова. – СПб.: Питер, 2006. – 156 с.

3. Этрилл П. Финансовый менеджмент для неспециалистов. – 3-е изд. / Пер. с англ. под ред. Э.Н.Бондаревской. – СПб: Питер, 2007. – 143 с.

4. Яковец Ю.В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2003. – 98 с.

5. Hofstede G. Cultures and Organization. Software of the Mind: Intercultural Cooperation and its Importance for Survival. – Profile Books Ltd., 2003. – 67 p.

Gazetalar:

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti paramaetrлari hamda 2020-2021 yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida // Xalq so‘zi. – 2018-yil 28-dekabr, 48-son. – B. 1-2.

Jurnallar:

Abdullayev S. Bojxona protseduralarini soddalashtirishda Yagona oyna mexanizmini qo‘llashning istiqbolli masalalari // Bojxona axborotnomasi. – Toshkent, 2019. №1. – B. 34-40.

Internet manbalari:

1. Портал растущих компаний [Электронный ресурс] Консалтинговая группа «Leks» URL: <http://www.uprav.biz>, свободный. Murojaat sanasi: 2019-yil 4-sentabr (rus tilida).

2. Архив журнала «Вестник ассоциации менеджеров» [Электронный ресурс] Ассоциация менеджеров URL: <http://www.vam.amr.ru/archive/> свободный. Murojaat sanasi: 2019-yil 4-sentabr (rus tilida).

Tadqiqot bibliografiyasini tuzish tartibi

Tadqiqotchi uchun bibliografiya ustida ishlash jarayoni mavzu tanlanayotgan davrdayoq boshlanadi. Bu jarayon uzoq vaqt, ya’ni mavzuni yoritish jarayonida ham davom etaveradi. Hech bir tadqiqotchi tanlagan mavzusini yoritishga kirishmasdan avval hamma adabiyot va manbalarni yig‘ib bo‘ldim deya olmaydi. Mavzuni yoritishga kirishgan tadqiqotchi o‘z ilmiy ishining har bir bobu, paragrafida yana qo‘srimcha adabiyotlar, manbalar ustida ishlash zarurligiga ishonchi komil bo‘lib boradi. Agar tadqiqotchi ilmiy ish himoyasigacha ham manba va adabiyotlar ustida ish olib boraveradi, deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mavzuga oid bibliografiya tuzishda chop etilgan kitoblardagi foydalangan adabiyotlar ro‘yxati, ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan iqtiboslar, maqolalar, ilmiy to‘plamlardagi adabiyotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, asosiy bibliografiya tadqiqotchiga tanlagan mavzusi bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini tuzib, ularni tadqiqot rejasiga moslab, ma’lum tizimga ajratib o‘rganib chiqishda katta yordam beradi. Ammo internet saytlarida e’lon qilingan adabiyotlarga ma’lum darajada tanqidiy yondashish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Tadqiqot oxirida, aniqrog‘i xulosadan keyin foydalangan manba va adabiyotlar ro‘yxati alohida betdan boshlab keltiriladi. Ilmiy izlanish oxirida keltiriladigan “Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati”ni shakllantirishda amal qilinadigan tartib-qoidalarga rioya qilish har qanday tadqiqotchi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu aslida bibliografik qo’llanma tartibida bo‘lib, keltiriladigan manba va adabiyotlar ro‘yxatini ma’lum bir tizim asosida rasmiylashtirishni taqozo etadi.

Ushbu ro‘yxat ilmiy ishning amaldagi qismlaridan birini tashkil etadi va tadqiqotchining mustaqil ijodiy ishini aks ettiradi. Bunday ro‘yxatga kiritilgan har bir manba ilmiy ish qo‘lyozmasida aks ettirilishi kerak. Agar ish muallifi o‘zlashtirilgan qandaydir faktlarni qayd qilsa yoki boshqa mualliflar asarlaridan parcha keltirsa, unda u

albatta keltirilgan materiallarning qaerdan olinganligini satr ostida ko‘rsatib o‘tishi kerak.

Ilmiy ish matnida qayd qilinmagan va amalda ishlatilmagan ishlar bibliografik ro‘yxatga kiritilmaydi. Bunday ro‘yxatga ensiklopediyalar, ma’lumotnomalar, ilmiy-ommaviy kitoblar va gazetalarni kiritish ham tavsiya qilinmaydi. Bunday nashrlardan foydalanishga zarurat bo‘lsa, unda ularni ilmiy ish matnida satrlar ostidagi havolalar (snoskalar)da ko‘rsatish kerak.

Tadqiqotchi tomonidan tuziladigan ro‘yxatga ilmiy tadqiqotda u yoki bu darajada foydalanilgan manbalar, ilmiy va boshqa adabiyotlar, avtoreferat va ilmiy ishlar, maqola va tezislar, ya’ni ilmiy ishning kiring, asosiy qism, izoh, xulosa va ilovalarida keltirilgan adabiyot va manbalar kiritiladi. Ro‘yxatda keltirish tartibi esa ma’lum bir guruhlarga bo‘lish – tasniflash belgilari asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vazifalardan biri – manbara nimani qo‘shish lozim va adabiyotlar deganda nimani tushunish kerakligini aniqlashdan iborat. Manba va adabiyotlarni shunchaki ajratib qo‘yish hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Tadqiqot mavzusi va uning maqsad, vazifalaridan kelib chiqqan holda manba va adabiyotlar turi, xususiyatiga aniqlik kiritiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatini tuzish quyida berilgan tartibga rioya qilish asosida bo‘ladi.

I. Rasmiy manbalar (normativ-huquqiy hujjatlar): O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlari va kodekslari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, qo‘mitalar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari.

II. Ilmiy va o‘quv adabiyotlari: monografiya, ilmiy to‘plam, darslik, o‘quv qo‘llanma, ilmiy ish, avtoreferat, maqola va b.

III. Xorijiy tillardagi manbalar.

IV. Elektron axborot resurslari materiallari.

Agar muallif ikki nafar bo‘lsa, ularning familiyasi to‘la va ismi-sharifining bosh harflari keltiriladi, uch va undan ortiq bo‘lgan taqdirda, birinchi muallif familiyasi va ismi-sharifining bosh harfi keltirilib “va boshqalar” jumlasini keltirish kifoya qiladi.

Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishining oxirida keltirayotgan foydalangan manba va adabiyotlar ro‘yxatiga aslida foydalanmaganlarini qo‘sib qo‘yishi mumkin emas. Ayni paytda tadqiqotni tayyorlash jarayonida o‘qib chiqqan, lekin amalda foydalanmagan adabiyotlar ham ro‘yxatga kiritilmaydi. Barcha foydalaniłgan adabiyotlar alifbo tartibida kiritiladi. Ularni qanday rasmiylashtirish quyidagi misollar yordamida ko‘rsatilgan.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Davlat boji to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020, 03/20/600/0023-son).

2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi PF-5903-son farmoni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.01.2020, 06/20/5903/0039-son).

3. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirishda bojxona tartibotlarini takomillashtirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1057-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.01.2020, 09/20/1057/4261-son).

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

Do‘smitov R.D. Audit asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 604 b.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmati // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. № 1. – B. 57-58.

Internet saytlari:

<http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

Savol va topshiriqlar:

1. Tadqiqotchining ilmiy mehnat madaniyati xususida fikringizni bayon eting.
2. Intellektual mulk deganda nimani tushunasiz?
3. Mualliflik huquqlariga nimalar kiradi?
4. Plagiat kategoriyasiga nimalar kiradi?
5. Matnning originalligi qanday aniqlanadi?
6. Plagiatning oldini olish usullari haqida so‘zlab bering.
7. Davriy matbuot materiallari tadqiqotda qanday ahamiyat kasb etadi?
8. Kutubxona fondidan foydalanish haqida qanday tushunchaga egasiz?
9. Rasmiy nashrlar, ilmiy adabiyotlar va davriy matbuotdan iqtibos keltirish tartiblari haqida so‘zlab bering.
10. Ilmiy tadqiqotning bibliografiyasi qanday tartibda tuziladi?

6-mavzu

EKSPERIMENTAL TADQIQOTNI OLIB BORISH. STATISTIK MATERIALLAR, JADVALLAR VA ILOVALARNI RASMIYLASHTIRISH.

Reja:

1. Eksperimental tadqiqot va uni olib borish tartibi.
2. Statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallarni rasmiylashtirish.
3. Ilovalarni rasmiylashtirish.

Tayanch so‘z va iboralar:

Eksperiment, eksperiment reja-dasturi, eksperiment metodikasi, subyektiv ta’sir, kuzatish daftari, grafik, sxema, jadval, illustratsiya.

Eksperimental tadqiqotni olib borish tartibi

Eksperimental tadqiqotlar yangi ilmiy bilimlar olishning asosiy usullaridan biridir. Eksperiment o’tkazishdan bosh maqsad nazariy qoidalarni tekshirish, ya’ni ishchi gipotezani tasdiqlash hamda ilmiy tadqiqot mavzusini yanada kengroq va chuqurroq o’rganishdir.

Eksperimentlar tabiiy va sun’iy bo‘lishi mumkin. Tabiiy eksperimentlar ishlab chiqarish, turmush va h.k.larda ijtimoiy hodisalarni o’rganish maqsadida o’tkaziladi. Sun’iy eksperimentlar esa texnika va boshqa fanlarda keng qo‘llaniladi.

O’rganilayotgan obyekt yoki jarayon modelining xususiyatiga, eksperimentlarni tanlash va o’tkazishga bog‘liq holda ular *laboratoriya* va *ishlab chiqarish* turiga bo‘linadi. Laboratoriya eksperimentlari maxsus modellashtiruvchi qurilma va stendlarda namunaviy asboblar va tegishli apparatlar yordamida o’tkaziladi. Ular xarajatni kam qilgan holda qimmatli ilmiy axborotni olish imkonini beradi. Ammo eksperimental tadqiqotlarning bunday turi hamma vaqt ham jarayon yoki obyekt haqidagi ma’lumotlarni to‘liq aks ettira olmaydi.

Ishlab chiqarish eksperimentlari atrof muhitdagi turli tasodifiy omillarni hisobga olgan holda, mavjud sharoitlarda o’tkaziladi. Ular laboratoriya eksperimentlariga qaraganda murakkab bo‘lib, tajribalar naturalarda (real jarayon yoki obyektlarda) olib borilganligi uchun hajmdor hisoblanadi, shu sababdan o’tkazishdan avval puxta fikrlash va rejorashtirishni talab etadi.

Eksperimental tadqiqotlarni samarali o’tkazish uchun eksperiment metodologiyasi ishlab chiqiladi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- eksperimentning reja-dasturini ishlab chiqish;

- o‘lchamlarni baholash va eksperiment o‘tkazish vositalarini tanlash;
- eksperimentni o‘tkazish;
- eksperiment natijasida olingan ma’lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilish.

Eksperimentning reja dasturi. Eksperimentning reja-dasturi – eksperimental tadqiqotlarning metodologik asosidir. Reja-dastur quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tadqiqot mavzularining ro‘yxati va ishchi gipotezaning mazmuni;
- eksperiment metodikasi va uni bajarish uchun zarur materiallar, asboblar, qurilmalar va h.k.lar ro‘yxati;
- bajaruvchilar ro‘yxati va ularning kalendar ish rejasi;
- eksperimentni bajarish uchun xarajatlar ro‘yxati.

Eksperiment metodikasi deb metodlar, eksperimental tadqiqotlarni maqsadga muvofiq bajarish usullarining majmuiga aytildi. Umumiylar tarzda u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- eksperimentning maqsad va vazifasi;
- omillarni tanlash va ularning o‘zgarish darajasi;
- vositalar va o‘lchashlar intervalini asoslash;
- eksperiment mohiyati va tartibining bayoni;
- eksperiment natijalarini ishlab chiqish va tahlil qilish usullarini asoslash.

Eksperimentning maqsad va vazifasi ishchi gipoteza va tegishli nazariy ishlanmani tahlil qilish asosida aniqlanadi. Vazifa aniq bo‘lishi, ularning soni uncha ko‘p bo‘lmashligi lozim: oddiy eksperiment uchun – 3...4, majmua eksperiment uchun esa – 8...10 ta. O‘rganilayotgan jarayon yoki obyektga ta’sir etuvchi omillarni tanlash qabul qilingan ishchi gipotezaga muvofiq nazariy ishlanmalarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Barcha omillar mazkur eksperiment uchun avval muhimlik darajasiga ko‘ra saralanadi, so‘ngra ulardan asosiyлари va yordamchilari ajratiladi. Omillar soni uncha ko‘p bo‘lmaganda (3 gacha) ularning muhimlik darjasini bir omilli eksperiment bo‘yicha

aniqlanadi (bitta omil qolganlar muhim bo‘lganda o‘zgaradi). Agar omillar soni katta bo‘lsa, yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, ko‘p omillik tahlil qo‘llaniladi. O‘lhash vositalari eksperimentning maqsad va vazifasidan, o‘lchanadigan parametrlar tavsifi va talab etilayotgan aniqlikdan kelib chiqib tanlanadi.

Eksperiment natijalari namoyish etishning ko‘rgazmali shakliga keltirilishi lozim, ya’ni jadvallar, grafik, nomogrammalar va h.k. tarzida, toki ularni qiyoslash va tahlil qilish mumkin bo‘lsin. Bunda alohida e’tibor natijalarni ishlab chiqishning matematik usullariga, ya’ni empirik bog‘liqlik, omillar va chiqish parametrlari o‘rtasidagi aloqa approksimatsiyasi, mezonlar, ishonchli intervallar o‘rnatish va boshqalarga qaratiladi.

Eksperimentni o‘tkazish. Eksperimentni o‘tkazish – ilmiy tadqiqotning eng muhim va ancha mehnat talab etadigan bosqichidir. Eksperimentlar tasdiqlangan reja-dastur va eksperiment metodikasiga muvofiq o‘tkaziladi. Tadqiqotchi eksperimentga kirishar ekan, sinovlarni o‘tkazish metodikasi va ketma-ketligini tugal aniqlashi lozim.

Eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish jarayonida quyidagi bir qator asosiy *qoidalarga* rioya qilish lozim:

- eksperiment o‘tkazuvchi o‘lhash natijalariga subyektiv ta’sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘ymay, tadqiq etilayotgan jarayon yoki obyekt parametrining barcha tavsifini vijdanan qayd etishi lozim;
- eksperiment o‘tkazuvchi ehtiyoitsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkin emas, chunki bu hol ko‘pincha katta xatoliklarga va natijalarni soxtalashtirishga, oqibatda esa, eksperimentlarni takrorlashga olib keladi;
- eksperiment o‘tkazuvchi albatta kuzatish va o‘lhash daftarini yuritishi kerak, uni tartibli va hech qanday tuzatishlarsiz to‘ldirib borish lozim;

Yuqorida qayd etilgan barcha qoidalarga ayniqsa ishlab chiqarish eksperimentini o‘tkazayotgan hollarda amal qilish kerak.

Eksperiment natijalarini tahlil qilish. Nazariy va eksperimental tadqiqotlarni birgalikda tahlil qilishdan asosiy maqsad eksperiment natijalari bilan ishchi gipoteza ilgari surgan fikrlarni qiyoslashdan iborat. Ishchi gipotezani eksperiment ma'lumotlari bilan qiyoslash natijasida quyidagi hollar kuzatilishi mumkin:

1. Ishchi gipoteza to'liq yoki deyarli to'liq eksperimentda tasdiqlanadi. Bunday vaziyatda ishchi gipoteza nazariy qoida, nazariyaga ko'ra isbotlangan bo'ladi.
2. Ishchi gipoteza eksperimentda qisman tasdiqlanadi, qolgan hollarda unga zid bo'ladi. Mazkur holda ishchi gipoteza eksperiment natijasiga to'liq yoki deyarli to'liq moslanishi uchun modifikatsiyalanadi. Ishchi gipoteza o'zgarishini tasdiqlash maqsadida to'g'rilovchi eksperiment o'tkaziladi. Shundan so'ng gipoteza, birinchi gal dagi kabi, nazariyaga aylanadi.
3. Ishchi gipoteza eksperimentda tasdiqlanmaydi. Bunday holda avval qabul qilingan gipoteza to'liq ko'rib chiqiladi, ya'ni yangisi ishlab chiqiladi. Salbiy ilmiy natijalar esa yangi gipoteza izlash doirasini toraytirish imkonini beradi.

Gipoteza nazariy qoida deb tan olingach, xulosalar va takliflar ifoda topadi, ya'ni tadqiqot natijasida olingan yangisi, mohiyatligi ilgari suriladi. Asosiy xulosalar miqdori 5...10 tadan oshmasligi kerak. Asosiy xulosalar bilan bir qatorda, ayrim holda boshqa xulosalar ham qilish mumkin (masalan, 2-darajali). Barcha xulosalar ikki guruhga bo'linadi: ilmiy va ishlab chiqarish. *Ilmiy xulosalarda* yangilik hissasi ko'rsatiladi, bular bajarilgan tadqiqotlar tufayli fanga kiritilgan bo'ladi. *Ishlab chiqarish xulosalari*, foyda bilan bog'liq bo'ladi, bularni iqtisodiyot sohasida o'tkazilgan eksperimentlar beradi.

Statistik materiallar, tahliliy va ishchi jadvallarni rasmiylashtirish

Ilmiy tadqiqotda ko'rgazmali materiallarning bir qator turlari va shakllari qo'llanadi. Xususan, alohida raqamli materiallar jadval

sifatida rasmiylashtiriladi. Jadvallar mazmuniga qarab tahliliy va ishchi jadvallarga bo‘linishi mumkin. Tahliliy jadvallar umumiy xulosa yoki sharhlashni, muammoning yechimini o‘rganishni taqozo qiladi.

Ishni rasmiylashtirish jarayonida jadvallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, tadqiqotlarda jadvallardan joyida va unumli foydalanish olib borilgan ilmiy ish qimmatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ammo ayni paytda ilmiy tadqiqot matnini tushunarli bayon etish imkoniyati bo‘lsa, ko‘rgazma tariqasida ko‘rsatish shart bo‘lmasa, unda jadvaldan foydalanish shart emas.

Jadval –

- 1) ma’lum tartibda satr, katak va ustunlarga, grafalarga joylashtirib berilgan ma’lumotlar;
- 2) mashg‘ulot, dars, ish, harakat, chora-tadbir va shu kabilarning o‘rni va payti ko‘rsatilgan grafik.

Jadvalda vertikal va gorizontal grafalardan foydalaniladi. Ilmiy ishda jadvallarni raqamlash va nomlashning tartib-qoidalari mavjud. Ilmiy tadqiqotlarda jadvallarni tuzish qoidalari qanday?

Tadqiqotlarda jadvallar gorizontal va vertikal tartibda bo‘lishi mumkin. Har bir jadval imkon qadar qisqa sarlavhaga va ketma-ketlik raqamiga ega bo‘lishi kerak. Jadval sarlavhasi grafalardagi kichik sarlavhalarda qaytarilmasligi maqsadga muvofiq. Shuningdek, jadval va uning sarlavhasi katta harflar bilan yozilgani holda, grafalardagi kichik sarlavhalar mayda harflarda qayd etilishi kerak. Jadvaldagagi bosh sarlavha va grafalardagi (jadvallarda tik chiziqlar orasidagi turli ma’lumotlar yoziladigan ustun, oraliq) kichik sarlavhalar mumkin qadar aniq va oddiy-tushunarli bo‘lishi lozim. Ayni paytda jadvallarda qisqartmalardan foydalanmaslik tavsiya etiladi.

Har bir jadval o‘z raqami va nomiga ega bo‘ladi. Hamma jadvallar arab raqamida belgilanadi va jadvalning tepasida, o‘ng burchakka, sarlavhadan tepaga, katta harfda yoziladi. Jadvalning raqamlanishi, bob raqami va jadval raqamini aks ettirishi kerak. Masalan, **1.3. jadval**. Bu birinchi bobdagi uchinchi jadval degan ma’noni bildiradi.

Agar ilmiy tadqiqotda faqatgina bitta jadval keltiriladigan bo‘lsa, unda *jadval* so‘zi yozilmaydi va raqami ham qayd etilmaydi. Ammo ayni paytda sarlavha yoziladi. Agar jadval boshqa varaqda (betda) davom etsa, u holda jadval so‘zi va raqami ko‘rsatilib, “davomi” yoki “oxiri” deya qayd etib, so‘ngra dalillar keltiriladi. Masalan, **1.2. jadval davomi (oxiri)**. Bunda jadval sarlavhasi yana qaytarilishi va jadvalning o‘ng tepe qismiga “jadvalning davomi” deb yozib qo‘yish kerak. Jadval ma’lumotlari haddan tashqari katta bo‘lganda faqat jadval ichida 1,0 interval va 12 shriftda yozilishi mumkin.

Ayni paytda tadqiqotda keltirilayotgan jadval manbasi, xususan, qaysi maqola, to‘plam, monografiya yoki arxivdan ekanligi tegishli tarzda iqtibosda keltirilishi shart. Grafa jadvallarida bo‘sh joy qoldirish mumkin emas. Agar ma’lumot yo‘q bo‘lsa, unda “—” belgisi yoki “yo‘q” so‘zi qo‘llanadi.

Jadvaldan keyin albatta tahlil beriladi. Tahliliy jadvallar umumlashtiruvchi xulosalar va izohlarni talab qiladi. Ma’lumotlari ilgari matbuotda e’lon qilingan jadvallardan foydalanishda ushbu o‘zlashtirilgan materialning ayni qaysi manbada keltirilganligini izohda albatta ko‘rsatish kerak. Agar matnda xorijiy tillardagi takliflar, qo‘shimchalar yoki so‘zlar mavjud bo‘lsa, unda ular to‘liq yozilishi kerak.

Ilmiy ishdagi illustratsiya, sxema, diagramma, spektr, fotosurat, eskiz va shunga o‘xshash tasvirlar *rasm* deb belgilanadi. Agar rasm bitta bo‘lsa, rasmning ostiga raqami va nomi, rasm ikkita bo‘lsa, *a*, *b* bilan belgilanib, *a* va *b* nimani anglatishi izohlanadi. Bundan tashqari, rasmida 1, 2, 3, ... va h.k lar bo‘lsa, ular ham nomlanadi. Rasm osti tushuntirishlarni ham 1,0 intervalda yozishga ruxsat etiladi.

Grafik – turli narsa va hodisalarining miqdoriy bog‘lanishlarini chiziqlar, chizmalar vositasida tasvirlash.

Diagramma – chiziqli kesmalar shaklida ifodalanuvchi turli miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni tasvirlovchi chizma, grafik tasvir.

Gistogramma – diagrammaning bir turi bo‘lib, unda kategoriyalar gorizontal o‘q bo‘yicha, ularning mazmuni vertikal o‘q bo‘yicha joylashtiriladi.

Sxema – bino, inshoot, mashina, mexanizm va shu kabilarning umumiy muhim tomonlari va qismlari o‘rtasidagi bog‘lanish shartli belgilar bilan masshtabsiz ifodalangan chizma.

Graf-sxema – sxemaning bir turi bo‘lib, unda matnning asosiy subyektlari orasidagi mantiqiy aloqalar grafik usulda tasvirlanadi.

Infografika – axborotni yetkazishning grafik va kommunikatsiya dizayni usuli bo‘lib, uning maqsadi murakkab axborotni tez va aniq qilib ko‘rsatishdan iborat.

Agar hodisalar, qonuniyatlar, shartnomalar, ilmiy tadqiqot matni bayonida fikr-mulohazalar, ilmiy mushohadalar, ilmiy talqinlar, nazariyalar, g‘oyalar ma’lum bir chizma, sxema, fotosuratlar orqali o‘z aksini, isbotini topsa, unda illustratsiyalarni ham jadvaldagi raqam kabi, arab raqami ketma-ketligida tegishli izoh bilan keltirish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda keltiriladigan *skrinshotlar* nafaqat illustratsiya, balki hujjat tariqasida ham berilishi mumkin. Bu bilan ilmiy tadqiqot qimmati yanada oshadi.

Illustratsiyalar berishga to‘g‘ri kelsa, matndan keyin qavs ichida tegishli izoh, masalan **1.2. rasm** deb yozib, o‘sha betning o‘zida emas, joylashtirish qulay bo‘lgan keyingi betlarda ham keltirish mumkin.

Statistik materiallar matnda bayon qilingan axborotni qayd qilish uchun ishlatiladi.

Ishda keltirilgan formulalar alohida satrdan yoziladi va o‘ng tomonidan qavs ichida arabcha raqamlar bilan raqamlanadi. Formulaning pastida “bunda” degan so‘z bilan boshlanadigan belgilar ifodasi yoziladi. Sxemalar va grafiklar arabcha raqamlar bilan ifodalanadi. Ishlatilgan grafiklar, sxemalar, diagrammalar, rasmlar rasm ostidagi yozuv bilan to‘ldirilishi lozim.

Ilovalarni rasmiylashtirish

Ilmiy tadqiqotlarda ilovaning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ma’lumki, har qanday ilmiy tadqiqot (kurs ishi, bitiruv malakaviy ish, dissertatsiya) o‘zining belgilangan hajmiga ega. Tadqiqotchi belgilangan hajm doirasida ilmiy tadqiqotini tugatishi kerak. Agar ilmiy tadqiqot mavzusi va materiallar hajmi juda ko‘p bo‘lsa, belgilangan tartib-qoidadan chiqib ketmaslik, ma’lum darajada qulaylik bo‘lishi uchun ayrim jadval, illustratsiyalarni ilovaga o‘tkazish mumkin. Birinchidan, ilova (foydalangan manba va adabiyotlar ham) ilmiy tadqiqot hajmiga kirmaydi. Ikkinchidan, tadqiqotchi ilovalarni to‘laqonli keltirish asosida ilmiy ishi qiymatini tushirmay taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilova ham ma’lum bir tartib-qoidalar asosida keltiriladi:

- ilova (soni cheklanmagan) ilmiy tadqiqot oxirida foydalangan manba va adabiyotlardan keyin keltiriladi;
- har bir ilova tartib raqami bo‘yicha, alohida varaqda beriladi;
- ilmiy tadqiqotda keltirilgan ilovalar arab raqamida qayd etilib, varaqning o‘ng burchagida **-ilova** deb ko‘rsatiladi;
- ilova alohida kitob shaklida, jildda keltirilsa, ilmiy tadqiqot mavzusi keltiriladi va alohida “Ilova” so‘zi qayd etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ilova keltirish zaruriyatdan kelib chiqadi. Ilovada tadqiqot uchun yordamchi materiallarni, ya’ni matn ichida to‘la-to‘kis keltirish imkoniyati yo‘q, ammo ayni paytda mavzuni yoritishda katta ahamiyatga molik daliliy hujjatlar nusxalari, guvohnomalar, statistik ma’lumotlar, jadvallar, rasmlar, chizmalar, xaritalar, diagrammalar, turli xil tasdiqlangan ma’lumotnomalarni keltirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Umuman olganda, ilovada keltirilgan materiallar tadqiqotning yanada mazmunli bo‘lishi, uning ilmiy mohiyati to‘laqonli yoritilishiga xizmat qilishi kerak.

Ilovalar ilmiy ishning oxirida bibliografik izohdan keyin aks ettiriladi, axborot manbalari albatta jadvallar va suratlar tagida ko‘rsatiladi, varaqlarda sahifalar raqamlari qo‘yilmaydi. Har bir ilova

yangi sahifadan boshlanadi va *1-ilova*, *2-ilova* tarzida ifodalanadi. So‘ngra ilova nomi yoziladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Eksperiment tadqiqotlar deganda nima tushuniladi?
2. Eksperimentning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ilovalarning vazifasi nimadan iborat?
4. Ilovalar qanday rasmiylashtiriladi?

Amaliy ishlash uchun topshiriqlar:

1. Bitta ilmiy ishni tanlang, uning tuzilishini o‘rganing.
1. Ilmiy ishning mazmuni va tuzilishi bo‘yicha tahlil tayyorlang.
2. Ilmiy ishning rasmiylashtirilishini tahlil qiling. Tahlilda rasmiylashtirish bo‘yicha quyidagi qoidalarning bajarilishini aks ettiring:
 - ilmiy ishning titul varag‘i;
 - boblar va paragraflarning nomlanishi;
 - matndagi qaydlar, ko‘chirmalar va o‘zlashtirishlarning berilishi;
 - statistik material;
 - ilovalar.

7-mavzu

ILMIY TADQIQOT NATIJALARINING APROBATSİYASI

Reja:

1. Ilmiy tadqiqot natijalariga oid materiallarni e’lon qilish.
2. Ilmiy nashrlar.
3. O‘quv adabiyotlari.
4. Ilmiy taqriz tayyorlash.

Tayanch so‘z va iboralar:

Nashr, nashriyot, ilmiy maqola, tezis, risola, monografiya, dissertatsiya, avtoreferat, darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma’ruzalar kursi, ma’ruzalar to‘plami, mashqlar (masalalar) to‘plami, lug‘at, dayjest, elektron o‘quv adabiyotlari, elektron darslik.

Ilmiy tadqiqot natijalariga oid materiallarni nashr qilish

Ilmiy materiallarni nashr qilish tadqiqotchi tomonidan bajarilgan ilmiy izlanish natijalariga mualliflik huquqini oshkora himoya qilish shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Nashr qilish oshkora yoki yopiq holda amalga oshiriladi.

Ochiq matbuotda muayyan talablarga zid bo‘lmagan hamda maxfiy bo‘lmagan ilmiy ishlar e’lon qilinadi. Amaliy va nazariy jihatdan muhim hisoblangan va yangi olingan ilmiy natijalar monografiya, ilmiy maqola, ilmiy tadqiqot hisobotlari, ilmiy-amaliy anjuman materiallari va tezislari shaklida nashr etiladi.

Barcha nashrlar quyidagi belgilari bo‘yicha tasniflanadi:

- *nashr yo‘nalishi va kimga mo‘ljallanganiga qarab*: ilmiy (shu jumladan akademik), ilmiy-ommabop, o‘quv nashrlari;
- *matnni taqdim qilish usuliga qarab*: hujjatli, tanqidiy nashrlar;
- *nashr turiga qarab*: tipografiya, kinematografiya, ovozli, elektron nashrlar;
- *hajmi (masshtabi)ga qarab*: alohida nashrlar, seriya, kutubxona;
- *manbalarni qamrab olishiga qarab*: to‘liq asarlar to‘plami, to‘plamlar (antologiya, xrestomatiya);
- *maqomiga qarab*: umum ilmiy, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatiga kiradigan, xalqaro (iqtibos bazalariga kiradigan).

Ilmiy tadqiqot ishlarini nashr qilishda quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- 1) noshir talablarini o‘rganish;
- 2) ilmiy ish mazmunini yozma ravishda to‘liq bayon qilish;
- 3) ilmiy ishga tashqi taqriz olish;
- 4) ilmiy ishni noshirga topshirish.

Nashrga tayyorlangan ilmiy material kirish qismidan, bayon etilayotgan ilmiy natijaning mazmunidan va olingan xulosalardan tashkil topadi. Agar ilmiy ishda muallif boshqa tadqiqotchining ilmiy ishiga havola qilgan bo‘lsa, ushbu ishlar adabiyotlar ro‘yxatida keltirilishi lozim.

Ilmiy nashrlar

Ilmiy maqola. Ilmiy tadqiqot natijalarini aks ettiruvchi janr ilmiy maqoladir. Ilmiy maqola tadqiqotchini keng ilmiy ommaga, ayniqsa xorijdagi tadqiqotchilarga tanitadigan eng asosiy ilmiy ishdir. Ilmiy maqolalar ilmiy izlanish natijalarini asosli, dalillarga, manbalarga, adabiyotlarga tayangan holda, qiyosiy tahlillar asosida yoritishga imkon yaratadi.

Ilmiy maqolani yozishda muallif ikki narsaga e’tiborini qaratishi lozim:

- 1) maqolada aks etayotgan mavzuning dolzarbligi va ahamiyatliligi, ilmiy maqolada ko‘tarilgan muammoni o‘rganish zaruriyati;
- 2) maqolaning maqsadi, ko‘tarilgan masalaning ilmiy yechimi, takliflar muallifning fikr va mulohazalari asosida aniq yoritilishi lozim.

Muallif maqola yozishda rejaga muvofiq ishlashi lozim, aks holda maqolaning maqsadi va vazifalari, ko‘tarilgan masalaning yechimi maqolada o‘z ifodasini topa olmaydi. Maqolaning nomlanishi maqola mazmuniga mos kelishi, qisqa va aniq ifodalangan bo‘lishi lozim. Maqolada tadqiqot mavzusining biror-bir tomoni ko‘rib chiqiladi, muammo nimadaligi va uning yechimi haqida taklif-tavsiyalar beriladi.

Maqolaning strukturasi annotatsiya, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar qismlaridan tashkil topishi, iqtibos va havolalar, mualliflik qisqartmalari, shartli belgilar, jadvallar, chizmalar to‘g‘ri joylashtirilishi lozim. Ilmiy maqola odatda kafedrada professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rib chiqiladi va muhokama qilinib, kafedra majlisi yoki ilmiy seminar qarori bilan chop etishga tavsiya qilinadi.

Ilmiy maqolani shartli ravishda kirish, asosiy qism va xulosa qismiga ajratish mumkin.

Kirish qismida mavzu asoslanishi, nazariy jihatdan uning foydali jihatlari yoritilishi, bugungi kun talablariga ko‘ra ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qismida mavzu dalillar yordamida ifodalanishi, amaliyotga tatbiqi, foydalanish o‘rinlari asoslanishi lozim. Bunda aniqdan umumiylashtirishga, umumiylidan batafsil ko‘rib chiqishga o‘tish lozim. Asosiy qismda mavzuga oid bir necha savollar qo‘yish, muammoli vaziyatlarning mantiqiy yechimini tahlil qilish o‘rinlidir.

Xulosada bayon qilingan asosiy fikrlarni ixchamlash, saqlab qo‘yilgan oxirgi fikrni bayon etish o‘rinli bo‘ladi.

Tadqiqotga oid ilmiy maqola quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– maqola sarlavhasi mumkin qadar qisqa va ayni paytda mazmundagi asosiy g‘oyani o‘zida aks ettirishi zarur;

– maqola sarlavhasidan keyin o‘ng burchakda muallif – tadqiqotchingning ismi-sharifining bosh harfi va familiyasi hamda ayrim hollarda qaysi shahardagi oliy ta’lim muassasasida o‘qishi yoziladi (*xuddi shu tartib maqola oxirida, gazetalar uchun beriladi*);

– ilmiy maqola mohiyatiga ko‘ra, tadqiqotchi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishning ma’lum bir qismi yakuni sifatida ifodalab beruvchi yozma manba hisoblanadi;

– ilmiy maqolalar tadqiqot mavzusining ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, gazeta, jurnal va ilmiy to‘plamlarda chop etiladi;

- maqola hajmi, odatda, A4 formatdagi qog‘ozda 6-12 betni, ayrim hollarda undan ham ko‘proqni tashkil qilishi mumkin;
- maqolada qayd etiladigan iqtisodiy va huquqiy atamalar, iboralar, geografik hududlar nomlari, og‘irlik va uzunlik o‘lchovlari tegishli tarzda o‘z izohiga ega bo‘lishi lozim;
- maqolada keltiriladigan dalillar, voqeа-hodisalar talqini, ilmiy yangiliklar asosli, ya’ni o‘z manbasiga ega bo‘lishi va bu tegishli tarzda iqtibosda aks etishi kerak;
- maqola oxirida tadqiqotchi tomonidan aniq ifodalangan xulosa bo‘lishi darkor;
- ba’zi jurnallar tomonidan maqolaga boshqa tillarda (ingliz, rus) annotatsiya va kalit so‘zlar keltirish talab qilinadi.

Ilmiy maqola mazmunli va ommabop bo‘lishi uchun aniq xulosani bera olishi lozim. Maqola yozishdan aniq bir maqsadni ko‘zlash kerak.

Maqola uslubi deganda uning bayon tili tushuniladi. Ommaviy maqolada tuzilayotgan jumlalar mumkin qadar sodda bo‘lishi lozim. Bir ega va bir kesimli gaplar samarali ta’sir ko‘rsatadi, chunki murakkab qo‘shma gaplar oddiy o‘quvchi uchun zerikarli bo‘lib, aniq fikrni anglashga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Iloji boricha bir so‘zni ikki marta takrorlamaslik, so‘zning sinonimlardan foydalanish maqsadga muvofikdir. Birinchi jumladagi fikr keyingi jumlada to‘ldirilishi, davom etishi lozim. Bir fikrni qayta takrorlash sun’iylikka olib keladi, chunki bu fikrni ham buzadi, fikrning ta’sirchanligiga ham putur yetkazadi.

Maqolani uchinchi shaxs tilidan yozish tavsiya etiladi. Maqola yozayotganda mantiqiy ketma-ketlikka urg‘u berish, masalaga yangicha nuqtayi nazar bilan yondashish, o‘quvchilar undan ma’naviy ozuqa olishini ta’minlash, maqolaning zamon talabiga mos bo‘lgan yaxlit asar bo‘lishi kerakligini unutmaslik kerak.

Tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishlar bo‘yicha izlanishlar natijasini tezis shaklida chop etishga tayyorlash zarurati tug‘ilishi mumkin.

Tezis – yunoncha *thesis* so‘zidan olingan bo‘lib, asosiy ma’lumot, ma’ruzaning qisqa ifodasi demakdir. Tezis ilmiy matn bo‘lib, u o‘zida ilmiy tadqiqotning asosiy natijalarini va ularni olish usullarini aks ettiradi. Tezisning eng muhim talablaridan biri uning qisqaligi hisoblanadi. Tadqiqot bo‘yicha tayyorlangan tezis odatda, A4 formatdagi qog‘ozga 14 shriftda tushirilib, kompyuterda 2-5 betni tashkil qilishi kerak. Tadqiqotning ma’lum bir yo‘nalishini aks ettirish kerak bo‘lgan tezislар o‘z tarkibida chizmalarga, jadvallarga ham o‘rin qoldirishi va ayni paytda ilmiy izlanish natijalariga taalluqli asosiy g‘oyalar aniq va lo‘nda, ilmiy ifodalanishi darkor.

Tezislар ilmiy ma’ruzaning qisqartirilgan shakli emas. Tezislarning maqsadi – ilmiy anjuman, konferensiya yoki seminarning boshqa qatnashchilariga tadqiqot mazmunini yanada yaxshiroq tushuntirishdan iborat. Tezis yozishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish kerak.

Sarlavha. Tezis ustida ish boshlashdan avval uning sarlavhasini o‘ylab ko‘rish kerak. Sarlavha tadqiqot mazmunini aks ettirishi lozim, ammo u ilmiy ish mavzusi bilan bir xil bo‘lishi shart emas. Muallif qisqa vaqt ichida o‘z tadqiqoti haqida qatnashchilarga to‘liq so‘zlab berishga ulgurishi lozim. Tezis sarlavhasi lo‘nda bo‘lgani ma’qul, shu bilan birga u sodda va umumiyo bo‘lmasi kerak.

Tarkibi. Har qanday matn – bu puxta o‘ylangan tarkibdir. Tezislар 3ta asosiy va muhim jihat: dolzarblik, muammo va maqsaddan iborat bo‘ladi.

Dolzarblik – bu tadqiqotning bugungi kunda naqadar muhim va zarur ekanligini ko‘rsatuvchi holat. Tadqiq etilayotgan masalaning dolzarbliги xususida yozganda bu borada dalillarni keltirishni unutmaslik kerak. Dolzarblik “Nega aynan mazkur mavzuni tadqiq etish kerak?” degan savolga javob beradi. Dolzarblikdan kelib chiqqan holda tezislarning muammosi shakllantiriladi.

Muammo – bu bugungi kunda jarayon yoki holat to‘g‘risidagi va real faktlar o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshilikdir. Muammo “Masalaning ilgari o‘rganilmagan qaysi jihatlarini taddiq etish

mumkin?” degan savolga javob beradi. O‘z navbatida tanlangan muammodan kelib chiqqan holda tezis maqsadi shakllantiriladi.

Maqsad – tadqiqotning yakuniy natijasidir. Bu tezisning eng muhim qismidir. Unda “ishlab chiqish”, “aniqlash”, “asoslash”, “hisoblab chiqish” kabi so‘zlar qo‘llanadi; muallifning tadqiq qilayotgan mavzuni ochishga, uning yangi qirralarini ko‘rsatishga qo‘shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar aniq, miqdoriy ko‘rsatkichlarda va tadqiqot maqsadlariga bog‘liq bo‘lishi zarur.

Natijalarni ajratib ko‘rsatilgan holda berish maqsadga muvofiq: tartib raqamlarda (1, 2, 3 ...), harflar bilan (A, B, C ...), kirish so‘zlar bilan (“Birinchidan, ...”, “Ikkinchidan, ...”) va hokazo.

Tezis yakunida albatta xulosa berilishi kerak.

Xulosa – bu yuqorida bildirilgan fikrlarni yana bir bor qaytarish emas, balki tadqiqot natijalarining tahlilidir. Xulosa yangi holatlarni olib chiqishi va “Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha...” degan so‘zlardan boshlansa maqsadga muvofiqdir. Xulosa “Tadqiqot o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishdimi?” degan savolga javob beradi. Albatta tezisda boshqa mualliflarning ishlaridan foydalanish, ularning fikrlarini keltirganda muallif ishi, asari, maqolasiga havola berish lozim. Bu ilmiy izlanishlar makonida muallifning qanchalik to‘g‘ri va erkin harakatlanganini ko‘rsatadi.

Risola hajmi bo‘yicha kichik kitob va yirik maqola o‘rtasidagi asar bo‘lib, u alohida nashr ko‘rinishida chop etiladi. Risola keng ommaga mo‘ljallangani uchun ilmiy ommabop asarlar sirasiga kiradi, shuning uchun unda murakkab ilmiy tushunchalar, terminlar kamroq qo‘llanadi.

Monografiya – yunon tilidan olingan bo‘lib, *monos* – yakka, yagona, *grapho* – yozaman degan ma’noni anglatadi. Monografiya deb ilmiy dunyoqarashi bir xil bo‘lgan bir yokibir nechta muallif tomonidan muayyan bir muammo yoki mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan kitob shaklidagi ilmiy nashrga aytildi. Monografiya ilmiy ish bo‘lib, bir mavzuni chuqur ochib berishga bag‘ishlanganligini bildiradi. Demak,

tugallangan bir yirik tadqiqotning mantiqiy nihoyasi, ilmiy izlanishni butunligicha qamrab olgan, ma'lum bir tizimli bayonga ega bo'lgan, hajmi 5 bosma taboqdan (1 bosma taboq – 16 bet) oshadigan ilmiy asar monografiya deyiladi.

Monografiya tuzilishiga ko'ra kirish, asosiy qism va xulosalarni o'z ichiga olib, ilmiy ish natijalarini keng, asosli, dalillar va tahlillar bilan yoritishga qaratilgan bo'ladi. Monografik turdagি tadqiqotlar qatoriga o'rganilayotgan muammo xarakteri va batafsilligi bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlikka yozilgan dissertatsiyani ham kiritish mumkin.

Dissertatsiya muayyan fan yo'nalishida olib borilgan tugallangan tadqiqot ishi hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot ko'lami va bajarilgan ish natijasiga ko'ra muayyan sohada fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc, falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD dissertatsiyalari bo'ladi. Monografiyalardan farqli o'laroq, dissertatsiyalar maxsus kitob sifatida nashr etilmaydi, ular faqatgina qo'lyozma, ya'ni kompyuterda terilgan ko'rinishdagina taqdim etiladi. Dissertatsiyaning to'liq matni bilan esa Milliy kutubxona va dissertatsiya himoyasi bo'layotgan muassasaning kutubxonasida tanishish mumkin.

Avtoreferat. PhD va DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan har bir dissertatsiya asosida uning muallifi alohida matnni yaratadi. Uning hajmi kichik broshuraga teng bo'ladi. Bu matn dissertatsiyaning avtoreferati deb nomlanib, mazmuni bo'yicha dissertatsiyaning qisqa bayonidir. Avtoreferat dissertatsiyaning himoyasidan oldin mazkur muammo bo'yicha adabiyotlar mavjud bo'lgan barcha kutubxonalarga hamda o'xshash yoki yaqin muammolar bilan shug'ullanadigan muassasalarning kutubxonalariga yuboriladi. Bundan tashqari, dissertatsiya tadqiqoti mazmunining eng ahamiyatli jihatlari, odatda, mazkur muallifning joriy nashrlarida (maqola, ma'ruza) o'z aksini topadi.

O‘quv adabiyotlari

O‘quv adabiyotlari, avvalo, ikki turga: **bosma va elektron adabiyotlarga** bo‘linadi. Ta’lim turlarining har bir bo‘g‘ini uchun asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar bosma nashr shaklida cop etiladi. Mazkur o‘quv adabiyotlari davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib va izchillik, ilmiylik, bilim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan o‘quv adabiyotlarini yaratish tamoyillari asosida yaratiladi.

Bosma o‘quv adabiyotlar.

Darslik – muayyan o‘quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to‘liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta’lim turlariga (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o‘quv nashridir. Darslikda muayyan o‘quv fanining o‘quv dasturidagi barchamateriallar to‘liq aks ettiriladi. Darslik rasmiy instansiya (vazirlik) tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv nashridir. Darslikdan turdosh ta’lim yo‘nalishlarida ham foydalanish mumkin.

O‘quv qo‘llanma – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, mazmunan va shaklan ta’lim turlariga (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o‘quv nashridir. O‘quv qo‘llanma aniq o‘quv dasturi asosida yaratilib, fanasoslarini chuqur o‘rganishni ta’minlaydi va ba’ziqismlarni chuqurroq yoritishga yoki mashqlar echishga qaratiladi. O‘quv qo‘llanma oliy ta’lim muassasasi o‘quv rejasida ko‘rsatilgan vaqt me’yorlariga hajm jihatidan javob

berishi kerak. O‘quv qo‘llanmada bayon etish usuli talabalar uchun tushunarli, sodda, ilmiy iboralarga kamroq burkangan holda bayon etilishi kerak.

Uslubiy qo‘llanma – professor-o‘qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Uslubiy ko‘rsatma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va bat afsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha bilim oluvchilarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Uslubiy tavsiyanoma – muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o‘zlashtirish, nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha uslubiy yordam ko‘rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o‘quv adabiyoti hisoblanadigan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Ma’lumotlar to‘plami (banki) – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta’lim yo‘nalishini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan, isbot talab qilmaydigan ma’lumotlar, ilmiy ko‘rsatkich va o‘lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ilmiy, amaliy, ma’lumotlardan tashkil topgan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Ma’ruzalar kursi – fanning o‘quv dasturi bo‘yicha ma’ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha

mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ta'lif muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lif muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Mashqlar (masalalar) to'plami – muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lif muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatalishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lif muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr.

Dayjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr.

Elektron o'quv adabiyotlari yangiliklar asosida takomillashtirib turish mumkinligi, mustaqil o'qib shug'ullanish uchun imkoniyatlari

kengligi bilan bosma adabiyotlardan farqlanadi. Ular ta’lim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘sishimcha ma’lumotlar bilan ta’minalashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratiladi. O‘quv adabiyotlarning mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta’lim olish, yangi bilimlarni o‘quv adabiyotlardan izlab topish ko‘nikmalarini hosil qilishni ta’minalashi kerak.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallari, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarali o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan bo‘lib:

- o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o‘quv materiallar verbal (matn) va ikki o‘lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimedia – ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va verbal (matn) shaklda bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish usullarini aytib bering.
2. Ilmiy nashrlarga nimalar kiradi?
3. O‘quv adabiyotlarining qanday turlari mavjud?
4. Elektron o‘quv adabiyotlarining qulayligi nimada?

8-mavzu

ILMIY ISHNI HIMOYA QILISH TARTIBI

Reja:

1. Ilmiy ishni rasmiylashtirish.
2. Dastlabki himoya va ommaviy himoya jarayoni.

3. Ilmiy ishning taqdimoti.
4. Ilmiy munozara olib borish etikasi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Ommaviy himoya, dastlabki himoya, ilmiy rahbar xulosasi, taqrizchi, Davlat attestatsiya komissiyasi, elektron taqdimot, ilmiy munozara etikasi.

Ilmiy ishni rasmiylashtirish

Ilmiy ish bo‘limlarini ketma-ketlikda bayon qilish va ularning bir-biriga uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi asosiy talablardan biridir. Ilmiy ishda boblarning mazmuni tadqiqotning asosiy maqsadiga javob berishi kerak. Ketma-ketlikni buzuvchi material ilmiy ishga kiritilmaydi. Ayrim materiallar ish oxirida ilova sifatida alohida keltirilishi mumkin.

Ilmiy ishda tahliliy material ustun kelishi, ya’ni tadqiqotchining izlanish muammosi aniq darajada o‘zlashtirilganligini ko‘rsatish kerak. Statistik ma’lumotlar faqatgina faktlarni tasdiqlash uchun ishlatiladi.

Tugallangan ilmiy ishni tadqiqotchi kasbiy ta’lim dasturi bo‘yicha shaxsiy ish rejasini bajarganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomha, shuningdek ilmiy rahbar xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar, ilmiy ishning elektron varianti bilan birga dastlabki himoyadan o‘tish uchun kafedraga taqdim etadi.

Ilmiy ish nashriyot amaliyotida qabul qilingan standartga muvofiq tikib muqovalangan bo‘lishi kerak.

Matn Misrosoft Word matnli redaktorida Times New Roman 14 shriftda yoziladi.

Matn A4 formatdagi varaqda yozilgan bo‘lib,
qatorlar oralig‘i – 1,5 sm;
yuqori va pastki hoshiya 2 sm,
satr boshi – chap tomondan 3 sm, o‘ng tomondan 2 sm;
xatboshilar orasidagi oraliq – 5 yoki 6 belgili bo‘ladi.

Betning tartib raqami sahifaning osti o‘rtasiga qo‘yiladi. Ilmiy ishning har bir bobi yangi betdan boshlanishi lozim. Bobning yoki sarlavhaning orasi asosiy matndan qo‘shimcha ravishda berilgan interval asosida ajralib turishi kerak. Ilmiy ishning hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashqari 70 – 80 sahifa bo‘lishi tavsiya etiladi.

Ilmiy ishni rasmiylashtirishning tipik xatolari:

1. Sarlavhalardagi ko‘chirishlar.
2. Har bir bob oxirida xulosaning yo‘qligi.
3. Tadqiqot vazifalari bilan olingan xulosalarning nomutanosibligi.
4. Eskirgan adabiyotlarning qo‘llanishi (10 yildan ortiq).
5. Bibliografik ro‘yxatda talablarning buzilishi.
6. Havolalarning noto‘g‘ri rasmiylashtirilishi.
7. Manbalarning kamligi (30 – 40 tadan kam bo‘lmasligi kerak).

Dastlabki himoya va ommaviy himoya jarayoni

Ilmiy ishning dastlabki himoyasi ilmiy rahbar va / yoki ilmiy maslahatchi ishtirokida kafedrada tuzilgan komissiya ishtirokida tashkil etiladi. Dastlabki himoyaga boshqa kafedralardan, shuningdek boshqa tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin. Ilmiy maslahatchi tayinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan ilmiy ishga xulosa olish ham talab etiladi.

Dastlabki himoyaga qadar tadqiqotchi tayyorlagan ilmiy ishga ichki va tashqi taqrizlar hamda ilmiy rahbar xulosasi tayyor bo‘lishi, shuningdek muallifning ilmiy ish mavzusiga doir kamida maqola yoki tezislari e’lon qilingan bo‘lishi kerak.

Dastlabki himoya yakunlari kafedra yig‘ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Ichki va tashqi taqrizchilarni oliy ta’lim muassasasining tegishli kafedrasi tavsiya etadi va ularning ro‘yxati ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi.

Taqrizchining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ilmiy ishning dolzarbligi, ilmiy yangiligi va tugallanganligi to‘g‘risida xulosa taqdim etish;
- taqrizni ilmiy ishning dastlabki himoyasidan kamida 3 kun oldin taqdim etish;
- ilmiy etika qoidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, yolg‘onssitata keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko‘rsatish.

Ilmiy ish belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, muallif tomonidan ilmiy etika qoidalari (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, yolg‘onssitata keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda taqrizchi ilmiy ishni himoyaga qo‘yish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida xulosa beradi.

Bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi. Himoya ommaviy shaklda bo‘lib, ilmiy munozara tusida hamda yuksak talabchanlik, prinsipiallik va ilmiy etikaga rioya qilish vaziyatida o‘tadi.

Ilmiy ishning *rasmiy himoyasi* quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ish muallifining taqdimoti;

ish muallifining komissiya a’zolarini savollariga bergen javoblari; komissiya a’zolarining ilmiy ish bo‘yicha sharhlari;

komissiya a’zolari tomonidan ilmiy ishga berilgan tavsiya va e’tirozlarga muallifning bildirgan fikrlari.

Himoya paytida Davlat attestatsiya komissiyasi ish mavzusini e’lon qiladi, tadqiqotchining familiyasi, ismi-sharifini ma’lum qiladi, shuningdek ishda zarur hujjatlarning mavjudligini bildiradi, tadqiqotchining “ta’limiy va ilmiy tarjimai holini”, uning o‘zlashtirishi, e’lon qilgan maqolalarini qisqacha tavsiflaydi.

So‘z tadqiqotchining ilmiy rahbariga beriladi. Ilmiy rahbar o‘z nutqida tadqiqotchining ilmiy ish ustida olib borgan ishga munosabatini ochib beradi. Komissiya raisi ilmiy rahbarning ilmiy ish haqidagi yozma xulosasini komissiyasi a’zolariga o‘qib beradi.

So‘ngra tadqiqotchining o‘ziga so‘z beriladi. Tadqiqotchi nutqini oldindan tayyorlagan ma’ruzasi asosida quradi (imkonи boricha uni o‘z so‘zlari bilan ifodalab berish tavsiya etiladi). Tadqiqot natijalarini ma’lum qilish uchun unga muayyan belgilangan vaqt beriladi.

Ma’ruza tadqiqotning metodologik bazasini, qo‘yilgan vazifalar yechimi natijalari va ilmiy ish mavzusi bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi asosiy diqqat-e’tiborini o‘tkazilgan tadqiqotning asosiy yakunlari, o‘zi shaxsan ishlab chiqqan yangi nazariy va amaliy qoidalarga qaratadi.

Tadqiqotchining nutqidan keyin raislik qiluvchi bajarilgan ilmiy ishga berilgan taqrizlarni o‘qib beradi va ularda bildirgan fikrlarga o‘z javobini aytishi hamda tavsiyalar yuzasidan fikr-mulohazalarini bayon qilishi uchun tadqiqotchiga so‘z beradi.

Shundan so‘ng muhokama va ilmiy munozara jarayoni boshlanadi. Davlat attestatsiya komissiyasi a’zolari ilmiy ishda ko‘tarilgan muammolar, tadqiqot uslublari bo‘yicha har qanday savollarni berishi, tadqiq etish tartib-qoidalarini va tajriba ishi natijalarini aniqlashtirishi mumkin.

Munozara tugaganidan so‘ng tadqiqotchiga yakunlovchi so‘z berilishi ham mumkin.

Davlat attestatsiya komissiyasi a’zolarining yopiq majlisida himoyaga yakun yasaladi. Bunday qaror komissiya a’zolari ovozlarining oddiy ko‘pchiligi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lib qolganida komissiya raisining ovozi hal qiluvchi bo‘lib hisoblanadi.

Rasmiy himoyada komissiya a’zolari tadqiqotchini quyidagi *mezonlar* asosida baholaydi:

✓ ilmiy ish mavzusining dolzarbligini va uning amaliyat bilan bog‘liqligini ko‘rsatib bera olishi;

- ✓ muallifning tadqiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;
- ✓ foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;
- ✓ ish maqsadi, undagi masalalar va farazlarni shakllantirishda nazariy yondashuvlarning ishlatilish darajasi;
- ✓ ishning ilmiy yangilik darajasi va natijalarning mahalliy hamda xalqaro amaliyotdagi ahamiyati;
- ✓ tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanganligining asoslab berilganligi;
- ✓ ishdagi masalalarni hal qilishda sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanishning asoslanganligi hamda foydalanilgan tadqiqot usullari imkoniyatlari va chegaralarining tanqidiy tahlili;
- ✓ tadqiqotchi tomonidan yig'ilgan va shakllantirilgan birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumotlarning hajmi va yangilik darajasi, ularning tadqiqotdagi masalalarga mosligining asoslanishi, ularni toplash usullarining tanqidiy tahlili;
- ✓ tadqiqotchi tomonidan to'plangan va shakllantirilgan ma'lumotlar asosida olingan natijalarning ilmiy ishga mosligi, ishonchliligi va qo'llanilish sohalarining mavjudligi;
- ✓ tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollarini muallif mohiyatan tushunib etganligi;
- ✓ olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni ilmiy ishning nazariy qismiga aloqadorligi hamda maqsad va vazifalariga mosligi;
- ✓ ilmiy ish yozilishida nazariy va amaliy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi va tizimliligi;
- ✓ muallifning ilmiy ish doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyati.

Ilmiy rahbar va taqrizchilarining taqrizlaridagi, shuningdek komissiya har bir a'zosining yuqorida qayd etilgan mezonlarga ko'ra qo'yan baholari umumlashtirilgan holda ilmiy ishga yakuniy baho

qo‘yiladi. Rasmiy himoya natijalari komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

Ilmiy ishning taqdimoti

Tadqiqotchining ilmiy ishi taqdimoti belgilangan vaqt dan oshmagan holda elektron shakldagi materiallarni aks ettirishi lozim. Unda quyidagi masalalar yoritib beriladi:

- 1) ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi;
- 2) tadqiqotning nazariy poydevori, ya’ni manbalarni tanqidiy ko‘rib chiqish natijasida hosil bo‘lgan va ishning asosiy qismini tashkil etuvchi tizimlashtirilgan nazariy bilimlar;
- 3) tadqiqotning metodologik asosining tavsifi;
- 4) tadqiqot olib borilishiga doir farazlar va cheklovchi shart-sharoitlar;
- 5) tadqiqotchi tomonidan ilmiy ishni bajarish davomida olingan asosiy natijalar va ularning ilmiy ish mavzusiga to‘g‘ri kelishi, ishonchliligi va qo‘llanilish sohasi;
- 6) olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati;
- 7) tadqiqot natijalarini rivojlantirish istiqbollari.

Tadqiqotchidan taqdimotda o‘rganilgan muammoga tegishli masalalarni ilgari surish va ularni hal etish, umumiy tendensiyalar va muayyan holatlarni tizimli ravishda o‘rganish, hodisalarni tadqiq etish, tahlil qilish va prognozlashning metodik uslublarini bilishi va qo‘llay olishini namoyon etishi talab qilinadi.

Taqdimot slaydlarida aks ettirilgan materiallar qisqa, lo‘nda, aniq keltirilishi, ularni aks ettirishda originallik darajasi yuqori bo‘lishi tavsiya etiladi. Quruq matnlardan iborat bo‘lgan hamda tadqiqotchining ma’ruzasini qaytaradigan slaydlar himoya jarayonining zerikarli o‘tishiga olib keladi. Slaydlarda turli grafik tasvirlar, sxemalar, histogrammalar, fotosuratlar va videofayllardan foydalanish, animatsiyani me’yorida ishlatish taqdimotning qiymatini yanada oshiradi. Xulosa va tavsiyalar ham qisqa, aniq tarzda aks ettirilishi lozim.

Shu bilan birga, taqdimotda ayrim tushunchalar, so‘zlar, terminlar va shu kabilarga auditorianing e’tiborini kuchaytirish uchun ularning tagiga chizish tavsiya qilinadi.

Ilmiy ish himoyasida namoyish etiladigan taqdimotning barcha slaydlari bir xil fonga ega bo‘lishi, shriftning ham o‘lchami va turi bir maromda bo‘lishi tavsiya etiladi. Taqdimotda rang-baranglik va haddan tashqari ko‘zni qamashtiradigan detallar auditoriyani charchatadi hamda diqqatni chalg‘itadi. Shu bois barcha slaydlar sipo, rasmiy ko‘rinishda bo‘lishi hamda ilmiy uslub doirasidan chiqmasligi maqsadga muvofiq.

Ilmiy munozara olib borish etikasi

Ilmiy ishni himoya qilish jarayonida dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan qabul qilingan, yozilmagan qonun-qoidalar mavjudki, ularga rioya qilish tadqiqotchining ilmiy madaniyatiga qo‘yiladigan asosiy talablardan hisoblanadi.

Ilmiy ishning rasmiy himoyasida Davlat attestatsiya komissiyasi a’zolari tomonidan tinglovchining ilmiy munozara olib borishi hamda auditoriya bilan ishslash madaniyati darajasi ham hisobga olinadi.

Ilmiy ish himoyasida tadqiqotchiga so‘z berilganida u nutqini avvalo auditoriya bilan salomlashish va himoya ishtirokchilariga hurmat bilan murojaat qilishdan boshlashi kerak. Himoya jarayonida nafaqat tadqiqotchi nutqi matnining mazmuni, shu bilan birga nutqning o‘zi ham himoya muvaffaqiyatini oldindan belgilab beradi. Tadqiqotchi nutqi aniq, imloviy jihatdan to‘g‘ri, tushunarli va ifodali bo‘lishi kerak. U hamma savollarga ishonch bilan, ilmiy dalillar asosida javob berishi, erkin nutqqoidalariga amal qilishi kerak.

Komissiya a’zolari va himoya ishtirokchilarini tomonidan berilgan savollarga javob berishda faqat ish mohiyatiga daxl qilinishi lozim. Tadqiqotchio‘zining ilmiy natijalarini baholashda kamtarinlik va Davlat attestatsiya komissiyasi a’zolariga nisbatan ehtiromli munosabatni namoyon qilishi zarur.

Javob berishdan oldin savolni diqqat bilan tinglash va zarur bo‘lganida savolni yozib olish kerak. Har bir berilayotgan savolga imkonи boricha izchillik bilan javob qaytarish lozim, savollarning hammasini eshitib bo‘lib, faqat shundan keyin ketma-ketlikka rioya qilgan holda javob berish kerak.

Ilmiy ishga taqrizlar bergan mutaxassislarning fikr-mulohazalariga javob qaytarishdan oldin taqrizchilarga ular ilmiy ish bilan tanishib, o‘z fikrlari hamda tavsiyalarini bildirganlari uchun minnatdorchilik so‘zlarini aytish kerak. Keyin bildirilgan fikrlar bo‘yicha tartib bilan javob berish, agar e’tirozlar bo‘lsa, ularni odob va hurmatni saqlagan holda bayon qilish lozim. Shu bilan birga, fikrlarining ishonchlilagini oshirish uchun ilmiy ishning betlarini ko‘rsatib o‘tish samara beradi.

Tadqiqotchi ilmiy ma’ruzasida faktlar ketma-ketligi va mantiqiyligiga rioya qilishi, oddiydan murakkabga qarab borishi lozim. Nutqning jonli, obrazli bo‘lishi himoya ishtirokchilarining diqqatini tortishga yordam beradi.

Tadqiqotchi o‘z nutqida ayniqa kirish va xulosa qismlariga alohida e’tibor qaratishi kerak. Kirish qismining maqsadi auditoriyaning diqqatini mavzuga qaratish, xulosa qismining maqsadi esa auditoriyani ishontirishdan iborat. Shu bilan birga, imo-ishoralar va qo‘l haraqatlariga haddan tashqari berilib ketmaslik lozim.

Nutq jarayonida ayrim jihatlarga e’tiborni kuchaytirish uchun ovozni birmuncha balandlatish usulidan foydalanish mumkin. Pauzalarga rioya qilish kerak.

Umuman olganda, rasmiy himoya jarayonida tadqiqotchidan diqqat-e’tiborli bo‘lish, bosiqlik, izchillik, hissiyotlarga berilmaslik talab qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy ishni himoyaga qo‘yish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

2. Ilmiy ish himoyasi uchun elektron taqdimot qanday tayyorlanadi?

3. Ilmiy munozara olib borishda nimalarga amal qilish kerak?

MUSTAQIL ISHLAR MAVZULARI

1. Fan taraqqiyotining bosqichlari.
2. XXI asrda ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati.
3. Fan va amaliyat orasidagi ziddiyatlar.
4. Bojxona sohasida ilmiy tadqiqotlarning dolzarbliji.
5. Bojxona ishi sohasida tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar.
6. Ilmiy tadqiqot o‘tkazishda elektron ma’lumotlar bazalaridan foydalanish.
7. Ilmiy tadqiqotning axborot ta’minoti.
8. Bojxona sohasiga oid ilmiy adabiyotlar va manbalar bilan ishlash.
9. Ilmiy bilihsning umumiyligi va maxsus usullari.
10. Tadqiqot uchun zarur ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash metodlari.
11. Ilmiy ishning ilmiy apparati.
12. Ilmiy adabiyotlarning turlari va xususiyatlari.
13. Tadqiqot natijalarini e’lon qilish usullari.
14. Eksperimental tadqiqot o‘tkazish va natijalarni rasmiylashtirish.
15. Ilmiy ishning ilovalar qismi.

GLOSSARY

- Abstraktlashtirish (mavhumlashtirish)** – fikrlash jarayoni, o‘rganilayotgan hodisalarning asosiy qonuniyatlarini aks ettirish imkonini beradigan nazariy umumlashtirish.
- Abstraksiya** – narsalar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning bir qator xossalari ni fikran ajratish.
- Agnostitsizm** – falsafiy ta’limot, obyektiv borliq va haqiqatning obyektiv mohiyatini bilishni rad etadi, fanning vazifasini hodisalarning bilish bilan chegaralaydi, narsalar mohiyati va tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlar rivojlanish qonuniyatlarini bilish mumkin emas deb hisoblaydi.
- Adaptatsiya yoki moslashtirish** – aks ettirishning alohida shakli, ichki va tashqi muhit o‘rtasida dinamik muvozanat o‘rnatuvchi jarayon.
- Algoritm** – 1) qat’iy belgilangan qoida bo‘yicha tatbiq etiladigan operatsiyalar tizimi, u tadrijiy ravishda bajarilgandan so‘ng qo‘yilgan masalani yechimga olib keladi; 2) boshlang‘ich berilganlarni izlanayotgan natijaga keltiruvchi mohiyatni belgilovchi va operatsiyalar ketma-ketligining ifodasi.
- Amaliy ahamiyat (qimmat)** – tadqiqotchilik ishi natijalaridan amaliyotda foydalanish tusi.
- Analogiya** – o‘xshashligi, prototipi tanlanadigan fikriy operatsiya.
- Aniqlashtirish** – abstraktlashtirishga teskari jarayon, yaxlit, o‘zaro bog‘liq, ko‘p tomonlama obyektning topilishini nazarda tutadi.

- nashr haqidagi qiskacha axborot; hujjat, uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining vazifasi, mazmuni, shakli va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsifnomasi.
- Aprobatsiya
- tekshirish, sinashga asoslangan qo‘llab-quvvatlash, tasdiqlash.
- Arxetip
- jamoaviy ongsiz holatlarda mavjud bo‘lib, tasavvurning faolligini o‘siruvchi fantaziyalar obrazlarining tug‘ma psixik tuzilmalari, boshlang‘ich sxemalari.
- Bibliografiya
 - 1) nashr va qo‘lyozma mahsulotlarini hisobga oluvchi va u haqidagi ma’lumotlardan iborat ilmiy va amaliy faoliyat tarmog‘i;
 - 2) mavzu bo‘yicha adabiyotlarning to‘liq yoki saralangan ro‘yxati.
- Gipoteza
- faraz; biror hodisani tushuntirish uchun ilgari surilayotgan va ishonchli ilmiy nazariya bo‘lishi uchun tajribada tekshirishni hamda nazariy jihatdan asoslashni talab etuvchi ilmiy fikr.
- Gnoseologiya
 - nazariy bilish, ilmiy bilish manbalari, shakllari va usullarini, uning haqiqat ekanlik shartlarini, insonning hayotini o‘rganish.
- Dalillangan esse
 - quyilgan savolga dalillangan javob mavjud bo‘lgan yozma ish. Muallif muayyan pozitsiyaga ega va uni himoya qiladi, uni quvvatlash uchun bir qator dalillarni taq-dim etadi. Maqsad – muallifning nuqtai nazariga boshqalarni ham ishontirish.

- | | |
|-----------------------|--|
| Deduksiya | <ul style="list-style-type: none"> – fikrlashning umumiy qonuniyatlardan xususiy faktlarga tomon rivojlanishini nazarda tutadigan fikriy operatsiya. |
| Ilmiy ish | <ul style="list-style-type: none"> – muayyan ilmiy (akademik) malakani (darajani) olish maqsadida maxsus tayyorlangan, ommaviy muhokamaga va himoyaga qo‘yiladigan ilmiy asar. |
| Ilmiy yo‘nalish | <ul style="list-style-type: none"> – tadqiqot o‘tkazish sohasidagi fan, fanlar yoki ilmiy muammolar majmui. |
| Ilmiy ish | <ul style="list-style-type: none"> – boshka har qanday ishdan o‘zining maqsadi, yangi ilmiy bilimni olishi bilan farq qiladi. Ayni shu ish jarayonda voqelik haqidagi obyektiv bilimlar ishlab chiqiladi va bir tizimga solinadi. |
| Ilmiy ish rejasi | <ul style="list-style-type: none"> – muallif g‘oyasining sxematik ifodasi. |
| Ilmiy mavzu | <ul style="list-style-type: none"> – yechimini talab qiladigan murakkab vazifa. Ilmiy ish mavzusi mauyyan ilmiy yo‘nalishga yoki ilmiy muammoga tegishli bo‘lishi mumkin. |
| Ilmiy muammo | <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy tadqiqotchilik ishi mavzusini belgilaydigan murakkab nazariy va (yoki) amaliy vazifalar majmui. Muammo tarmoq, tarmoqlararo, global bo‘lishi mumkin. |
| Ilmiy tadqiqot uslubi | <ul style="list-style-type: none"> – muayyan bilish maqsadini hisobga olgan holda muayyan bilish vazifalarini hal etishga qaratilgan aqliy va (yoki) amaliy operatsiyalar (rusum-qoidalar) tizimi. |
| Induksiya | <ul style="list-style-type: none"> – xususiy faktlarni umumlashtirish, ayrim hollarda umumiy xulosaga, ayrim faktlar-dan umumlashmalarga olib keluvchi fikriy operatsiya. |

- | | |
|-----------------------|--|
| Konspekt | <ul style="list-style-type: none"> – asosiy xulosalar va qoidalar, faktlar, dalillar, usullarni o‘z ichiga oladi; tuzuvchining materialga nisbatan munosabatini aks ettiradi. |
| Konsepsiya | <ul style="list-style-type: none"> – qarashlar tizimi, hodisalar, jarayonlarning biror tarzda tushunilishi. |
| Kuzatish | <ul style="list-style-type: none"> – eng ko‘p axborotli tadqiqot uslubi, bo‘lgan va o‘rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni chetdan turib ko‘rishga imkon beradi. |
| Mavzuning dolzarbligi | <ul style="list-style-type: none"> – mavzuning nazariya va amaliyot uchun kerakli ekanligi, fanda ko‘pincha oldingi nazariy tasavvurlar doirasiga yaqqol joylashmaydigan yangi faktlarning kashf qilinishi natijasida vujudga keladigan vaziyatning mavjudligi bilan belgilanadi. |
| Magistr | <ul style="list-style-type: none"> – ilmiy ijod metodologiyasi va uslubiyati, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallagan, axborotlarni tahlil etish va sintez qilish malakasiga ega bo‘lgan keng bilimli mutaxassis. |
| Magistratura | <ul style="list-style-type: none"> – oliy ta’limning ilmiy tadqiqotchilik va ilmiy-pedagogik faoliyatga mutaxassislarni tayyorlash shakli. |
| Ilmiy ish | <ul style="list-style-type: none"> – magistrni tayyorlash bo‘yicha asosiy kasbiy ta’lim dasturiga o‘qitishning yakunlovchi bosqichida talaba-tadqiqotchi tomonidan ilmiy rahbar rahbarligida mustaqil bajariladigan ilmiy yo‘nalishdagi ish. |
| Maqola | <ul style="list-style-type: none"> – mustaqil ilmiy tadqiqot, dolzarb ilmiy muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilish. |

Metod	<ul style="list-style-type: none"> – 1) tabiat hodisalari va ijtimoiy hayotni tadqiq etish va bilish usuli; 2) yo‘l, usul yoki harakat tarzi.
Metodika	<ul style="list-style-type: none"> – biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari, yo‘llarining majmui.
Metodologiya	<ul style="list-style-type: none"> – 1) bilishning ilmiy usuli haqidagi ta’limot; 2) biror fanda qo‘llaniladigan usullar majmui.
Modellashtirish	<ul style="list-style-type: none"> – tadqiqotchilikning model qurilishini nazarda tutadigan nazariy uslubi.
Model	<ul style="list-style-type: none"> – 1) yalpi ishlab chiqarish uchun biror bir buyumning namunasi; 2) narsaning kichraytirilgan ko‘rinishdagi tarzi; 3) tabiatda va jamiyatdagi biror hodisa yoki jarayonning tasviri yoki tavsifi, tarxi.
Monitoring	<ul style="list-style-type: none"> – tadqiqot natijalarining doimiy nazorat qilinishi, muntazam kuzatib borilishi.
Muammo	<ul style="list-style-type: none"> – bilim bilan bilmaslik o‘rtasidagi o‘ziga xos chegara. U oldingi bilim etarli bo‘lmagan, yangi bilim esa hozircha rivojlangan shaklga ega bo‘lmagan holatda paydo bo‘ladi.
Mutolaa	<ul style="list-style-type: none"> – nutqiy faoliyatning murakkab turi, texnik jihat – mutolaa qilish va tez o‘qish malakalarini orttirish, ijodiy jihat – matndan zarur axborotlarni olishdan iborat.
Nazariya	<ul style="list-style-type: none"> – 1) tabiat va jamiyat rivojining obyektiv qonuniyatlarini ifodalovchi ijtimoiy amaliyot, tajribani umumlashtirish; 2) biror fan yoki uning qismi umumlashtirilgan qoidalarining majmui.

- | | |
|--------------|--|
| Naturfalsafa | <ul style="list-style-type: none"> – tabiat falsafasi; tabiatni uning yaxlitligida aqliy mushohada yo‘li bilan talqin qilish. |
| Obyekt | <ul style="list-style-type: none"> – 1) bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud tashqi dunyo, u idroklash subyektning amaliy ta’sir o‘tkazuvchi manba; 2) biror faoliyat yo‘naltirilgan narsa, hodisa. |
| Paradoks | <ul style="list-style-type: none"> – 1) umum qabul qilingan, oqilona fikrga zid fikr, mulohaza; 2) odatdagи tasavvurlarga mos kelmaydigan kutilmagan hodisa. |
| Reja | <ul style="list-style-type: none"> – eng qisqa yozuv bo‘lib, u fikr bayonining izchilligini aks ettiradi va umumlashtiradi; matnning mazmunini ochib beradi; manbaning mazmunini xotirada qayta tiklaydi; konspekt va tezislар o‘rnini bosadi; har xil yozuvlarni (ma’ruza, axborot, xisobot) tuzishga yordam beradi; bajarilgan yozuvni yaxshilaydi; o‘zini o‘zi nazorat qilishni tezlashtiradi; e’tiborni jamlaydi; yaxshi tanish bo‘lgan matnni xotirada jonlantirish uchun ishlataladi. |
| Referat | <ul style="list-style-type: none"> – bir yoki bir necha manbalarda mavjud bo‘lgan g‘oyalarning qisqacha yozuvi, u har xil nuqtai nazarlarni qiylash va tahlil qilish mahoratini taqozo etadi. |
| Sintez | <ul style="list-style-type: none"> – fikriy operatsiya; ongda bir butunlikda, birgalikda va o‘zaro aloqadagi qismlar sifatida mavjud bo‘lgan biror narsa, hodisani ilmiy tadqiq etish usuli; qo‘silma, umumlashma. |

- | | |
|--|---|
| Subyekt | <ul style="list-style-type: none"> – 1) tashqi dunyo (obyekt)ni idrok etayotgan va o‘z amaliy faoliyati mobaynida unga ta’sir o‘tkazadigan inson; 2) huquq va majburiyatlarni zimmasiga oluvchi (jismoniy yoki yuridik) shaxs. |
| Suhbat | <ul style="list-style-type: none"> – empirik uslub; javob beruvchi bilan shaxsiy aloqani nazarda tutadi. |
| Tadqiqot vazifasi | <ul style="list-style-type: none"> – ilgari surilgan farazga muvofiq maqsadga erishish uchun yo‘llar va vositalarning tanlanishi. |
| Tadqiqot dasturi | <ul style="list-style-type: none"> – aniq mavzu ustidagi bo‘lg‘usi ishning mohiyati va tarkibiy qismlari haqidagi aniq tasavvurdir. |
| Tadqiqot maqsadi | <ul style="list-style-type: none"> – tadqiqotchi o‘z ishini yakunlashda erishishni xohlagan pirovard natijar. |
| Tadqiqot obyekti | <ul style="list-style-type: none"> – muammoli vaziyatni yuzaga keltiradigan muayyan jarayon yoki hodisa, bu muammoning o‘ziga xos tashuvchisi, tadqiqotchilik faoliyati yunaltirilgan narsa. |
| Tadqiqot predmeti | <ul style="list-style-type: none"> – obyektning aniq bir qismi bo‘lib, uning ichida izlanish olib boriladi. Hodisalar, ularning ayrim tomonlari tadqiqot predmeti bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqot obyekti haqida oladigan yangi ilmiy bilim sifatida belgilash mumkin. |
| Tadqiqot uslubiyati
(texnologiyasi) | <ul style="list-style-type: none"> – tadqiqot usullarining bir tizimli majmui, tadqiqot uslublari, usullari, texnikalarining qo‘llanish va ular yordamida olingan natija-larni talqin qilish qoidalari tizimi. Uslubiyat o‘rganiladigan obyekt xarakteriga, tadqiqot metodologiyasi, maqsadlariga ishlab chiqilgan uslublar, |

	tadqiqotchi malakasining umumiy darajasiga bog‘liq bo‘ladi.
Tadqiqot farazi	<ul style="list-style-type: none"> – bevosita kuzatilayotgan hodisa, o‘rganilayotgan hodisaning tuzilishi yoki uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalar tusi haqidagi ilmiy asoslangan taxmin. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi.
Tajriba	<ul style="list-style-type: none"> – umumiy empirik tadqiqot uslubi bo‘lib, u boshqariladigan sharoitda o‘rganilayotgan obyektlar ustidan qat’iy nazorat yuritilishiga asoslanadi.
Tajriba ishi	<ul style="list-style-type: none"> – birmuncha yuksak natijalarni olishni ko‘zlab jarayonga oldindan belgilangan o‘zgarishlar, innovatsiyalarni kiritish uslubi.
Taksonomiya	<ul style="list-style-type: none"> – ierarxik tuzilishga ega bo‘lgan mavjudlikning murakkab tashkil etilgan sohasini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi.
Tasniflash	<ul style="list-style-type: none"> – o‘rganiladigan obyektlar, faktlarni o‘rganishning nazariy uslubi; hodisalarni bir-biriga nisbatan tartibga solishga asoslanadi.
Tahlil	<ul style="list-style-type: none"> – 1) yaxlitni tarkibiy qismlarga fikran yoki fizik ajratishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli; 2) bo‘laklarga ajratish, nimanidir ko‘rib chiqish.
Tekshirish	<ul style="list-style-type: none"> – tadqiq qilinayotgan obyektning u yoki boshqa darajadagi teranlik va detallashtirish bilan o‘rganilishi; tadqiqot maksadlari va vazifalari bilan belgilanadi.

- | | |
|------------------|--|
| Test | <ul style="list-style-type: none"> – 1) aqliy rivojlanish, qobiliyat, iroda va insonning boshqa ruhiy fiziologik tabiatini belgilash sinov o‘tkaziladigan topshiriqlarning standart shakli; 2) muayyan ijtimoiy tadqiqotlar uchun foydalaniladigan so‘rovnama. |
| Traktat | <ul style="list-style-type: none"> – muayyan yondashuvni belgilashni o‘z oldiga maqsad qilibqo‘ygan mulohaza shaklidagi ilmiy ish. |
| Transsendensiya | <ul style="list-style-type: none"> – hissiy tajriba bilan tasdiklanmaydigan aqliy mushohada obyektlarining oliy turini ifodalovchi falsafiy tushuncha. |
| Umumlashtirish | <ul style="list-style-type: none"> – muhim fikriy operatsiyalardan biri; uning natijasida obyektlar va ular munosabatlarining nisbatan barqaror xususiyatlari ajratiladi va qayd qilinadi. |
| Unifikatsiya | <ul style="list-style-type: none"> – uyg‘unlashtirish; biror narsani yagona sistema, shakl, bir toifaga keltirish. |
| Fakt | <ul style="list-style-type: none"> – 1) haqiqatda mavjud, o‘ylab topilmagan voqeа, hodisa; biror taxminni tekshirishdan iborat qandaydir xulosa, mulohaza uchun xizmat qiluvchi qat’iy belgilangan bilim, tajribadagi ma’lumot; 2) obyektiv mavjud bo‘lgan haqiqat, aniqlik. |
| Faraz (gipoteza) | <ul style="list-style-type: none"> – oldindan o‘rganilgan faktlar, hodisalar, jarayonlarning muayyan majmuiga asoslangan, ularni izohlash uchun ilgari suriladigan va tasdiqlanishi yoki inkor etilishi lozim bo‘ladigan nazariy taxmin. |
| Evristika | <ul style="list-style-type: none"> – 1) yo‘naltiruvchi savollar yordamida ta’lim berish tizimi; |

- 2) nazariy tadqiqotning mantiqiy usullari va uslubiy qoidalari majmui va haqiqatni izlash.
- Ekstrapolyasiya
 - Esse
 - Yangilik
 - Qiyoslash
- hodisaning bir qismida kuzatish tufayli olingan xulosani boshqa qismiga tadbiq etishdan iborat ilmiy tadqiqot usuli.
- muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayon; qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo‘yicha umumiyligi yoki oldindan bildirilgan fikr-muloxazalar.
- fanning shu tarmog‘iga yoki umuman fanga ulush darajasi; natijalar har xil tusda bo‘lishi mumkin; natijalar yoki ularning bir qismi yangi bo‘lishi mumkin, shuningdek natijalarning katta qismi yangilik sifatida qayd qilinmasligi ham mumkin.
- obyektlarning o‘xshashligi va farqlarini, umumiyligi va alohidaligini aniqlash maqsadida obyektlarning qiyoslanishini nazarda tutadi.

Adabiyotlar va axborot manbaları

1. Алемасов В., Мамадалиев Ш. Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт / Ўқув қўлланма. – Т.: ИИВ Академияси, 2015. – 102 б.
2. Алимжонова Ж.И. Илмий тадқиқот методологияси / Маъруза матнлари. – Т., 2010. – 91 б.
3. Алимова Х.А. ва бошқ. Магистрлар илмий иш ишларини ташкил қилиш, бажариш ва химояга тайёрлаш бўйича услубий қўлланма. – Т.: ТТЕСИ, 2001. – 16 б.
4. Ануфриев А. Ф. Научное исследование. Курсовые, дипломные и диссертационные работы. – М., 2002.
5. Баскаков М. И. От реферата до дипломной работы. – Ростов на Дону, 2001.
6. Бахтина И.Л., Лобут А.А., Мартюшов Л.Н. Методология и методы научного познания/Учебное пособие. – Екатеринбург: УГПУ, 2016. – 119 с.
7. Вайнцвайг П. Десять заповедей творческой личности. – М., 1990.
8. Веревкин А. Я. Как оформить библиографию к научной работе: Методическое пособие. – М., 1992.
9. Гецов Г.Г. Работа с книгой: рациональные приемы. – М., 1984.
10. Горелов Н.А. Методология научных исследований / Учебник для бакалавриата и магистратуры. – М.: Юрайт, 2016. – 290 с.
11. Давлат божхона қўмитасининг Божхона институтида бакалавриат ва магистратура босқичларида ўқув жараёнини ташкил этиш тўғрисидаги низом (ДБҚнинг 2019.01.12 даги 677-сон буйруғига 1-илова).
12. Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари / Ўқув-услубий қўлланма / Б.Ю.Ходиев, А.Ш.Бекмуродов,

М.Р.Болтабаев, Л.В.Голиш, О.Б.Гимранова. – Т.: Экономика, 2010. – 138 б.

13.История экономических учений: Учебное пособие / Под ред. В.Автономова, О.Ананьина, Н.Макашевой. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 784 с.

14.Кара-Мурза Г. Проблемы организации научных исследований. – М.,1981.

15.Колмогоров Ю.Н., Сергеев А.П., Тарасов Д.А., Арапова С.П. Методы и средства научных исследований / Учебное пособие. – Екатеринбург: Изд. Уральского ун-та, 2017. –156 с.

16.Краевский В.В. Методология научного исследования / Пособие для студентов и аспирантов гуманитарных университетов. – Санкт-Петербург: ГУП, 2001.

17.Крутиков В.К., Зайцев Ю.В., Костина О.И. Методология и методика в экономических исследованиях / Учебно-методическое пособие. – Калуга: Изд. “Эйдос”, 2012. – 170 с.

18.Крутов В.И., Грушко И.М. Основы научных исследований / Учебное пособие. – М., 1989.

19.Кузнецов И.Н. Научное исследование. – Минск, 1998.

20.Липчиу Н.В., Липчиу К.И. Методология научного исследования / Учебное пособие. – Краснодар, 2013. – 290 с.

21.Магистратура түғрисида Низом / ЎзР ВМ 02.03.2015 йил 36-сон Қарорига илова (ЎзР ҚХТ, 2015 й., 9-сон, 98-модда, 43-сон, 549-модда; ҚҲММБ, 11.08.2018 й., 09/18/638/1690-сон).

22. Мақсудов Э.Т. ва бошқ. Магистрлик илмий иш ишини бажариш ва расмийлаштириш бўйича услубий қўлланма. – Т.: ТТЕСИ, 2001. – 16 б.

23. Методические указания по написанию магистерской диссертации. – Москва, 2014. – 23 с.

24. Мигачев Ю.И., Петров М.П., Шамрин М.Ю. Как написать магистерскую диссертацию по государственно-правовому профилю / учебное пособие. – Москва: ООО «Проспект», 2019.

25. Мокий М.С., Никифоров А.Л., Мокий В.С. Методология научных исследований / Учебник для магистров. – Москва: Юрайт, 2014. – 255 с.
26. Новиков А.М. Как работать над диссертацией: Пособие для начинающего педагога-исследователя. – М.: Издательство ИПК и ПРНОМО, 1996. – 112 с.
27. Новиков А.М., Новиков Д.А. Методология научного исследования / Учебно-методическое пособие. – Москва: Либроком, 2010. – 280 с.
28. Олий таълим муассасаларини ўқув адабиётлари билан таъминлаш тўғрисида // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори (ҚҲММБ, 11.10.2018 й., 09/18/816/2032-сон).
29. Основы научно-исследовательской деятельности: учеб. пособие / А.Г. Бурда; Кубан. гос. аграр. ун-т. – Краснодар, 2015. – 144 с.
30. Папковская П.Я. Методология научных исследований. – Минск, 2002.
31. Подольская Е.А. Методология научных исследований / Терминологический словарь. – Харьков: Изд. НУА, 2016. – 124 с.
32. Пономарев А.Б., Пикулева Э.А. Методология научных исследований / Учебное пособие. – Пермь: НИПУ, 2014. – 186 с.
33. Пустынникова Е.В. Методология научного исследования / Учебное пособие. – Ульяновск: УлГУ, 2017. – 130 с.
34. Рахматов А.Д., Юнусов Р.Ф. Илмий тадқиқот асослари / Ўқув қўлланма. – Т.: ТИМИ, 2008. – 210 б.
35. Рузавин Г.И. Методология научного исследования / Учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999.
36. Сабитов Р.А. Основы научных исследований / Учебное пособие. – Челябинск: ЧГУ, 2002. – 138 с.
37. Салимова Т.А., Бирюкова Л.И., Маколов В.И. Подготовка и защита магистерской диссертации / Учебно-методическое пособие. – Саранск, 2015. – 62 с.

38. Светлакова Н.А. Научные исследования в экономике / Учебное пособие. – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2016. – 137 с.

39. Учебные и научные издания. Основные виды и аппарат (Методические указания) / сост. Н. П. Лиханская, Г. В. Фисенко, Н. С. Ляшко, А. А. Багинская. – Краснодар: КубГАУ, 2015. – 31 с.

40. Шермуҳамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 512 б.

41. Эко Умберто. Как написать дипломную работу. Гуманитарные науки: Учебно-методическое пособие / Пер. с ит. Е. Костюкович. – М.: Книжный дом «Университет», 2003. – 2 изд. – 240 с.

42. Ўзбекистон Республикасининг “Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида”ги қонуни // ЎзР ҚҲТ, 2006 й., 28-29-сон, 260-модда; 2011 й., 51-сон, 542-модда; 2013 й., 1-сон, 1-модда, 41-сон, 543-модда; ҚҲММБ, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон; 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон.

43. Ўзбекистон Республикасининг “ЭҲМ учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларининг ҳуқуқий ҳимояси тўғрисида”ги қонуни // ЎзР Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 136-модда; ЎзР Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 4-5-сон, 74-модда, 9-сон, 165-модда; ЎзР ҚҲТ, 2011 й., 52-сон, 555-модда.

44. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида магистратура фаолиятини янада такомиллаштириш, унинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида / ЎзР ВМ 10.09.2007 йил 190-сон қарори (ЎзР ҚҲТ, 2007 й., 37-38-сон, 384-модда).

45. Фуломов С.С., Қосимов Ф.М. Маркетинг илмий тадқиқот методологияси: Дарслик. – Т.: ТДАУ, 2013. –171 б.

46. Internet saytlari:

<http://www.vak.uzsci.net>

<https://ru-science.com>

<https://edunews.ru>

<https://www.dissertatus.ru/>

<https://dissertatsija.com/>

<https://nauchniestati.ru>

<https://ru-science.com/ru/blog/publikaciya-nauchnyh-statej-vak/vidy-nauchnyh-publikacij>

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
1-mavzu. Fan va uning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni. Ilmiy bilim asoslari	4
2-mavzu. Ilmiy tadqiqotni tashkil etish va olib borish asoslari ...	21
3-mavzu. Ilmiy tadqiqot ishining tuzilishi	39
4-mavzu. Ilmiy ish tili va uslubi	54
5-mavzu. Ilmiy ish etikasi. Manba va materiallardan iqtiboslar keltirish. Tadqiqot bibliografiyasi	65
6-mavzu. Eksperimental tadqiqotni olib borish. Statistik materiallar, jadvallar va ilovalarni rasmiylashtirish	82
7-mavzu. Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi	91
8-mavzu. Ilmiy ishni himoya qilish tartibi	102
Mustaqil ishlar mavzulari	111
Glossariy	112
Adabiyotlar va axborot manbalari	122

G.A. ASILOVA

ILMIY TADQQIQOT FAOLIYATI ASOSLARI

Uslubiy qo‘llanma

Toshkent – 2020